



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

LABOR ECONOMICS

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

**LABOUR ECONOMICS AND
HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

2025-yil 2-son

Volume 4, Issue 2, 2025



**MEHNAT IQTISODIYOTI
VA INSON KAPITALI**
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 2-2025

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ**

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog'lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:**(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:**(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadiyevich, i.f.d., prof.
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof.
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof.
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof.
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d., prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., (DSc), dots.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:**(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)
Keynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Veb-administrator (Web admin): Musayev Xurshid Sharifjonovich

MUNDARIJA (CONTENTS)

MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI

A.B.Xayitov	Aholining oʻzini oʻzi ish bilan band qilishi: tahlil va natijalar	5-12
N.R.Saidov	Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror ish oʻrinlarini tashkil etishning istiqbolli yoʻnalishlari	13-19
Sh.R.Fayziyeva	Влияние государственно-частного партнёрства на занятость: экономический анализ	20-25
B.Z.Ganiyev B.Sh.Raxmonov	Labor productivity in Uzbekistan: challenges and opportunities	26-32
G.T.Umarova	Mintaqa aholisi ish bilan bandligi: turlari va takibi, taʼsir etuvchi omillar tahlili	33-40

DEMOGRAFIYA

N.B.Tula	Анализ взаимосвязи демографического развития и управленческих подходов в условиях урбанизации	41-52
----------	--	-------

INSON KAPITALI

I.A.Bakiyeva	Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarining taʼlim tizimida tadbirkorlik faoliyatiga kasbiy tayyorlash tajribalari	53-65
K.A.Abdukadirova	Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim xizmatlari bozorida raqobatni rivojlanishi xususiyatlari	66-73
F.A.Doniyorova	Человеческий капитал как стратегический ресурс устойчивого развития: опыт Узбекистана	74-85
F.M.Talipov	Самостоятельная работа студентов по физике и формирование человеческого капитала	86-91

INSON TARAQQIYOTI

D.I.Iskandarova	Aholi turmush darajasi va farovonligini oʻrganishning ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlari	92-100
-----------------	--	--------

MIGRATSIYA

Z.T.Jumanova	Turistlar statistik hisobini olib borish boʻyicha xalqaro standartlar va tajribalar tahlili	101-109
--------------	---	---------

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH

S.I.Mamurov I.E.Saparova	<i>HRM va raqamlashtirish: zamonaviy yondashuvlar va imkoniyatlar</i>	110-121
Z.B.Ro'zibayeva	<i>Turizm sanoatini rivojlantirishda inson resurslarining roli: nazariya va amaliyot uyg'unligi</i>	122-128

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

X.O.Botirova	<i>Tadbirkorlikni rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning nazariy asoslari</i>	129-140
F.A.Ibragimova U.J.Djurayev M.D.Raxmatova	<i>Tadbirkorlik faoliyatida menejment va marketing strategiyalarining o'rni</i>	141-149
D.I.Otaboyeva	<i>O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlanish holati va maqsadli ko'rsatkichlari tahlili</i>	150-156

GENDER TENGLIGI

B.Z.Ganiyev O.U.Dilmurotova	<i>Women in the workforce: unlocking Uzbekistan's productivity potential</i>	157-165
--	--	---------



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



AHOLINING O'ZINI O'ZI ISH BILAN BAND QILISHI: TAHLIL VA NATIJALAR

Xayitov Abdimannon Buxarovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Mehnat iqtisodiyoti” kafedrası professori

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a170

Annotasiya. Ushbu maqolada 2020-yilning mart oyidan boshlangan holat, COVID-19 pandemiyasi sababli global darajada iqtisodiyot uchun xavf darajasi inqiroz holatiga olib kelgan davrda ishsiz qolgan aholini o'zini o'zi ish bilan band qilish borasida qabul qilingan chora-tadbirlar va tartibga solish yo'nalishlarini ijrosi bo'yicha erishilgan amaliy natijalar asoslab berilgan

Kalit so'zlar: o'zini o'zi ish bilan band qilish, global to'lqin, ijtimoiy kafolatlar, yakka tartibdagi tadbirkorlik, bazovoy hisoblash miqdori, ijtimoiy soliq to'lash, "biznesga birinchi qadam", "mahalla-biznes".

САМОЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ: АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Хайитов Абдиманнон Бухарович

Ташкентский государственный экономический университет

Профессор кафедры «Экономика труда»

Аннотация. В статье представлены практические результаты, достигнутые в ходе реализации мер и нормативных актов, принятых для самозанятости безработного населения в период кризиса, вызванного пандемией COVID-19, начавшегося в марте 2020 года, и уровень риска для экономики в глобальном масштабе.

Ключевые слова: самозанятость, глобальная волна, социальные гарантии, индивидуальное предпринимательство, базовая величина расчета, уплата социального налога, «первый шаг в бизнес», «махалля-бизнес».

SELF-EMPLOYMENT OF THE POPULATION: ANALYSIS AND RESULTS

Khayitov Abdimannon Bukharovich

Tashkent State University of Economics

Professor of the Department of “Labor Economics”

Abstract. The article presents the practical results achieved in the course of implementing measures and regulations adopted for self-employment of the unemployed population during the crisis caused by the COVID-19 pandemic that began in March 2020, and the level of risk for the economy on a global scale.

Keywords: self-employment, global wave, social guarantees, individual entrepreneurship, basic calculation amount, payment of social tax, "first step into business", "business in the neighborhood".

Kirish

2020-yilda boshlangan yangi global to'liq bilan kirib kelgan Pandemiya insoniyat oldida misli ko'rilmagan darajada ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarni keltirib chiqardi, qolaversa dunyo mamlakatlarining aynan sog'liqni saqlash tizimidagi tayyorgarligini g'alvirdan o'tkazganligi bu sir emas. Aynan pandemiya orqali shakllangan muhit va shart-sharoit mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa karantin davrida aksariyat korxonalarining vaqtincha ish faoliyatini to'xtashi, shu bilan birga xodimlarni kunlik, og'zaki yoki shartnomasiz mehnat faoliyatiga jalb etgan ish beruvchilar tomonidan ish haqi va ijtimoiy kafolatlar mas'uliyatsizliklar orqali davlat oldida bir qator muammlarni keltirib chiqardi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ish bilan bandlik tushunchasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, jumladan rossiyalik iqtisodchi olim A.I.Rofe ushbu tushunchaga o'z munosabatini bildirib, “Ish bilan bandlik - bu mamlakat aholisining iqtisodiy faol qismidagi kishilar uchun ishlarning mavjudligi, ya'ni amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan, daromadli mashg'ulot bilan band bo'lishidir” - deb ta'rif bergan [1].

Shuningdek, yetuk iqtisodchi olimlardan I.M.Aliyev, N.A.Gorelov, L.O.Ilnalar ushbu tushunchaga: “Ish bilan bandlik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq hamda mehnatdan daromad (ish haqi) keltiruvchi ijtimoiy foydali mehnat sifatida namoyon bo'lishi mumkin” [2]- deb ta'rif berganlar.

Mazkur ta'riflardan farqli o'laroq, bizning fikrimizcha ish bilan bandlik munosabatlari, mehnatga layoqatli kishilarning qanchasi va qay darajada ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishini ko'rsatadigan ijtimoiy- iqtisodiy ko'rsatkichdir. Aholining ish bilan bandligi mehnat unumdorligining oshishiga va o'z navbatida, milliy boylikning ham o'sishiga xizmat qiladi, ayni paytda ishsizlikning salbiy oqibatilari shundaki u nafaqat ishlab chiqarishning pasayishiga, balki pirovardida qashshoqlikning boshlanishiga ham olib kelishi mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida aholi ish bandligini shakllantirishning boshqa tamoyillari ham amal qiladi. Bunda davlat mavjud mehnat resurslaridan ijtimoiy ishlab chiqarishda foydalanish borasidagi monopoliyaga har qanday da'vogarliklardan voz kechadi. Shu asosda boshqa tamoyil – erkin tanlab olingan bandlik tamoyili, ya'ni qonuniy daromadlar manbaiga ega bo'lgan mehnatga layoqatli aholining ixtiyoriy ravishda ish bilan band bo'lmaslik huquqi yuzaga keladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zining mehnat qilish qobiliyati (ishchi kuchi) ni tasarruf etish huquqi faqat uning egasiga, ya'ni xodimning o'ziga tegishli bo'lib, uni hyech kim mehnat qilishga majbur qilishga haqli emas (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno).

Ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim mezoni ish bilan bandlikka bo'lgan munosabatdir. Ish bilan bandlik muammosi ijtimoiy

muammo. Shunday ekan eng yuqori darajadagi aholining demografik jihatlarini va undan samarali foydalanish hamda jamiyat rivoji uchun yo'naltirilganligi ish bilan bandlik kompleks ijtimoiy siyosatning ajralmas qismi, ekanligidan dalolat beradi. Aholining ish bilan bandligi muammolarining ijtimoiyligi uning, eng avvalo, inson, uning manfaatlari va mehnat sohasidagi ehtiyojlariga qaratilganligi bilan belgilanadi. Qanchalik darajada insonning ijtimoiylashuv darajasi yuqori bo'lsa, shunchalik darajada inson kapitalining sifat darajasi o'zgarib boradi.

Akademik Q.Abdurahmonov tomonidan "...ish bilan bandlikning eng kam deganda *to'rt ijtimoiy jihatini* hisobga olish lozimligini, ish bilan bandlikning insonning Konstitutsiyada belgilab berilgan eng muhim huquqi – mehnat huquqi bilan mustahkam bog'liqligi, turmush darajasi va munosib hayot kechirish shart-sharoitlarini shakllantirishda ish bilan bandlik hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aynan ish bilan bandlik mehnat faolligini oshirish, mehnatga qobiliyatli fuqarolar va ular oilalarining turmush darajasini oshirishning eng muhim kafolati, har kimning va umuman, jamiyat farovonligining negizi bo'lgan yuqori umumli mehnatning yangi omilini shakllantirish, aynan mehnat faoliyati insonni o'zgartiradi, uning kasbiy imkoniyatlarini ochib beradi va ko'paytiradi, shaxsning rivojlanishini rag'batlantiradi"¹-deb ta'kidlanadi.

Darhaqiqat, ushbu yo'nalishlar milliy iqtisodiyotdagi moliyaviy, moddiy va mehnat resurslarini qayta guruhlariga ajratish, fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari, shuningdek, ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish, turmush sifati darajasini oshirish yo'llarini belgilab beradi. Bu g'oyat muhim muammolardan biri ekanligi, ayniqsa globalashuv sharoitida ish bilan bandlik tarkibida o'zini-o'zi band qilganlar ulushini oshirish va tartibga solish muammolarini, binobarin, muallif qayd etgandek jamiyat farovonligining negizi bo'lgan yuqori umumli mehnatning yangi omilini shakllantirish aynan butun iqtisodiyotni isloh qilishning muvaffaqiyati, mazkur muammoni e'tirof qilish va hal etishga ma'lum darajada bog'liqligini guvohi bo'ldik. Shunday ekan jamiyat taraqqiyotining asosi aholi tarkibidan hududlar miqiyosida aholining o'zini-o'zi ish bilan bandlik darajasini oshirish hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning hozirgi rivojlanish holatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash maqsadida kompleks yondashuv asosida bir nechta ilmiy uslublar qo'llanildi. Tadqiqotni olib borishda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistika va taqqoslash kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Shu bilan birga qonuniy faoliyat yuritishlarini rag'batlantirish maqsadida bir qator farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Xususan, tadbirkorlik faoliyati

¹ Q.Abdurahmonov. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Daraslik. Qayta ishlangan va tuzilgan 3-nashri. T.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «FAN» nashriyat davlat korxonasi, T.: 2019. – 2576

va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyunda qabul qilingan PQ-4742-sonli qarori aholi tarkibida o'zini-o'zi ish bilan band qilish yo'lidagi dastlabki normativ me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Qarorga asosan jismoniy shaxslar 67 ta faoliyat turidan istalgani bilan shug'ullanishi hamda “Soliq” mobil ilovasi orqali masofadan turib, bepul ro'yxatdan o'tkazish imkoniyati yaratilib, qo'yidagi asosiy yo'nalishlar belgilab berildi:

1-jadval

O'zini-o'zi band etish yo'nalishlari va xizmat ko'rsatish turlari²

№	Yo'nalishlar	Xizmat ko'rsatish turlari
1.	Qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha xizmatlar	Chorva mollarini o'tlatish, ularni parvarish qilish, qishloq xo'jalik o'simliklarini ekish va parvarish qilishda tomorqa egalariga yordam berish
2.	Maishiy xizmatlar	Sartaroshlik, manikyur, kosmetolog, pedikyur, uyda kir yuvish va dazmollash, kalitlar tayyorlash, poyabzal tikish, ta'mirlash va bo'yash xizmatlari
3.	Sanoat yo'nalishi bo'yicha xizmatlar	Yog'och me'morchiligi, santexnika xizmati, elektr montaj ishlari, makulatura, plastik idish, temir tersak to'plash va qo'shimcha xomashyo to'plash
4.	Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish va xizmatlar	Non, uyda pop-korn, muzqaymoq, salatlar, salqin ichimliklar, ayron, go'ja hamda dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish)
5.	Ijtimoiy yo'nalishlar bo'yicha xizmatlar	Uyda repetitorlik qilish, bolalarga qarab turish va ularni parvarish qilish, uy xo'jaligini yuritish, xonalarni tozalash, xalq tabobati
6.	Axborot kommunikasiya yo'nalishi bo'yicha xizmatlar	Ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat, dasturiy ta'minot, mobil ilovalar va veb saytlarni ishlab chiqish, matnni yaratish va ishlov berish

E'tiborlisi, yuqoridagi faoliyat turlari bilan oldinlari yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin edi. Endilikda esa o'zini o'zi band qilgan fuqarolar ham ushbu faoliyat turlari bilan bir vaqtning o'zida shug'ullanishlari mumkin bo'ldi. Quvonarlisi, ushbu amaliyot orqali minglab norasmiy sektorda ishlab kelayotgan jismoniy shaxslarning faoliyati qonuniylashtiriladi. Ularga ijtimoiy soliq to'langan davrda ish staji hisobga olinadi hamda kelgusida pensiya ta'minotiga asos yaratiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik - bu jismoniy shaxs yuridik shaxs tashkil etmasdan va yakka tartibdagi tadbirkor (IE) sifatida ro'yxatdan o'tmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan mehnat faoliyati turi.


2024-yil davomida sohalar kesimida o'sish quyidagicha bo'lgan:

- maishiy xizmatlar — 104,3 foiz (+976 ming nafar, 2025-yil 1-yanvar holatiga 1 mln 912 ming nafar);

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish — 94,6 foiz (+203,1 ming nafar, 417,8 ming nafar);

² Ushbu jadval me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

- axborot-kommunikasiya — 87 foiz (+55,7 ming nafar, 119,7 ming nafar);
- ijtimoiy yoʻnalishdagi xizmatlar — 55,9 foiz (+178,2 ming nafar, 496,9 ming nafar);
- qishloq xoʻjaligi xizmatlari — 53,6 foiz (+386 ming nafar, 1 mln 106,5 ming nafar);
- sanoat xizmatlari — 49,6 foiz (+138,9 ming nafar, 418,9 ming nafar).



1-rasm. 2025-yil 1-yanvar holatiga koʻra hududlar kesimida oʻzini oʻzi ish bilan band etganlar holati tahlili, ming kishi³

2025-yil 1-yanvar holatiga Oʻzbekistonda oʻzini oʻzi band qilgan shaxslar 4,471 mln nafardan oshganini maʼlum qildi. Yil davomida koʻrsatkich 76,5 foizga (1,9 mln nafar) oshgan. Eng yuqori oʻsish maishiy xizmatlar hamda ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohasida kuzatilgan.

Hududlar kesimida eng koʻp oʻzini oʻzi band qilgan shaxslar boʻyicha yetakchi oʻrinlarni Samarqand viloyatida (508,1 ming nafar), Toshkent viloyati (447,2 ming nafar), Qashqadaryo viloyatida (442,5 ming nafar) roʻyxatdan oʻtgan (1-rasm).

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, hozirga kunga kelib, oʻzini oʻzi band qilganlarning 58 foizi erkaklar, 42 foizi esa ayollar hisoblanadi.

Yengil avtotransportda yoʻlovchi tashish faoliyati boʻyicha roʻyxatdan oʻtgan fuqarolar soni 707,3 ming nafarni tashkil etgan. Shundan 450,5 ming nafari 2024-yilda roʻyxatdan oʻtgan. Davlat soliq qoʻmitasi avvalroq 2024-yilda Oʻzbekistonda rasmiy taksi bozorining hajmi 5,89 trln soʻmga yetganini maʼlum qilgandi. Bir qatnov uchun oʻrtacha toʻlov 18456 soʻmni tashkil qilgan. Yil davomida deyarli 320 mln safar amalga oshirilgan boʻlib, ularning 23,7 foizi karta orqali toʻlangan.

Oʻzini oʻzi band qilgan shaxslar mehnat stajini hisoblash uchun yiliga kamida BHMning 1 baravari miqdorida ijtimoiy soliqni ixtiyoriy tartibda

³ Ўзбекистон Республикаси Солиқ қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган

to'lash huquqiga ega. Bu ular BHMning 1 baravaridan ko'proq miqdorda ijtimoiy soliq to'lashlari mumkinligini anglatadi.

O'zini o'zi band qilgan shaxsning pensiyasini hisoblash uchun daromadlar miqdori to'langan ijtimoiy soliq summasidan kelib chiqib, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda aniqlanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor (o'zini o'zi band qilgan shaxs)ning pensiya hisoblashda hisobga olinadigan muayyan oy (yil) uchun daromadi quyidagicha aniqlanadi:

To'langan ijtimoiy soliq summasi/Amaldagi ijtimoiy soliq stavkasi x 100.

Masalan, o'zini o'zi band qilgan shaxs yiliga 500 ming so'm ijtimoiy soliq to'ladi. Pensiya hisoblash uchun yillik daromad miqdori:

$$500\,000 : 12 \times 100 = 4\,166\,666,67 \text{ so'm}$$

Bunda: 12 – ijtimoiy soliq stavkasi.

Bunda pensiyani hisoblash uchun o'rtacha oylik ish haqi PHBMning 12 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda qabul qilinadi. Hozirgi vaqtda bu summa 5 136 000 so'mni tashkil etadi (428 000 x 12).

Aholiga qo'shimcha qulaylik: o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun ijtimoiy soliq to'lash muddati uzaytirildi.

Ta'kidlanganidek, Soliq kodeksining 408-moddasida nazarda tutilgan shu toifadagi shaxslar tomonidan to'lanadigan ijtimoiy soliq hisobot yilining 1-dekabrigacha amalga oshirilishiga oid norma qayta ko'rib chiqildi va bu muddat 31-dekabrga qadar etib belgilandi.

Bu imtiyozlar “Soliq va byudjet siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi Qonunda o'z ifodasini topdi.

Ish stajiga ega bo'lmoqchi bo'lgan va o'zini o'zi band qilgan fuqarolar uchun ijtimoiy soliqni to'lash muddatining 31-dekabrga qadar uzaytirilishi bir qator qulayliklarni yaratadi. Jumladan, ushbu tartib asosida mehnat bilan band shaxslar bazaviy hisoblash miqdorida 1 yilda 1 marotaba ijtimoiy soliqni to'lasa, 1 yillik ish stajiga ega bo'lishi mumkin.

Tanqidiy-tahliliy o'tgan muhokamalar davomida senatorlar tomonidan parlament so'rovida ko'tarilgan ayrim masalalar hanuzgacha o'z yechimini topmagani qayd etildi. Xususan, o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ijtimoiy soliq summasi belgilangan miqdordan kam to'langanda mehnat stajini to'langan soliq miqdoriga mutanosib ravishda inobatga olish yoki to'langan summani soliq to'lovchiga qaytarishning huquqiy mexanizmlarini joriy etish ishlari yakuniga yetkazilmagan.

Yoshga doir pensiya tayinlash uchun yetarli mehnat stajiga ega bo'lmagan fuqarolarga (oz muddat yetmaganda, 6 oydan 1 yilgacha) o'zini o'zi band qilish orqali zarur mehnat stajini inobatga olish imkoniyatini yaratish masalasi o'z yechimini topmagan. Demak, bu kabi muammolarni hal etish dolzarbligicha qolmoqda. Senatorlar ularni bartaraf etish bo'yicha o'z takliflarini berdilar.

2025-yil 1-maydan YaTT yoki yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tganda o'zini o'zi band qilgan shaxslar davlat bojidan ozod qilinadi.

2025-yil 1-maydan boshlab «o'zini o'zi band qilgan shaxs - yakka tartibdagi tadbirkor - kichik biznes - o'rta biznes - yirik korxona» zanjiri asosida tadbirkorlarning yiriklashuvini rag'batlantirish bo'yicha mexanizmlar joriy qilinadi. O'zini o'zi band qilgan shaxslar yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilganda, davlat boji undirilmaydi⁴.

Bu tadbirkorlarning yiriklashuvini rag'batlantirish dasturining bir qismidir. Biznesini kengaytirganlar garovsiz kreditlar yoki QQSn tezlashtirilgan tarzda olishlari mumkin bo'ladi.

Shu bilan birga banklar tomonidan o'tgan davr mobaynida o'zini o'zi band qilgan aholi uchun bir qancha yangi bank xizmat turlari joriy etildi:

Birinchidan, o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun “Biznesga birinchi qadam” mikroqarz joriy etildi⁵. Muddati 12-36 oygacha; yillik foizi 26-28% gacha; birinchi bosqichda 6.8 mln. so'mgacha; ikkinchi bosqichda 11.9 mln. so'mgacha summada plastik karta orqali naqd pulda ajratiladi.

Ikkinchidan, bu bankka biriktirilgan mahallardagi fuqarolar uchun o'z tomorqangizda yoki xonadonida tadbirkorlik faoliyatini boshlash va provardida qo'shimcha daromad olishiga imkoniyat yaratish maqsadida “Mahalla-biznes” mikroqarz mahsuloti joriy etildi.

Kredit shartlari: miqdori - 15 mln. So'mgacha; muddati - 48 oygacha foizi - 22-24%.

"Mikrokreditbank" ATB tomonidan kredit biriktirilgan mahallalarda o'z-o'zini band qilgan jismoniy shaxslarga va "Mikrokreditbank" ATBga biriktirilgan mahallalarda istiqomat qiluvchi 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan shaxslarga beriladi.

O'zini o'zi band qilgan yoshlarga onlayn shaklda imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga 100 mln so'mgacha imtiyozli kreditlar beriladi. Bu bo'yicha “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident qarori (PQ-62-son, 14.02.2025 y.) qabul qilindi.

Qarorga ko'ra, zamonaviy tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish uchun yoshlarning startup va investisiya loyihalariga imtiyozli moliyaviy mablag'lar ajratiladi.

“Biznesga birinchi qadam” loyihasiga muvofiq 18 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan ijtimoiy soliq to'lagan o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarga onlayn shaklda imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga 100 mln so'mgacha imtiyozli mikroqarz sifatida ajratildi.

⁴ “Кичик ва ўрта бизнеснинг иқтисодиётдаги ўрнини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 19 мартдаги даги ПФ-50-сонли Фармони

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 9 январдаги “2024 йилда янги иш ўринларини ташкил этиш ва аҳоли бандлигига қўмаклашиш дастури тўғрисида” ги ПК-7-сон Қарори

2025–2027-yillarda yosh tadbirkorlarga kompleks xizmatlar ko’rsatiladi, ularning faoliyatini moliyaviy qo’llab-quvvatlash borasida AT “Aloqabank” tayanch “yoshlar banki” etib belgilandi.

Xulosa

2026-yil 1-yanvardan boshlab o’zini o’zi band qilgan shaxslar shug’ullanishi mumkin bo’lgan faoliyat turlari 104 tadan 72 taga qisqaradi. Sartaroshlik, repetitorlik, foto-videochilik, kopirayterlik va boshqalar ro’yxatdan chiqarib tashlanadi. Ammo uchta yangi ish, jumladan, marketpleyslarda savdo qilish kiritiladi.

O’zini-o’zi ish bilan band qilish faolitini tashkil qilinishi bilan bog’liq jarayonlar huquqiy-me’yoriy asoslari, aholining mazkur yo’nalishdagi faoliyatda o’z o’rnini topish hamda daromad olish imkoniyatini shakllanganligi, mazkur yo’nalishda faoliyat olib borayotgan aholi qatlamida o’zini-o’zi band qilgan tadbirkor maqomini hamda ularning to’la ma’noda ijtimoiy kafolatlardan foydalanayotganligi va eng asosiysi keyingi besh yil davomida ular orasida mavqi va moliviy imkoniyatlaridagi o’sish ko’rsatkichlari, qolaversa ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi oshishi o’z navbatida mazkur sohada ham tarkibiy o’zgarishlar qilishni taqoza etdi.

O’zini-o’zi ish bilan band etish faoliyati jamiyatda o’z o’rni va ahamiyatiga ko’ra ijtimoiy muaamolar qatoriga kiradi. Shunday ekan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarda aholini ish bilan bandligiga samarali ta’minlashda o’zini-o’zi ish bilan band etishning o’rni biqiyosdir. Aynan mazkur faoliyat turiga davlat tomonidan uzliksiz va doimiy ravishda imkoniyatlar yaratilsa, o’z navbatida aholi tarkibida kambag’allikni qisqarish, aholi daromadlari va turmush darajasini barqarorlashuviga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Экономика труда: учебник / А.И.Рофе.-2-е.-М.: КНОРУС, 2011.- с. 159
2. Экономика труда: учебник /И.М.Алиев,Н.А.Горелов, Л.О.Ильина-М.:Издательство Юрайт, 2012 – с. 123
3. Q.Abdurahmonov. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Qayta ishlangan va to’ldirilgan 3-nashri. T.: O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «FAN» nashriyot davlat korxonasi, T.: 2019. – 257b
- 4.“Kichik va o’rta biznesning iqtisodiyotdagi o’rnini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi dagi PF-50-sonli Farmoni/ lex.uz/.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda yangi ish o’rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko’maklashish dasturi to’g’risida” gi PQ-7-son Qarori/ lex.uz/.
6. Tadbirkorlik faoliyati va o’zini o’zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to’g’risida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyunda qabul qilingan PQ-4742-sonli qarori. / lex.uz/.



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



IQTISODIYOT TARMOQLARIDA BARQAROR ISH O'RINLARINI TASHKIL ETISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Saidov Nurali Raximovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mehnat iqtisodiyoti kafedrasi dotsent v.b.

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a171

Annotatsiya. Ushbu maqolada barqaror ish o'rinlarini tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlari tahlil qilinadi. Jahon Iqtisodiy Forumi va Xalqaro Mehnat Tashkiloti hisobotlariga asoslanib, 2030-yilgacha texnologik rivojlanish va yashil iqtisodiyot ta'sirida yangi kasblar paydo bo'lishi, ayrim an'anaviy kasblar esa yo'qolishi kutilayotgani asoslab beriladi.

Tayanch so'zlar: Barqaror ish o'rinlari, mehnat bozori, texnologik taraqqiyot, raqamli transformatsiya, kambag'allikni qisqartirish, sun'iy intellekt, global mehnat bozori.

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ УСТОЙЧИВЫХ РАБОЧИХ МЕСТ В ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ

Саидов Нурали Рахимович

Ташкентский государственный экономический университет

и.о. доцент кафедры Экономики труда

Аннотация. В данной статье анализируются перспективные направления создания стабильных рабочих мест. На основе отчетов Всемирного экономического форума и Международной организации труда обосновано, что к 2030 году под влиянием технологического прогресса и «зеленой» экономики появятся новые профессии, в то время как ряд традиционных профессий исчезнет.

Ключевые слова: Стабильные рабочие места, рынок труда, технологическое развитие, цифровая трансформация, сокращение бедности, искусственный интеллект, глобальный рынок труда.

PROMISING DIRECTIONS FOR ORGANIZING SUSTAINABLE JOBS IN ECONOMIC SECTORS

Saidov Nurali Rakhimovich

Tashkent State University of Economics

Acting Associate Professor, Department of Labor Economics

Abstract. This article analyzes the prospective directions for the creation of sustainable jobs. Based on the reports of the World Economic Forum and the International Labour Organization, it is substantiated that by 2030, under the influence of technological progress and the green economy, new professions will emerge, while a number of traditional occupations are expected to disappear.

Keywords: Sustainable jobs, labor market, technological development, digital transformation, poverty reduction, artificial intelligence, global labor market.

Kirish

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida barqaror ish o‘rinlarini yaratish har bir mamlakat uchun ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Mehnat bozori dinamikasining keskin o‘zgarib borayotgani, texnologik taraqqiyot, global iqlim muammolari hamda pandemiya kabi favqulodda holatlar ish o‘rinlarining barqarorligiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, iqtisodiyot tarmoqlarida aholi bandligini ta‘minlash, ayniqsa, barqaror va sifatli ish o‘rinlarini tashkil etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasida ham yangi ish o‘rinlarini yaratish, ularning barqarorligini ta‘minlash, munosib mehnat sharoitlarini barpo etish, sohaga jalb etilayotgan investisiyalardan samarali foydalanish va mehnat bozori raqobatbardoshligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Xususan, 2026-yil yakuniga qadar hududlarda kambag‘allik darajasini kamida ikki baravarga qisqartirish hamda aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan⁶.

Barqaror ish o‘rinlari nafaqat iqtisodiy o‘sishning muhim omili, balki ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, kambag‘allikni kamaytirish va aholi farovonligini oshirish vositasi sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Shu bois, O‘zbekistonda ish o‘rinlari yaratish va bandlikni ta‘minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘zda tutilmoqda hamda bu borada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida mehnat bozori tubdan o‘zgarib bormoqda. Innovatsion texnologiyalar, sun‘iy intellekt, yashil iqtisodiyot va pandemiya keyingi iqtisodiy tiklanish jarayonlari ish o‘rinlari tarkibiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, barqaror rivojlanish va iqlim o‘zgarishiga moslashish strategiyalari doirasida yangi, ekologik mas‘uliyatli ish o‘rinlariga ehtiyoj ortib bormoqda.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) va Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF) tomonidan e‘lon qilingan so‘nggi hisobotlarga ko‘ra, 2030-yilgacha global mehnat bozorida millionlab yangi ish o‘rinlari yaratiladi, shu bilan birga, ayrim an‘anaviy kasblar yo‘qolib borishi kutilmoqda. Ushbu jarayon barqaror ish o‘rinlarini tashkil etish, ularning tuzilmasini zamonaviy mehnat bozorining ehtiyojlariga moslashtirishni strategik zaruratga aylantiradi.

Mazkur maqolada iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror ish o‘rinlarini tashkil etish bo‘yicha mavjud muammolar, imkoniyatlar va istiqbolli yo‘nalish va kasblar tahlil qilinadi hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha tegishli tavsiyalar ilgari suriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Ish o‘rinlari bo‘yicha bir necha iqtisodchi olimlar o‘z fikr va mulohazalarini bildirishgan.

Iqtisodchi olim akademik Q. Abduraxmonovning tarifiga ko‘ra “ish o‘rni bu ishlab chiqarish makonining bir qismi bo‘lib, unda barcha asosiy va

⁶ O‘zR Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

yordamchi texnologik uskunalar, moslamalar, asboblarni, ish mebellari, maxsus qurilmalar joylashgan bo'lib, ular muayyan turdagi ishlarni bajarish uchun mo'ljallangan [1]

Professor A.Sh. Nazarovning tarifi ko'ra ish o'rnini ishlab chiqarish hududining bitta ish bajaruvchiga yoki bir guruh ishchilarga ajratib berilgan hamda mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish uchun kerakli bo'lgan mehnat qurollari va mehnat predmetlari bilan yetarli ta'minlangan maydonga ataladi. [2]

Buyuk britaniyalik olim Mixail Pittning fikricha korxona va tashkilotlar o'z faoliyatida HR menejeri tizimini yaratish orqali xodimlarining barqaror ish bilan bandligini ta'minlashi mumkin. [3]

Bizning fikrimizcha ish o'rinlari asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, ya'ni qurilish ishlariga qilingan xarajatlarni, asbob-uskuna xarajatlari, transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish hamda boshqa xarajatlarni asosida yaratiladi.

Yaratilgan ish o'rnini – kiritilgan investitsiya, biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish mahsulidir.

Barqaror ish o'rnini bu - Ishga yollanuvchilarni uzoq muddatli ish va mehnat munosabatlari bilan ta'minlaydigan makon hisoblanadi. [4]

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada tahlil ikkilamchi ma'lumotlar asosida olib borildi. Jahon Iqtisodiy Forumi va Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan e'lon qilingan statistik hisobotlar asosida global mehnat bozoridagi o'zgarishlarni tahlil qilindi. Deskriptiv va analitik metodlar orqali yangi va yo'qolayotgan kasblar o'rtasida solishtirma tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, vizual tahlil usulidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Barqaror ish o'rinlarini yaratishning istiqboldagi yo'nalishi o'sish potensialiga ega asosiy iqtisodiy tarmoqlarni aniqlashdan boshlanadi. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) va boshqa mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, bularga qayta tiklanadigan energiya manbalari, axborot texnologiyalari, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligi kabi yo'nalishlar kiradi (1-rasm). Qaror qabul qiluvchilar ushbu yo'nalishlarga ustuvor ahamiyat berish orqali qisqa muddatda ish o'rinlarini yaratishi, balki ularni uzoq muddat saqlab qolish orqali barqarorligini saqlab qolishlari mumkin.

Ushbu istiqbolli yo'nalishlarning tarkibiy qismi quyidagilardan iborat:


1. Qayta tiklanadigan energiya manbalari

- Quyosh va shamol energiyasi loyihalari;
- Biogaz va biomassa manbalaridan foydalanish;
- Energiya samaradorligini oshirish va hududlarni energiya bilan ta'minlash;

2. Axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyot

- Axborot texnologiyalari parki (IT Park) va raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish;

- kiberxavfsizlik va dasturiy ta’minot ishlab chiqarish;
- Elektron hukumat va elektron tijoratni kengaytirish;



1-rasm. O‘zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror ish o‘rinlarini tashkil etishdagi istiqbolli yo‘nalishlar⁷

3. Sog‘liqni saqlash va farmasevtika sanoati

- Yangi shifoxonalar va klinikalar qurilishi;
- Tibbiyot turizmi rivojlanishi;
- Dori-darmon ishlab chiqarish va biotexnologiyalar;

4. Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati:

- Innovasion va intensiv fermerlik (tomchilatib sug‘orish, gidroponika).
- Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va qadoqlash;
- Eksportga yo‘naltirilgan organik mahsulotlar yetishtirish;

5. Ta’lim va kasbiy tayyorlash:

- Axborot texnologiyalari va texnik kasblarga yo‘naltirilgan o‘quv markazlari;

- Ishsizlarni kasbga qayta tayyorlash dasturlari;
- Ta’limning raqamli platformalari va masofaviy o‘quv kurslari

6. Servis va turizm

- Madaniy va tarixiy turizmni rivojlantirish;
- Ekoturizm va sanoat turizmi;
- Xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi ish o‘rinlarini yaratish (mehmonxona, restoran va turizm agentliklari)

7. Infratuzilma va qurilish:

⁷ Saidov N.R. Aholini barqaror ish o‘rinlari bilan ta’minlashni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent – 2024, URL:

<https://www.interaktiv.oak.uz/avtoreferat/3a014815f01.file>

- Yangi yo'llar, ko'priklar va transport tizimlarini qurish;
- Shaharlarni modernizatsiya qilish va yangi uy-joy qurilishi;
- Energiya samaradorligiga e'tibor qaratish va yashil qurilish loyihalari

8. Sanoat va ishlab chiqarish:

- Qurilish materiallari va texnikasini ishlab chiqarish;
- Mashinasozlik va avtomobilsozlik sanoati;
- To'qimachilik va yengil sanoatni rivojlantirish

Ushbu yo'nalishlarda yaratiladigan ish o'rinlari uzoqroq muddat saqlanib qoladi va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi. Shuningdek, aholining turmush darajasini oshirishga ham yordam beradi. Ular O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) tomonidan 2018-yilda e'lon qilingan "World Employment and Social Outlook 2018: Greening with Jobs" hisobotida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra agar to'g'ri siyosatlar amalga oshirilsa, 2030-yilgacha yashil iqtisodiyot sohasida global miqyosda 24 milliongacha yangi ish o'rinlari yaratilishi mumkin⁸.

Bu ish o'rinlari quyidagi sohalarda yaratilishi kutilmoqda:

- Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (masalan, quyosh va shamol energiyasi);

- Binolarni energiya tejamkor qilish;
- Elektr transport vositalarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish;
- Chiqindilarni qayta ishlash va ekologik transport tizimlari

Ushbu hisobotda, shuningdek, ekologik toza iqtisodiyotga o'tish natijasida an'anaviy sohalarda (masalan, ko'mir qazib olish va neft sanoati) 6 million ish o'rni yo'qolishi mumkinligi ta'kidlangan.

Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF)ning 2025-yilgi hisobotiga ko'ra, 2030-yilgacha 170 million yangi ish o'rni yaratilishi kutilmoqda. Bu hozirgi ish o'rinlarining 14% ini tashkil etadi⁹.

Shuningdek, Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF)ning 2025-yilgi hisobotiga ko'ra Eng tez o'sayotgan kasblar va eng tez yo'qolayotgan kasblar tahlili amalga oshirilgan (1-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin-ki, eng tez o'sayotgan kasblarning deyarli barchasi sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, ma'lumotlar tahlili va yashil iqtisodiyot bilan bog'liq. Bu shuni anglatadiki, mehnat bozorining kelajagi asosan SI (sun'iy intellekt), Big Data, Raqamlashtirish (digitalization), Barqaror rivojlanish atrofida shakllanadi.

⁸ Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) tomonidan 2018-yilda e'lon qilingan.

https://webapps.ilo.org/weso-greening/documents/WESO_Greening_EN_web2.pdf

⁹ Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF) https://www.weforum.org/publications/the-future-of-jobs-report-2025/in-full/2-jobs-outlook/?utm_source=chatgpt.com

Eng tez o'sayotgan kasblar va yo'qolayotgan kasblar¹⁰

No	Eng tez o'sayotgan kasblar	Eng tez yo'qolayotgan kasblar
1	Sun'iy intellekt va mashinaviy o'qitish mutaxassislari	Kassirlar va chipta sotuvchilari
2	Katta ma'lumotlar (Big Data) mutaxassislari	Hisobchilar va buxgalterlar
3	FinTech muhandislari	Ma'muriy yordamchilar (Administrative secretaries)
4	Dasturiy ta'minot va ilovalar ishlab chiquvchilari	Ma'lumotlarni qo'lda kirituvchilar (Data entry clerks)
5	Raqamli transformatsiya mutaxassislari	Ma'lumotlarni qayta ishlovchilar (Data processing clerks)
6	Axborot xavfsizligi (Cybersecurity) bo'yicha mutaxassislari	Chop etish bo'yicha operatorlar
7	Yashil energiya va ekologik texnologiya muhandislari	Bank xodimlari (tellerlar)
8	Ma'lumotlar analitiklari va ilmiy tadqiqotchilar	Telefon operatorlari
9	Raqamli marketing va strategiya bo'yicha mutaxassislari	Sayohat agentlari
10	Robototexnika texniklari va muhandislari	Oddiy ishlab chiqarish liniyasi ishchilari
11	Blokcheyn mutaxassislari	Ko'paytirish va nusxa olish bo'yicha xodimlar
12	Elektr transport vositalari texniklari	O'qituvchilarning yordamchilari (klassik formatdagi)
13	Elektron tijorat (E-commerce) bo'yicha menejerlar	Oddiy mijozlarga xizmat ko'rsatish operatorlari
14	Tarmoq va bulutli texnologiyalar (Cloud computing) mutaxassislari	Klassik texnik xizmat ko'rsatish xodimlari (avtomatik xizmatlar o'rniga)
15	Sun'iy intellekt asosida xulq-atvor tahlili mutaxassislari	Ma'muriy yozuvchilar va arxivchilar
16	Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha maslahatchilar	Oddiy kutubxonachilar (avtomatlashtirilgan tizimlar o'rniga)
17	Hamma uchun qulay dizayn mutaxassislari (universal design)	Pochtachilar va pochta ajratuvchilar
18	Foydalanuvchi interfeysi va UX dizaynerlar	Tayyor mahsulotlarni saralovchilar
19	Masofaviy ta'lim texnologiyalari mutaxassislari	Qog'oz hujjatlar bilan ishlovchilar
20	Energiya samaradorligini ta'minlovchi texnik mutaxassislari	To'lov terminali operatorlari

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytsak, iqtisodiyotning soha va tarmoqlarida barqaror bo'lgan ish o'rinlarini tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlari maqsadli yo'naltirilgan investitsiyalar, ta'lim va mutaxassislarni tayyorlash, innovatsiya,

¹⁰ Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF)ning 2025-yilgi hisoboti va muallif izlanishlari asosida shakllantirildi

hamkorlik va qo'llab-quvvatlovchi siyosatni o'z tarkibiga olgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. O'sish imkoniyatiga ega bo'lgan tarmoq va sohalalarga e'tibor qaratish, to'g'ri malakalar va infratuzilmalarga sarmoya kiritish va biznes o'sishi uchun qulay bo'lgan muhitlarni yaratish orqali iqtisodiyotda barqaror ish o'rinlarini yaratish va uzoq muddatli iqtisodiy farovonlikka yo'l ochishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- barcha tarmoqlar uchun biznes to'plamlarni chop etish. Avvalo dunyo mamlakatlarida samarali natija ko'rsatayotgan kelajak va yaqin kelajak ish o'rinlari, yuqori va barqaror daromad keltiruvchi bizneslar haqida ko'plab to'plamlar olimlar tomonidan tadbirkor va biznesmenlarga taqdim etib borilishi kerak;

Tadbirkorlik sirlari va bilimlariga ega insonlarning tavakkalchilikka qo'l urushi hamda o'zi uchun ish o'rni yaratishi va o'zini band qilishi ko'plab olimlar tomonidan isbotlangan

- Aholi tarkibida aksiyadorlar ulushini oshirish kerak;

Aksiyadorlar sonining oshishi kelajakda dunyo bozorlariga chiqa oladigan katta korporatsiyalar yaratilishiga va eksportning oshishiga xizmat qiladi.

- Chekka hududlarda agroholdinglar faoliyatini yo'lga qo'yish kerak;

Tumanlarda birgina agroholding korxonasining ish yuritishi qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotganlar uchun motivatsiya hisoblanadi. Agroholding kompaniyalari qishloq xo'jaligining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: Дарслик – Т.: IQTISODIYOT, 2019. – 282 б.

2. И.Бакиева. Меҳнатни ташкил этиш ва бошқариш. Ўқув кўлланма. -Т.: Иқтисодиёт. 2019. - 220 б

3. <https://www.researchgate.net/publication/243460259>

4. Saidov N.R. Aholini barqaror ish o'rinlari bilan ta'minlashni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, URL: <https://www.interaktiv.oak.uz/avtoreferat/3a014815f01.file> Toshkent – 2024

5. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) tomonidan 2018-yilda e'lon qilingan. https://webapps.ilo.org/weso-greening/documents/WESO_Greening_EN_web2.pdf

6. Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF) https://www.weforum.org/publications/the-future-of-jobs-report-2025/in-full/2-jobs-outlook/?utm_source=chatgpt.com



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



ВЛИЯНИЕ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА НА ЗАНЯТОСТЬ: ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Файзиева Шахноза Рустамовна

доцент кафедры «Государственные и корпоративные стратегии»

Национального университета Узбекистана, к.э.н.

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a172

Аннотация. В статье рассматривается, как механизмы государственно-частного партнерства (ГЧП) влияют на создание рабочих мест, изменение структуры занятости и качество рабочей силы. Также анализируется влияние ГЧП на занятость в развитых странах на примере США, стран-членов Европейского союза, Японии и Канады.

Ключевые слова: государственно-частное партнёрство, занятость, рынок труда, инфраструктурные проекты, государственная политика, социально-экономическое развитие.

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIGI ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI: IQTISODIY TAHLIL

Fayziyeva Shaxnoza Rustamovna

O'zbekiston Milliy universiteti

“Davlat va korporativ strategiyalar” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat-xususiy sherikchilik (DXSh) mexanizmlarining ish o'rirlari yaratishga, bandlik tuzilmasining o'zgarishiga va mehnat resurslari sifatiga ko'rsatadigan ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Yaponiya va Kanada misolida rivojlangan davlatlarda DXShning bandlikka ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sherikchilik, bandlik, mehnat bozori, infratuzilma loyihalari, davlat siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.

THE IMPACT OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP ON EMPLOYMENT: AN ECONOMIC ANALYSIS

Fayzieva Shakhnoza Rustamovna

Associate Professor of the Department
of "Public and Corporate Strategies"

at the National University of Uzbekistan

Abstract. This article examines how public-private partnership (PPP) mechanisms influence job creation, changes in the structure of employment, and the quality of labor. It also analyzes the impact of PPPs on employment in developed countries, using the examples of the United States, European Union member states, Japan, and Canada.

Keywords: public-private partnership, employment, labor market, infrastructure projects, government policy, socio-economic development.

Введение

Государственно-частное партнёрство (ГЧП) представляет собой форму сотрудничества между государственными органами и частным бизнесом, направленную на реализацию социально значимых проектов. В последние годы интерес к ГЧП заметно возрос в связи с необходимостью модернизации инфраструктуры, цифровизации экономики и повышения эффективности государственных расходов. Одним из важнейших социально-экономических эффектов реализации проектов ГЧП является их влияние на рынок труда и уровень занятости.

Обзор литературы

В классической экономической теории занятость рассматривается как производная от совокупного спроса на продукцию и услуги. В рамках кейнсианского подхода инвестиции в инфраструктуру, включая проекты ГЧП, способствуют росту занятости за счёт мультипликативного эффекта. Неоклассические подходы подчёркивают важность гибкости рынка труда и эффективности распределения ресурсов. В условиях развитой рыночной экономики ГЧП используется как способ повышения эффективности госрасходов без увеличения долговой нагрузки, сохраняя при этом стимулирующее воздействие на экономику.

ГЧП выступает как механизм мобилизации частного капитала на реализацию проектов, которые в противном случае потребовали бы исключительно бюджетного финансирования. Это позволяет активизировать инвестиционную деятельность, создавая новые рабочие места как непосредственно в рамках проекта, так и косвенно - в смежных отраслях.

На этапе реализации проектов ГЧП (например, строительство автодорог, больниц, школ, цифровой инфраструктуры) создаются рабочие места в строительстве, логистике, инжиниринге и других отраслях.

Yevropa mamlakatlari ichida tadbirkorlik faoliyati uchun kasbiy tayyorlashda Germaniyadan tashqari boshqa bir qancha mamlakatlar tajribasini ham o'rganish ma'lum ma'noda maqsadga muvofiq bo'lib, ayniqsa Skandinaviya mamlakatlari tajribasi diqqatga sazovor.

Finlyandiya va Shvetsiyada maktab ta'limida kreativ fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va jamoaviy ishlash salohiyatiga e'tibor beriladi. Bu – tadbirkorlik qobiliyatini ilk bosqichda shakllantiradi. Ushbu mamlakatlardagi ta'lim tizimi ijtimoiy hamjihatlik, iqtisodiy raqobatdoshlik va ijtimoiy mobillikni ta'minlashga qaratilgan.

Shvetsiyada kasbiy ta'lim tizimi 1990-yillardagi islohotlar orqali shakllangan. 1991-yildagi islohotlar natijasida VET tizimi davlat tomonidan boshqariladigan maktabga asoslangan modelga aylandi. Bu islohotlar natijasida kasbiy ta'lim va ish joyi o'rtasidagi bog'lanish zaiflashdi, bu esa ishsizlik va ijtimoiy oqsoqlikka olib keldi. Shvetsiyadagi ta'lim tizimida tadbirkorlikka oid fanlar maktab dasturlariga integratsiya qilingan, bu esa talabalarda tadbirkorlik ruhini shakllantirishga yordam beradi.

Norvegiyada kasbiy ta'lim tizimi 1994-yildagi islohotlar orqali shakllangan. Bu islohotlar natijasida 2+2 modeli joriy etildi: birinchi ikki yil

maktabda o'qish, keyingi ikki yil ish joyida stajirovka. Norvegiyadagi VET tizimi davlat tomonidan boshqariladigan maktabga asoslangan model va korporatsizmga asoslangan modelning aralashmasi sifatida tavsiflanadi. Bu tizim ish joyi bilan yaqin bog'lanishni ta'minlaydi va yoshlarning ishga joylashishini osonlashtiradi[17].

Daniyada esa kasbiy ta'lim tizimi Germaniyaniki kabi dual tizimga asoslangan bo'lib, ish joyi va maktab o'rtasidagi bog'lanish mustahkam. Daniyadagi tadbirkorlikka kasbiy tayyorlash tizimida ijtimoiy sheriklar — kasaba uyushmalari va ish beruvchilar — muhim rol o'ynaydilar. Bu tizim yoshlarning ish joyiga tez joylashishini va ishsizlik darajasini pastligini ta'minlaydi[18].

Umuman olganda Skandinaviya mamlakatlarida tadbirkorlikka kasbiy tayyorlashda quyidagi umumiy yondashuvlar mavjud:

– **tadbirkorlik ta'limi:** tadbirkorlik maktab dasturlariga integratsiya qilingan bo'lib, talabalarda tadbirkorlik ruhini shakllantirishga qaratilgan[19].

– **ish joyi bilan bog'lanish:** kasbiy ta'lim tizimi ish joyi bilan yaqin bog'lanishni ta'minlaydi, bu esa yoshlarning ishga joylashishini osonlashtiradi.

– **ijtimoiy sheriklar bilan hamkorlik:** Kasaba uyushmalari va ish beruvchilar bilan hamkorlik kasbiy ta'lim tizimining samaradorligini oshiradi.

– **islohotlar va moslashuvchanlik:** Kasbiy ta'lim tizimi ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarga moslashuvchan bo'lib, doimiy ravishda islohotlar o'tkaziladi.

Buyuk Britaniya ham tadbirkorlikka kasbiy tayyorlash sohasida ilg'or va innovatsion yondashuvlarga ega bo'lib, yoshlarni ishbilarmonlik ko'nikmalariga o'rgatish va ularni iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishga tayyorlashda faol ishtirok etadi. Quyida Britaniyaning kasbiy ta'lim tizimidagi tadbirkorlikka yo'naltirilgan hamda kasbiy ta'limda tadbirkorlikni integratsiya qilish dasturlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Kasbiy ta'limda tadbirkorlikka yo'naltirilgan dasturlar:

1. Peter Jones Enterprise Academy 2008 yilda taniqli tadbirkor Peter Jones tomonidan tashkil etilgan bo'lib, o'quvchilarga tadbirkorlik ko'nikmalarini o'rgatish va ularni amaliy tajriba bilan ta'minlashga qaratilgan. Akademiya "Bringing the boardroom to the classroom" (Boshqaruv xonasini darsxonaga olib kelish) shiori bilan faoliyat yuritadi. Ushbu dastur orqali talabalar biznes reja tuzish, moliyaviy boshqaruv, marketing va boshqa tadbirkorlik sohalarida amaliy ko'nikmalarni egallaydilar. Akademiya 2021–2022 o'quv yilida 28 ta kollej bilan hamkorlik qilgan[20].

2. Young Enterprise tashkiloti 1962 yilda tashkil etilgan bo'lib, yoshlarni tadbirkorlik va moliyaviy savodxonlikka o'rgatish bo'yicha keng qamrovli dasturlarni taklif etadi. Tashkilotning "Company Programme" dasturi orqali talabalar o'z bizneslarini yaratish, boshqarish va rivojlantirish bo'yicha amaliy tajriba orttiradilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu dasturda qatnashgan talabalar 30 yoshga kelib o'rtacha £40,000–£45,000 daromad

olishadi, bu esa ularning tengdoshlari bilan solishtirganda ancha yuqori ko'rsatkichdir[21].

3. SETsquared Partnership — bu Janubiy Angliyadagi beshta universitet tomonidan tashkil etilgan biznes inkubatsiya tarmog'idir. 2002 yilda tashkil etilgan ushbu tarmoq tadbirkorlikni rivojlantirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash va universitetlar bilan sanoat o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan. 2015 yilda SETsquared dunyodagi eng yaxshi universitet asosidagi biznes inkubatori deb topilgan[22].

Kasbiy ta'limda tadbirkorlikni integratsiya qilish dasturlari:

1. T-Level (Technical Level) dasturlari Buyuk Britaniyada kasbiy ta'limni rivojlantirishga qaratilgan yangi avlod malaka tizimidir. Ushbu dasturlar o'quvchilarga sanoatga yo'naltirilgan chuqur bilim va ko'nikmalarni taqdim etadi. 2024 yil dekabrda hukumat T-Level dasturlarida sanoat joylashuvi komponentini 20% gacha masofaviy o'qishga ruxsat berish orqali islohotlar e'lon qildi. Bu o'zgarishlar, ayniqsa raqamli texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega [23].

2. King's Trust 1983 yildan buyon 18–30 yoshdagi yoshlarni tadbirkorlikka o'rgatish va ularni o'z bizneslarini boshlashga rag'batlantirish bilan shug'ullanadi. Ushbu dastur orqali yoshlar 2 yil davomida mentorlik, amaliy maslahatlar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash olishadi. King's Trust hozirga qadar 86,845 yoshga o'z bizneslarini boshlashda yordam bergan [24].

Buyuk Britaniyada sanoat va ta'lim o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali kasbiy ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bir qator tashabbuslar ham mavjud. Masalan, Brmingemning Zargarlik Kvartalida joylashgan kompaniyalar yoshlarni ishga olish va mahalliy maktablar bilan hamkorlik qilish orqali kasbga yo'naltirishni amalga oshirmoqda. Goldsmiths' Company Charity tomonidan £10 million miqdorida grant ajratilib, Aston University Engineering Academyda Goldsmiths Institute tashkil etildi. Ushbu institut zargarlik sanoati uchun malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan[25].

Buyuk Britaniya xalqaro miqyosda ham tadbirkorlikka kasbiy tayyorlash sohasida faoliyat yuritadi. Masalan, Britaniya Kengashi va Tailand o'rtasidagi hamkorlik doirasida Tailandning kasbiy ta'lim dasturlariga tadbirkorlikni integratsiya qilish bo'yicha yangi yondashuvlar ishlab chiqildi. Grŵp Llandrillo Menai (GLLM) va boshqa britaniyalik ta'lim muassasalari Tailanddagi kollejlarga mentorlik qilib, yangi dasturlarni joriy etishda yordam bermoqda.

AQSH va Yevropa mamlakatlarida tadbirkorlik faoliyati uchun kadrlar tayyorlash tajribalarini o'rganish natijasida kadrlar tayyorlash mexanizmi bir nechta asosiy elementlardan iborat ekanligini ko'rish mumkin, ya'ni bular:

– ta'lim dasturlarining innovatsion mazmuni. Tadbirkorlik ta'limida nazariy bilimlardan tashqari, biznes reja tuzish, moliyaviy savodxonlik, marketing va raqamli texnologiyalar kabi fanlar o'qitiladi;

– inkubator va akselerator markazlari. Rivojlangan mamlakatlarda universitetlar huzurida tadbirkorlik markazlari tashkil etilgan bo‘lib, ular yoshlarga o‘z g‘oyalarini biznesga aylantirish imkonini beradi;

– xalqaro hamkorlik. Oliy ta‘lim muassasalaridagi startap dasturlari aksariyat hollarda xorijiy tashkilotlar va venchur kapital kompaniyalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Tadbirkorlikka kasbiy tayyorlash ta‘limidan ko‘riladigan foydaning murakkab va ko‘p jihatli xususiyati shundan iboratki, undan ushbu foydani umuman jamiyat va firmalar ham, o‘zining o‘qishi natijasida insonlarning o‘zlari ham olishadi. Mazkur foyda bevosita, ya‘ni pul shaklida, mehnat daromadi ko‘rinishida ifodalangan bo‘lishi ham, bilvosita, ish haqiga nisbatan tashqi bo‘lishi ham mumkin. Tadbirkorlik ta‘limi xodimlar mehnati unumdorligining oshishiga, ularning milliy daromadga qo‘shadigan ulushlarining ortishiga olib keladi, bu mehnat daromadining oshishida o‘z aksini topadi – ta‘limdan ko‘riladigan bevosita foyda ana shu bilan bog‘liq. Talimdan ko‘riladigan bilvosita, tashqi foyda – bu insonlar umumiy madaniyatining oshishi, ishsizlikning kamayishi, aholi turmush darajasining yaxshilanishi, jinoyatchilikning kamayishi, ijtimoiy totuvlikka erishish, texnologik innovatsiyalarning tarqalishi va h.k.

Keltirilgan dalillarning asosligini tan olgan xolda rivojlangan mamlakatlar kasbiy tayyorlashni zamonaviy ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshirishni yo‘lga qo‘ymoqda (1-jadval).

1-jadval

Turli mamlakatlarda tadbirkorlik ta‘limi komponentlari

Mamlakat	Maktab ta‘limida	OTMda fanlar	Inkubatorlar	Hamkorlik (xalqaro)
AQSH	+	+	+	+
Germaniya	⚠ (kam)	+	+	+
Skandinaviya	+	+	⚠	⚠
Buyuk Britaniya	+	+	+	+
O‘zbekiston	⚠	⚠	⚠	⚠

(+ – mavjud, ⚠ – qisman, x– yo‘q)

Manba: Qiyosiy tahlillar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadvaldan ko‘rib turganimizdek, AQSH va Yevropa mamlakatlaridagi tadbirkorlik ta‘limi komponentlari O‘zbekiston ta‘lim tizimiga ham joriy etilgan, biroq, bu komponentlar AQSH ta‘lim tizimida to‘liq qo‘llanilsa, Germaniya ta‘lim tizimida ko‘proq maktabdan keyingi ta‘limda to‘liq joriy qilingan. Aksincha Skandinaviya mamlakatlarida tadbirkorlik ta‘limiga maktab va Oliy ta‘lim bosqichida ko‘proq urg‘u beriladi. O‘zbekiston kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab quvvatlash borasida ko‘plab say-harakatlarni amalga oshirmoqda, ular qatorida tadbirkorlik ta‘limiga ham

alohida e’tibor qaratilmoqda, biroq jadvaldan ko’rib turganimizdek bu choralar yetarlicha emas.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, rivojlangan mamlakatlarning tadbirkorlik faoliyati uchun kasbiy ta’lim tizimi O’zbekiston uchun namuna bo’lib, uning elementlarini mahalliy sharoitga moslashtirib joriy etish yoshlarning ishga joylashishini va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi hamda mazkur tajribalarni amaliyotga joriy etish orqali respublikada barqaror va innovatsion rivojlanishga erishish mumkin bo’ladi. Buning uchun O’zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo’lida ta’lim tizimini xorijiy tajribalar asosida isloh qilish bo’yicha quyidagi choralar taklif etiladi:

- tadbirkorlik ta’limini kuchaytirish, buning uchun tadbirkorlikni maktab dasturlariga integratsiya qilinishi orqali o’quvchilarda tadbirkorlik ruhini shakllantirish;
- O’zbekistonda dual ta’lim tizimini keng joriy etish orqali yoshlarning ish bilan ta’minlanishini oshirish;
- oliy ta’lim muassasalari va sanoat o’rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali innovatsion loyihalarni amalga oshirish;
- har bir universitetda startup inkubatorlar tashkil qilish;
- “Vet 4.0” kabi raqamlashtirishga yo’naltirilgan ta’lim dasturlarini joriy etish orqali kasbiy ta’lim sifatini oshirish;
- Germaniyadagi “learning factory” modellarini O’zbekistondagi oliy ta’lim muassasalarida joriy etish orqali talabalarning amaliy ko’nikmalarini oshirish;
- xorijiy universitetlar bilan qo’shma tadbirkorlik ta’lim dasturlarini yo’lga qo’yish;
- kasbiy ta’lim jarayonida case-study, project-based learning, simulations kabi innovatsion metodlardan foydalanish;
- ijtimoiy sheriklar bilan hamkorlikni kuchaytirish, ya’ni kasaba uyushmalari va ish beruvchilar bilan hamkorlik orqali tadbirkorlik faoliyatiga kasbiy ta’lim tizimining samaradorligini oshirish;
- tadbirkorlik faoliyatiga kadrlarni kasbiy tayyorlashda ta’lim tizimini ijtimoiy va iqtisodiy o’zgarishlarga moslashuvchan qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. www.stat.uz – O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari
2. www.mehnat.uz – O’zbekiston Respublikasi Kambag’allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma’lumotlari
3. Norasmiy-sektorda-band-bolgan-aholi-hisobiga-2022-yilda-byudjetga-deyarli-33-trln-som-mablag-tushmagan.
<https://bugun.uz/2023/04/08>
4. Дракер П. Рынок: Как выйти в лидеры. Практика и принципы. - М., 1992. – 191-б.

5. Борисенко Е.Н. Социальная ответственность малого предпринимательства. – М.: КЛИСТАР. – 2002. – 10-б.
6. Санто Б. Философия предпринимательства. //Проблемы теории и практики управления. – М. – 1999. - №3. - 101-б.
7. Bell D. The social Framework of Industrial Society // The computer Age: F twenty years view. London. - 1981.- 168-б.
8. Муе., Х (2024). Инновационные педагогические подходы в образовании в области предпринимательства: практические примеры и передовой опыт. *Журнал образования в области предпринимательства*, 27 (5), 1-3. <https://www.abacademies.org/articles/innovative-pedagogical-approaches-in-entrepreneurship-education-case-studies-and-best-practices-17110>
9. Ryan, Ryan. "Feds Giving Engineers and Scientists \$50K to Learn to Start Companies." *Wired*, 28 July 2011, <https://www.wired.com/2011/07/nsf-i-corps>
10. Wikipedia contributors. (2025, May 10). *The Founder Institute*. Wikipedia. https://en.wikipedia.org/wiki/The_Founder_Institute
11. Al Karim, R., Rabiul, M. K., & Kawser, S. (2023). Connecting e-customer relationship management and e-loyalty to willingness to recommend a bank service: The sequential mediating roles of e-satisfaction and e-service quality. *Advances in the Study of Entrepreneurship, Innovation and Economic Growth*, 23, 123–145. <https://doi.org/10.1108/S1074-754020230000023007>
12. Germany Trade & Invest. (n.d.). *Dual Education System*. <https://www.gtai.de/en/invest/business-location-germany/business-climate1/dual-education-system-65348>
13. Financial Times. (2024, January 15). *UnternehmerTUM tops ranking of Europe's leading start-up hubs*. <https://www.ft.com/content/224b4972-a321-4742-a2da-39ffcfabbd92>
14. Yang, C., Kaiser, F., Tang, H., Chen, P., & Diao, J. (2023). Sustaining the Quality Development of German Vocational Education and Training in the Age of Digitalization: Challenges and Strategies. *Sustainability*, 15(4), 3845. <https://doi.org/10.3390/su15043845>
15. Wikipedia contributors. (2025, May 29). *Learning Factory*. Wikipedia. https://en.wikipedia.org/wiki/Learning_Factory
16. Germany Trade & Invest. (n.d.). *Dual Education System*. <https://www.gtai.de/en/invest/business-location-germany/business-climate1/dual-education-system-65348>
17. Persson Thunqvist, D., Tønder, A. H., & Reegård, K. (2019). A tale of two reforms: Institutional change in vocational education and training in Norway and Sweden in the 1990s. *European Educational Research Journal*, 18(3), 298–313. <https://doi.org/10.1177/1474904118823104>
18. Jørgensen, C. H., Järvinen, T., & Lundahl, L. (2019). A Nordic transition regime? Policies for school-to-work transitions in Sweden, Denmark and

Finland. *European Educational Research Journal*, 18(3), 278–297.
<https://doi.org/10.1177/1474904119830037>

19. AEC Music. (n.d.). *Scandinavian model*. <https://aec-music.eu/services/musical-entrepreneurship/european-overview/scandinavian-model>

20. Wikipedia contributors. (n.d.). *Peter Jones Enterprise Academy*. Wikipedia.
https://en.wikipedia.org/wiki/Peter_Jones_Enterprise_Academy?utm_source

21. Wikipedia contributors. (n.d.). *Young Enterprise*. Wikipedia.
https://en.wikipedia.org/wiki/Young_Enterprise?utm_source

22. Wikipedia contributors. (n.d.). *SETsquared*. Wikipedia.
https://en.wikipedia.org/wiki/SETsquared?utm_source

23. Walker, P. (2024, December 2). Reforms announced to vocational T levels in England after slow uptake. *The Guardian*.
https://www.theguardian.com/education/2024/dec/02/reforms-announced-to-vocational-t-levels-in-england-after-slow-uptake?utm_source

24. Wikipedia contributors. (n.d.). *King's Trust*. Wikipedia.
https://en.wikipedia.org/wiki/King%27s_Trust?utm_source

25. Financial Times. (2024). *[Title unavailable]*.
<https://www.ft.com/content/ef62cc99-f935-4e54-b911-deb8c1445936>



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATNI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI

Abdukadirova Kamola Azimovna

TDIU, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası assistenti,
tayanch doktorant

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a177

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim xizmatlari bozorida raqobat muhitining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari ilmiy asosda tahlil etiladi. Oliy ta'lim tizimida davlat va nodavlat sektorlarining o'zaro aloqasi, ta'lim xizmatlarini ko'rsatishdagi sifat omillari, narx shakllanishi, marketing strategiyalari hamda innovatsion yondashuvlar raqobatni belgilovchi asosiy omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi ichki va tashqi raqobatning zamonaviy shakllari, raqobatbardoshlikni ta'minlash yo'llari, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari va ularning bozor muvozanatiga ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tajriba asosida O'zbekiston oliy ta'lim xizmatlari bozorining hozirgi holati va istiqbollari baholanadi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ta'lim xizmatlari bozori, raqobat, raqobatbardoshlik, xususiy oliy ta'lim muassasalari

FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF COMPETITION IN THE MARKET OF HIGHER EDUCATION SERVICES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abdukadirova Kamola Azimovna

TSUE, Assistant teacher, Department of Economic Theory,
PhD Student

Abstract. This article provides a scientific analysis of the development and characteristics of competition in the higher education services market of the Republic of Uzbekistan. It examines the interaction between public and private sectors in higher education, the role of quality indicators, pricing mechanisms, marketing strategies, and the implementation of innovative approaches as key factors influencing competitive dynamics. The article also explores internal and external forms of competition among higher education institutions, mechanisms to enhance competitiveness, and the regulatory influence of the state on market equilibrium. Based on statistical data, legal frameworks, and international experience, the current state and future prospects of Uzbekistan's higher education services market are evaluated.

Keywords: higher education, education services market, competition, competitiveness, private universities

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНЦИИ НА РЫНКЕ УСЛУГ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Абдукадилова Камола Азимовна

ТГЭУ, ассистент кафедры экономической теории,
Докторант (PhD)

Аннотация. В данной статье представлен научный анализ формирования и развития конкурентной среды на рынке услуг высшего образования в Республике Узбекистан.

Рассматриваются взаимодействие государственного и негосударственного секторов в системе высшего образования, роль показателей качества, механизмы ценообразования, маркетинговые стратегии, а также внедрение инновационных подходов как ключевые факторы, определяющие уровень конкуренции. Особое внимание уделено внутренним и внешним формам конкуренции между высшими учебными заведениями, механизмам повышения конкурентоспособности, а также влиянию государственного регулирования на рыночное равновесие. На основе статистических данных, нормативно-правовой базы и международного опыта оценивается текущее состояние и перспективы развития рынка образовательных услуг в Узбекистане.

Ключевые слова: высшее образование, рынок образовательных услуг, конкуренция, конкурентоспособность, частные вузы

Kirish

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bo'yicha izchil islohotlar olib borilmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim tizimining ochiqligi, bozor iqtisodiyoti talablariga moslashuvi hamda xizmat ko'rsatish sifatining doimiy takomillashuvi raqobatning mavjudligi va samarali ishlashi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, O'zbekistonda oliy ta'lim xizmatlari bozorida raqobat muhitining shakllanishi nafaqat ta'lim tizimi rivoji, balki umuman mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun ham muhim omillardan biri hisoblanadi.

So'nggi besh yillikda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi: yangi nodavlat va xususiy oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi, xorijiy universitetlarning filiallari ochildi, davlat OTMlarida o'quv rejalarini yangilash va xalqaro akkreditatsiya talablariga moslashtirish ishlari boshlangan. Biroq, raqobat muhitining rivojlanishi bilan birga, muayyan muammolar ham yuzaga chiqmoqda: ayrim ta'lim muassasalarida sifatdan ko'ra son orttirishga urg'u berilishi, marketing va boshqaruv madaniyatining yetarlicha rivojlanmaganligi, davlat tomonidan tartibga solishning ayrim hollarda samarasizligi va bozorning to'liq shakllanmaganligi shular jumlasidandir.

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim xizmatlari bozorida raqobatni shakllantiruvchi asosiy omillar, mavjud muammolar, tartibga solish mexanizmlari hamda raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan strategik yondashuvlar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Bundan tashqari, xalqaro tajriba asosida milliy oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va ta'lim xizmatlarini eksport qilish salohiyatini kuchaytirish yo'llari ham ko'rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Oliy ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishi va raqobat muhitining rivojlanishi masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganib kelinmoqda. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar, asosan, ta'lim xizmatlarini bozor toifasidagi mahsulot sifatida baholash, ularning iqtisodiy va institutsional xususiyatlarini aniqlash,

raqobatbardoshlik indikatorlarini ishlab chiqish va davlat siyosatining ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan.

Xorijiy adabiyotlarda, xususan, Ph. Kotler (2006) va D. Marginson (2011) kabi mualliflar ta'lim xizmatlarini klassik xizmat bozori modeliga moslashtirish orqali universitetlar o'rtasida raqobatni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Ular raqobatni faqat narx va sifat ko'rsatkichlari bilan emas, balki innovatsion dasturlar, xalqaro akkreditatsiya, bitiruvchilarning mehnat bozoridagi muvaffaqiyati orqali ham baholash lozimligini asoslaydi. T. Mazzarol va G. Soutar (2002) esa ta'lim xizmatlarining eksport salohiyatini o'rganib, raqobatni milliy chegaradan tashqariga olib chiqish tamoyillarini ishlab chiqqan.

O'zbekistonda bu boradagi ilmiy izlanishlar so'nggi yillarda faollashgan bo'lsa-da, hali ham konseptual va metodologik jihatdan chuqur tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud. Mahalliy olimlar Sh. Tursunov, R. Qurbonov, M. Ruzmetov va boshqalar tomonidan oliy ta'lim tizimining moliyalashtirish mexanizmlari, boshqaruv islohotlari va xususiy sektorning o'rni yuzasidan qimmatli ilmiy ishlar yaratilgan. Shuningdek, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan tayyorlangan so'nggi tahliliy hisobotlarda ta'lim bozorining holati, uning tarkibiy o'zgarishlari va davlat siyosati doirasidagi yo'nalishlar batafsil ko'rib chiqilgan.

BMT Taraqqiyot Dasturi, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan tayyorlangan xalqaro sharhlarda O'zbekistonda ta'lim tizimining ochiqligi, tengligi va sifat masalalariga doir statistik hamda normativ tahlillar keltiriladi. Bu manbalar oliy ta'lim xizmatlari bozorini raqobat kontekstida baholashda muhim empirik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'pchilik adabiyotlarda raqobatga oid yondashuvlar iqtisodiy mezonlarga tayansa-da, ta'lim sohasining o'ziga xos ijtimoiy ahamiyati, inson kapitalini shakllantirishdagi roli, teng imkoniyatlarga erishish masalalari ko'p hollarda etarlicha yoritilmaydi. Shu sababli, ushbu maqolada mavjud adabiyotlardagi empirik va nazariy bo'shliqlar aniqlanib, ular asosida O'zbekiston sharoitiga moslashgan integratsiyalashgan tahliliy yondashuv taklif etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim xizmatlari bozorida raqobat muhitining shakllanishi va rivojlanishiga oid jarayonlarni kompleks tahlil qilish maqsad qilingan. Shu bois, tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, komparativ (taqqoslov) tahlil, statistik tahlil va ekspert baholash uslublaridan foydalanildi.

Birinchidan, **tizimli yondashuv** asosida oliy ta'lim xizmatlari bozori ijtimoiy-iqtisodiy tizimning bir elementi sifatida qaralib, u bilan bog'liq barcha tarkibiy qismlar – ta'lim muassasalari, talabalar (iste'molchilar), davlat tartibga soluvchi organlar va investorlar – o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi.

Ikkinchidan, **komparativ tahlil** usuli yordamida O'zbekistondagi oliy ta'lim xizmatlari bozori holati va raqobat mexanizmlari bir qator rivojlangan

mamlakatlar (masalan, Janubiy Koreya, Turkiya, Polsha) tajribasi bilan taqqoslab o'rganildi. Bu yondashuv O'zbekiston sharoitiga mos bo'lgan samarali amaliyotlarni aniqlashga xizmat qildi.

Uchinchidan, **statistik tahlil** orqali oliy ta'lim muassasalarining soni, ta'lim sifati indikatorlari, talab va taklif nisbatlari, xususiy sektor ulushi va boshqa tegishli ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Jahon banki, UNESCO va boshqa ochiq manbalardan olingan ma'lumotlar asosida tahlil qilindi.

Tadqiqotda raqobatni o'lchash uchun muqobil indikatorlar – ta'lim xizmatlarining diversifikatsiyasi, narx-sifat nisbati, marketing faoliyati darajasi, kadrlar salohiyati, xalqaro hamkorlik aloqalari – asosida integral yondashuv ishlab chiqildi. U orqali O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik darajasi tahlil qilindi.


Metodologiyaning asosiy ustuvor jihati ilmiy nazariyalar va amaliy ma'lumotlar sinteziga asoslangan holda oliy ta'lim xizmatlari bozoridagi raqobatning real holatini ochib berish va uni rivojlantirishga oid takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tahlil va natijalar

Oliy ta'lim xizmatlari bozori klassik tovar va xizmatlar bozoridan farqli ravishda o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tabiatga ega bo'lgan kompleks tizimdir. U erkin bozor tamoyillari bilan birga ijtimoiy tenglik, davlat siyosati, inson kapitali shakllanishi kabi omillar bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, oliy ta'lim xizmatlari bozoridagi raqobatni baholashda nafaqat empirik ko'rsatkichlar, balki iqtisodiy nazariyalar (xususan, neoklassik va institutsional yondashuvlar) asosida ham tahlil zarur hisoblanadi.

Neoklassik iqtisodiy nazariyada har qanday xizmatlar bozorida raqobat taklifchilar sonining ko'payishi, narxlar orqali moslashuvchanlik va erkin tanlov asosida rivojlanadi. O'zbekiston oliy ta'lim bozorida oxirgi yillarda davlat, xususiy va xorijiy OTMlar sonining oshishi — taklif hajmining ortishiga olib keldi. Bu esa neoklassik model bo'yicha bozorda tanlov imkoniyatlarini kengaytirib, narxlar xilma-xilligini yuzaga keltirmoqda. OTMlar sonining ortishi raqobat muhitining kengayishiga xizmat qilmoqda. Biroq, ta'lim sifatining bir tekisda o'smasligi, talab bilan taklif o'rtasida sifat jihatidan nomutanosiblikni yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida oliy ta'lim xizmatlari bozorining tarkibi va sifati tubdan o'zgarib bormoqda. Tadqiqot davomida ushbu bozor segmentida raqobat muhitining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari ko'p qirrali tahlil qilindi va quyidagi muhim natijalar aniqlandi.



1-rasm. Oliy ta'lim tashkilotlari soni viloyatlar kesimida¹⁷

Toshkent shahri barcha yillar davomida eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan yagona hudud bo'lib, 2023-yilda umumiy respublika ko'rsatkichining qariyb 43% ini tashkil qilgan. Bu esa iqtisodiy faoliyatning poytaxtda to'planganligini ko'rsatadi va regional tengsizlik muammolariga ishora qiladi.


Shuningdek, Samarqand, Farg'ona, Buxoro va Andijon viloyatlarining ham sezilarli darajada ijobiy o'zgarishga erishgani kuzatiladi. Bu viloyatlar qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmatlar va transport-logistika salohiyatiga tayanmoqda.

Toshkent shahri (95 birlik) va Sirdaryo viloyati (3 birlik) o'rtasida farq juda katta (32 baravar). Bu esa hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Ba'zi viloyatlarda (masalan, Xorazm, Surxondaryo) nisbatan o'sish bo'lsa-da, bu natijalar hududiy investitsion siyosatga alohida e'tibor qaratish kerakligini anglatadi.

2021-2023-yillar davomida O'zbekiston hududlarida iqtisodiy yoki ijtimoiy faoliyat ko'rsatkichlarida sezilarli o'sish kuzatildi. Bunda yetakchi o'rinlarni Toshkent shahri, Samarqand va Farg'ona viloyatlari egalladi. Shu bilan birga, qoloq hududlar – Sirdaryo, Navoiy, Jizzax viloyatlari – alohida rivojlanish strategiyalariga muhtojdir. Regional tenglikka erishish va investitsiyalarni balansli taqsimlash respublika darajasida barqaror va inklyuziv rivojlanishni ta'minlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston oliy ta'lim xizmatlari bozorida raqobatning miqdoriy jihatdan kengaygani sezilarli bo'lsa-da, uning sifat jihatdan chuqurlashuvi hali sust kechmoqda. Raqobatbardosh muhitni shakllantirish uchun oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv erkinligini oshirish, ta'lim xizmatlari sifatini nazorat qilish va mintaqaviy tenglikni ta'minlash dolzarb vazifalar sifatida ajralib turadi.

¹⁷ <https://stat.edu.uz>



2-rasm. OTMLar hududiy ulishining o'zgarishi.¹⁸

Ikkinchi grafikdan ko'rinadiki, 2016-yilda Toshkent shahri OTMLarining umumiy ta'lim bozoridagi ulushi 55 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib 46 foizga kamaygan. Shu bilan birga, viloyatlardagi OTMLar ulushi 45 foizdan 54 foizgacha oshgan. Bu holat markazlashuvning asta-sekin kamayib, viloyatlarda ham raqobat muhitining shakllanayotganidan dalolat beradi. Biroq baribir resurslar, infratuzilma va marketing imkoniyatlari jihatidan Toshkentdagi OTMLar ustunlikka ega bo'lib qolmoqda.

Raqobat asosan Toshkent shahri va yirik shaharlarda shakllangan. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim xizmatlari bozorida raqobatning asosiy qismi Toshkent shahri va ayrim yirik markaziy hududlarda to'plangan. Toshkentdagi OTMLar sonining umumiy ulushi 2016-yildagi 55 foizdan 2024-yilga kelib 46 foizgacha pasaygan bo'lsa-da, resurslar, brend imij, xalqaro hamkorlik va raqobatga tayyorlik bo'yicha ularning ustunligi saqlanib qolmoqda. Hududlararo tengsizlik raqobatni nomutanosib shakllantirib, viloyatlardagi OTMLarning rivojlanish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Marketing va innovatsion yondashuvlar raqobat ustunligini belgilamoqda. Ayrim nufuzli OTMLar (jumladan, xorijiy filiallar va brendga ega universitetlar) talaba jalb etishda marketing strategiyalaridan faol foydalanmoqda. Ularning xorijiy hamkorlik aloqalari, ingliz tilida o'qitish dasturlari, xalqaro reytinglarga kirish harakatlari raqobatni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bunday yondashuvlar raqobat muhitining innovatsion rivojlanish yo'nalishida shakllanishiga xizmat qiladi, biroq bu imkoniyatlar barcha OTMLar uchun teng emas.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston oliy ta'lim xizmatlari bozorida raqobat son jihatdan kuchaygan, ammo bu jarayonni sifat jihatdan

¹⁸ <https://www.instat.uz/uz/402-elektron-jurnal/34056-o-zbekiston-statistika-axborotnomasi-ilmiy-elektron-jurnali-2024-yil-1-son>

mukammallashtirish uchun hali ko‘plab tizimli yondashuvlar, institutsional islohotlar va indikatorlar asosida boshqaruv zarur. Sog‘lom va samarali raqobat muhiti faqat ko‘p sonli OTMlar bilan emas, balki ularning sifatli xizmat ko‘rsatish salohiyati, innovatsion imkoniyatlari va talabga moslashuvchanligi bilan bog‘liqdir.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim tizimi oxirgi yillarda sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tayotgan bo‘lib, bu jarayonda ta‘lim xizmatlari bozorida raqobat muhitining shakllanishi va rivojlanishi hal qiluvchi omillardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Mazkur maqolada olib borilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, oliy ta‘lim sohasida raqobatning miqdoriy ko‘rsatkichlari (ya‘ni OTMlar soni, taklif hajmi, xususiy sektor ulushi) ortib borayotgan bo‘lsa-da, uning sifat jihatidan chuqurlashuvi hali to‘laqonli emas.

Raqobatning kengayishi natijasida ta‘lim muassasalari o‘rtasida tanlov imkoniyatlari, marketing faoliyati, dasturiy innovatsiyalar, xalqaro hamkorlik shakllari faol rivojlanmoqda. Ayniqsa, xususiy sektor va xorijiy universitetlar filiallarining kirib kelishi bozorga yangi dinamika olib kirdi. Biroq bu raqobat jarayonlarida muvozanat buzilishlari, sifatsiz xizmatlar ko‘payishi, ayrim hududlarda ta‘lim infratuzilmasining zaifligi, nazorat va reyting tizimlarining rivojlanmaganligi kuzatilmoqda.

Shuningdek, davlat tomonidan ta‘lim xizmatlari bozorini tartibga solish borasidagi harakatlar raqobatga ikkiyoqlama ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, litsenziyalash, kvotalar, moliyaviy ko‘mak mexanizmlari orqali bozorga kirishni tashkil etmoqda, ikkinchi tomondan esa ayrim OTMlarga preferensiyalar berilishi yoki sifatsiz OTMlarning haddan ziyod ko‘payishi kabi muammolar adolatli raqobatga putur yetkazmoqda.

Nazariy nuqtai nazardan, O‘zbekiston oliy ta‘lim bozorida klassik neoklassik va institutsional yondashuvlar uyg‘unlashmoqda. Ya‘ni, taklif ko‘payishi orqali narxlar raqobati va tanlov erkinligi kuchaymoqda, biroq raqobatning sifatli shakllanishi uchun institutsional baza mustaqil reytinglar, ta‘lim sifatini baholash mexanizmlari, xolis axborot platformalari yetarli darajada shakllanmagan.

Hududiy jihatdan qaralganda, Toshkent shahri va ayrim yirik markazlar raqobatda yetakchi o‘rinda bo‘lib qolmoqda. Viloyatlardagi OTMlar soni ortayotgan bo‘lsa-da, ularning raqobatbardoshligini ta‘minlash uchun resurslar, kadrlar salohiyati va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha qo‘llab-quvvatlash zarur.

Shuningdek, oliy ta‘lim muassasalarida ichki raqobatning rag‘batlantirilishi ya‘ni professor-o‘qituvchilar salohiyati, ilmiy faoliyat ko‘rsatkichlari, o‘quv rejalari sifatining baholanishi raqobat muhitining chuqurlashuvi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Oliy ta'lim tashkilotlarining kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar soni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Statistika axborotnomasi, 2024-yil 1-son. <https://www.instat.uz/uz/402-elektron-jurnal/34056-o-zbekiston-statistika-axborotnomasi-ilmiy-elektron-jurnali-2024-yil-1-son>
3. Kuldashev, Sh.A. Ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari raqobat ustunligini ta'minlash omillari va ko'rsatkichlari. “Iqtisodiyot va turizm” xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali, №1(15), 2024. <https://interjournal.uz/index.php/journals/article/download/224/204/645>
4. Umarov, T.O. O'zbekiston oliy ta'lim xizmatlari bozorida raqobat muhiti tahlili. “Iqtisodiyot va turizm” xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali, №6(20), 2024. <https://interjournal.uz/index.php/journals/article/download/325/304/848>
5. ResearchGate platformasida chop etilgan maqola. Ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalarining rivojlanish holati tahlili. [https://www.researchgate.net/publication/378505202 Ta%27lim xizmatlari bozorida oliy ta%27lim muassasalarining rivojlanish holati tahlili](https://www.researchgate.net/publication/378505202_Ta%27lim_xizmatlari_bozorida_oliy_ta%27lim_muassasalarining_rivojlanish_holati_tahlili)
6. ResearchGate platformasida chop etilgan maqola. Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2024). *Statistik ma'lumotlar bo'limi*. <https://stat.edu.uz>



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК СТРАТЕГИЧЕСКИЙ РЕСУРС УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА

Дониёрова Фотимабону Алишер кизи

ТГЭУ, PhD, и.о. доцент

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a178

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития человеческого капитала в условиях инновационной экономики. Выделены ключевые факторы его формирования: образование, здоровье, цифровизация и демография. Особое внимание уделено вызовам, связанным с необходимостью непрерывного обучения и цифровой трансформацией. На основе анализа ситуации в Узбекистане и международного опыта предложены рекомендации по совершенствованию образовательной системы, поддержке инноваций и развитию цифровых навыков для устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: человеческий капитал, устойчивое развитие, инновационная экономика, образование, цифровизация, навыки, здоровье.

INSON KAPITALI – BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK RESURSI SIFATIDA: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Doniyorova Fotimabonu Alisher qizi,

TDIU, v.b. dotsent

Annotatsiya. Maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Uni shakllantirishga ta‘sir qiluvchi asosiy omillar – ta‘lim, sog‘liqni saqlash, raqamlashtirish va demografiya – tahlil qilingan. Uzluksiz ta‘lim va raqamli transformatsiya zarurati bilan bog‘liq dolzarb muammolarga alohida e‘tibor qaratilgan. O‘zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyot asosida ta‘lim tizimini takomillashtirish, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, barqaror rivojlanish, innovatsion iqtisodiyot, ta‘lim, raqamlashtirish, ko‘nikmalar, sog‘liqni saqlash.

HUMAN CAPITAL AS A STRATEGIC RESOURCE FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT: THE CASE OF UZBEKISTAN

Doniyorova Fotimabonu Alisher kizi

TSUE, acting associate professor

Abstract: The article explores the theoretical and practical aspects of human capital development in the context of an innovative economy. Key factors influencing its formation – education, healthcare, digitalization, and demographics – are analyzed. Special attention is given to challenges related to the need for lifelong learning and digital transformation. Based on the analysis of the situation in Uzbekistan and international experience, the article offers recommendations for improving the education system, supporting innovation, and developing digital skills to ensure sustainable economic growth.

Keywords: human capital, sustainable development, innovative economy, education, digitalization, skills, healthcare.

Введение

В условиях стремительного научно-технического прогресса и цифровой трансформации экономики человеческий капитал становится решающим ресурсом для обеспечения устойчивого и инклюзивного развития. Современные вызовы требуют кардинального пересмотра существующих подходов к подготовке, развитию и использованию трудовых ресурсов, что, в свою очередь, обуславливает необходимость внедрения инновационных стратегий управления человеческими ресурсами.

В Стратегии "Узбекистан – 2030" одним из ключевых приоритетов обозначено развитие человеческого капитала как основного фактора устойчивого экономического роста, социальной стабильности и повышения конкурентоспособности страны. В Послании Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису подчёркивается: «В центре всех реформ должен стоять человек, его интересы, права и благополучие. Мы должны сформировать новое поколение кадров — образованных, инициативных и патриотичных». Эти ориентиры определяют стратегическое направление государственной политики в сфере образования, занятости и цифрового развития.¹⁹ В связи с чем, в республике особое значение приобретают инвестиции в образование, цифровые и когнитивные навыки, охрану здоровья и развитие инновационного потенциала, так как именно эти направления формируют основу глобальной конкурентоспособности страны в XXI веке.

Настоящая работа направлена на комплексное изучение механизмов формирования и развития человеческого капитала в условиях инновационной экономики, а также на разработку практических рекомендаций, способствующих эффективному использованию трудового потенциала Узбекистана в соответствии с целями устойчивого национального развития.

Обзор литературы

Вопросы формирования и развития человеческого капитала в условиях инновационной экономики являются предметом активного научного изучения как зарубежными, так и отечественными исследователями.

Теодор Шульц одним из первых обозначил концепцию человеческого капитала как совокупности знаний, навыков и умений, приобретаемых в процессе образования и профессиональной деятельности, и обосновал их значение для экономического роста

¹⁹ [УП-158-сон 11.09.2023. О Стратегии «Узбекистан — 2030»](#)

общества [1]. Его идеи были развиты Гэри Беккером, который предложил модель инвестирования в человеческий капитал и доказал его влияние на индивидуальные доходы и национальное благосостояние [2]. Пол Ромер в рамках новой теории экономического роста утверждал, что именно человеческий капитал, а не физический, определяет способность экономики к инновациям и технологическому прогрессу [3]. Якоб Минсер разработал модель, объясняющую взаимосвязь между уровнем образования, трудовым стажем и заработной платой [4].

В отечественной научной литературе особое внимание вопросам развития человеческого капитала уделяют Абдурахмонов Қ.Х., Абдурахманова Г.Қ. и Закирова Н.К. Они подчеркивают, что в современных условиях приоритетными направлениями являются модернизация образования, внедрение цифровых технологий и развитие кадровой инфраструктуры [5].

В работах Гойипназарова С.Б. рассматривается взаимосвязь между развитием системы профессионального образования и формированием конкурентоспособного человеческого капитала, отмечая важность адаптации образовательных программ к потребностям цифровой экономики [6]. По мнению Бакиевой И.А. необходимо создание условий для непрерывного образования и развития soft skills у молодёжи, что особенно актуально в условиях быстрой смены технологических укладов и появления новых профессий [7].

Кроме того, Всемирный банк в рамках Индекса человеческого капитала подчёркивает, что инвестиции в образование, здравоохранение и равный доступ к возможностям являются важнейшими факторами повышения национальной конкурентоспособности [8].

Таким образом, анализ научных трудов показывает, что развитие человеческого капитала требует комплексного и стратегического подхода, включающего реформу образования, улучшение системы здравоохранения, цифровизации и активную государственную политику в сфере занятости.

Методология исследования

Методологическая основа исследования включает применение общенаучных и специальных методов, обеспечивающих всестороннее и объективное рассмотрение проблем формирования и развития человеческого капитала в условиях инновационной экономики. В работе использовались системный и комплексный подходы, позволившие рассматривать человеческий капитал как совокупность взаимосвязанных элементов, включающих образование, здоровье, навыки и социальные факторы.

Для анализа эмпирических данных применялись методы экономико-статистического анализа, включая наблюдение,

группировку, сравнение, обобщение, а также индикативный и трендовый анализ. Эти методы позволили выявить ключевые тенденции и проблемы развития человеческого капитала в Узбекистане.

В рамках изучения влияния цифровизации и инноваций на человеческий капитал использовались методы сравнительного анализа и факторного моделирования, что дало возможность сопоставить международный опыт с текущей ситуацией в стране. Дополнительно были задействованы элементы социологического анализа: анализ официальной статистики, экспертные оценки, результаты опросов студентов и преподавателей, касающихся качества образования и уровня цифровых компетенций. Интеграция различных методов исследования обеспечила достоверность и научную обоснованность полученных выводов и предложений.

Результаты исследования

Современная экономика, основанная на знаниях и технологиях, предъявляет новые требования к формированию и использованию человеческого капитала. Инновационные изменения, цифровизация и глобальные вызовы требуют постоянного обновления профессиональных навыков, развития soft skills и адаптации к быстро меняющимся условиям.

Результаты проведённого анализа показали, что ключевыми направлениями развития человеческого капитала в условиях инновационной экономики являются: модернизация системы образования, развитие цифровых компетенций, укрепление здоровья населения и повышение уровня социальной защищённости.

Развитие навыков, включая критическое мышление, цифровую грамотность и способность к инновациям, становится все более важным. В Узбекистане предпринимаются шаги по внедрению программ профессиональной подготовки и переподготовки кадров. Создаются центры профессионального обучения, особенно в сельских регионах, что способствует снижению уровня безработицы и повышению конкурентоспособности рабочей силы.

Численность студентов вузов в Узбекистане демонстрирует устойчивую тенденцию к росту, превысив отметку в 6,3 миллиона человек по состоянию на 2022 год. Такой прирост отражает усилия государства по расширению доступа к высшему образованию и повышению его привлекательности среди молодёжи.

Заметное увеличение наблюдается и в академических лицеях — число их учащихся возросло более чем в два раза. Это указывает на укрепление роли лицеев как важного этапа в системе подготовки к высшему образованию и формировании академических навыков у школьников. В то же время в профессиональных колледжах зафиксировано значительное снижение числа студентов — почти в пять раз. Данная тенденция может быть обусловлена изменением

образовательных предпочтений, а также реформированием системы профессионально-технического образования. (рис. 1)



Рисунок 1. Иллюстрирующий динамику численности учащихся и студентов образовательных учреждений в Узбекистане с 2016 по 2022 годы²⁰

Jini koeffitsienti tengsizlikni o'lchashda eng ko'p foydalaniladigan ko'rsatkichlardan biridir. Ushbu ko'rsatkich italiyalik statistik olim Korrado Jini tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning nomi bilan atalgan. Asosan daromadlar notekisligini baholashda qo'llaniladi, biroq uni ta'limdagi tengsizlik kabi boshqa sohalarda ham qo'llash mumkin.

Jini indeksi 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqda o'lchanadi. 0 ko'rsatkich jamiyatda mukammal tenglik borligini bildiradi, ya'ni barcha shaxslar bir xil daromadga ega. 1 esa mutlaq tengsizlikni bildiradi, ya'ni faqat bitta odam butun daromadga ega bo'ladi, qolganlar esa hech narsaga ega emas.

Aholi farovonligini o'rganishning ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarning ahamiyatli jihatlari quyidagilardan iborat:

- Ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlar turmush farovonligini o'lchashda faqat iqtisodiy yoki ijtimoiy ko'rsatkichlar bilan cheklanmaydi, balki turli omillarni birlashtirgan holda kengroq va chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, iqtisodiy o'sish, sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy tengsizlik va mehnat bozori sharoitlari birgalikda o'rganiladi;

- Aholi farovonligini o'lchashda iqtisodiy darajalar, daromadlar va ijtimoiy omillar, jumladan, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi, ish bilan ta'minlanish darajasi, ijtimoiy himoya va boshqalar muhim hisoblanadi. Bu metod aholi turmush darajasini yanada to'liqroq baholash imkonini beradi;

- Yondashuvlar nafaqat qisqa muddatli, balki uzoq muddatli farovonlikni ham baholash imkoniyatini yaratadi. Masalan, ijtimoiy xizmatlar, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining rivojlanishi nafaqat hozirgi davrdagi farovonlikni, balki kelajakdagi hayot sifatini ham ko'rsatadi;

- Bu yondashuvlar faqat iqtisodiy farovonlikni emas, balki ijtimoiy, madaniy va ekologik farovonlikni ham hisobga oladi. Shu bilan birga, umumiy yashash sifati va turmush tarzini yaxshilashda turli faktorlar o'rtasida muvozanatni saqlashni maqsad qiladi.

Aholi farovonligini ijtimoiy-iqtisodiy o'rganishda yuzaga keladigan kamchiliklar:

- Ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlar ko'plab o'lchovlarni o'z ichiga oladi, bu esa ba'zan ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishda murakkabliklarga olib keladi;

- Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq va aniq bo'lmasligi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, tahlilni murakkablashtiradi. Ba'zan ma'lumotlar o'rtacha yoki o'lchov ko'rsatkichiga ega bo'lmasligi mumkin, bu esa ishonchli xulosalar chiqarishga to'sqinlik qiladi;

- Har bir mintaqada yoki jamiyatda farovonlikni o'lchashda madaniy, tarixiy va iqtisodiy farqlar mavjud bo'lishi mumkin. Bunda turmush farovonligining o'lchovlarining universal qo'llanilishi ma'lum bir cheklovlarga sabab bo'ladi. Shuning uchun, ba'zi indikatorlar yoki ko'rsatkichlar bir mamlakatda samarali ishlashiga qaramay, boshqasida ishlamasligi mumkin;

- Ba'zida farovonlikni o'lchashda siyosiy va ijtimoiy kontekstning

ahamiyatini to‘liq hisobga olish qiyin. Aholi turmush farovonligi ko‘p hollarda siyosiy qarorlar, hukumatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosatiga bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa

Aholi turmush farovonligini o‘rganish bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni tahlil qilishda nafaqat daromadlar, balki inson kapitali, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, mehnat bozori, va ijtimoiy tengsizlik kabi ko‘plab omillar hisobga olinishi lozim. O‘zbekiston tajribasida ko‘rinib turibdiki, inson kapitaliga sarmoya kiritish turmush darajasini oshirishga va iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi. Shu bilan birga, daromadlar tengsizligi, statistik ma‘lumotlarning to‘liqligi va regional farqlar farovonlikni baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Farovonlikni o‘lchovchi indekslar orqali aholi hayot sifati yaxshilanishi va iqtisodiy o‘sinh barqarorligiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sources and Problems of Human Capital Formation. URL: <https://byjus.com/>
2. Вальрас Л. Элементы чистой политической экономии. — М.: Изограф, 2000. — 448 с. (Éléments d'économie politique pure, 1874)
3. Human Capital Theory: Characteristics & Investment. URL: <https://study.com/academy/lesson/human-capital-theory-characteristics-investment.html>
4. Abdurahmonov K.X., Zokirova N.K. Sun'iy intellekt davrida mehnat iqtisodiyoti. Darslik. -T.: “ILM-MA'RIFAT” mashriyoti, 2025. 356 bet.
5. Abduramanov, X., Arabov, N., & Xolmuxamedov, M. (2021). Aholi daromadlari va turmush sifati. Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim nashriyoti.
6. A.B.Irmatova. Aholi kambag'alligining konseptual yondashuvlari. Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali, 2024-yil 2-son. <https://laboreconomics.uz/article/196>
7. S.P.Qurbonov. Aholining unumli va mahsuldor bandligini oshirish asosida kambag'allikni qisqartirish. Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent, 2022.
8. Human development reports, 2023. <https://hdr.undp.org/data-center/human-development-index#/indicies/HDI>
9. www.worldbank.org va www.siat.stat.uz sayti ma'lumotlari
10. <https://ourworldindata.org/what-is-the-gini-coefficient> sayti ma'lumotlari



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



TURISTLAR STATISTIK HISOBINI OLIB BORISH BO'YICHA XALQARO STANDARTLAR VA TAJRIBALAR TAHLILI

Jumanova Zilola Tuychiyevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

PhD, katta o'qituvchi

e-mail: jumanovazilola9@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a181

Annotatsiya. Maqolada turizm hisobini olib borish bo'yicha xalqaro standartlar, xususan turizm yordamchi hisobi tahlil qilingan. Ma'lumki, turizm yordamchi hisobi 1993 yil hamda 2008 yillarda qabul qilingan. Maqolada mazkur ikki yilda qabul qilingan turizm yordamchi hisobining o'zaro farqli jihatlarini keng yoritilgan. Yevropa davlatlari Fransiya, Polsha davlatlarida turizm yordamchi hisoblarini olib borish, o'ziga xos xususiyatlari batafsil o'rganilgan. Maqolaning asosiy maqsadi O'zbekistonda ham turizm yordamchi hisoblaridan foydalanishni yo'lga qo'yish uchun zaruriy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Turizm yordamchi hisoblari (TSA) dan tuzilmaviy ma'lumotlardan foydalanadigan modelga asoslangan makroiqtisodiy baholashda ushbu maqola mavjud bo'lgan yangi tahliliy imkoniyatlarni namoyon etadi. TSAlar tizimi turistik mahsulotga xos jihatlarni taklif qiladi. Turizm statistikasini hisobini olib borish bo'yicha, xalqaro tajribalar turlicha va ko'plab standartlar mavjud. Ular tavsiya xarakteriga ega. Lekin, ushbu tavsiyalar ko'pchilik davlatlarda milliy xususiyatlarni hisobga olmagan holda qo'llanilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasida esa yuqorida keltirilgan va tahlil qilingan standartlar deyarli qo'llanilmaydi. Shu munosabat bilan maqolada O'zbekistonda xalqaro tajriba va standartlariga tayangan holda turizm statistik hisobini olib borish bo'yicha tadqiqotlar olib boriladi.

Kalit so'zlar: turizm, turizm yordamchi hisobi, asosiy statistik ko'rsatkichlar, tashrif buyuruvchilar toifalari ichki turizm iste'moli, chiqishga oid turizm qo'shilgan qiymat hisobi, mamlakat ichidagi turizm bo'yicha taklif va iste'mol, turizm tarmoqlarida bandlik.

АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ И ПРАКТИКИ ВЕДЕНИЯ СТАТИСТИЧЕСКОГО УЧЕТА ТУРИСТОВ

Джуманова Зилола Туйчиевна

Ташкентский государственный экономический университет,

PhD, старший преподаватель

Аннотация. В статье анализируются международные стандарты учета туризма, в частности вспомогательного счета туризма. Как известно, вспомогательный счет туризма был принят в 1993 и 2008 годах. В статье подробно рассматриваются различные аспекты вспомогательного счета туризма, принятые в эти два года. Подробно изучаются особенности вспомогательных счетов туризма в европейских странах Франции и Польши. Основной целью статьи является формирование необходимых навыков для налаживания использования вспомогательных счетов туризма в Узбекистане. В данной статье демонстрируются новые аналитические возможности в макроэкономической оценке на основе модели

с использованием структурных данных вспомогательных счетов туризма (TSA). Система TSA предлагает аспекты, специфичные для туристического продукта. Существуют различные международные опыты и множество стандартов учета статистики туризма. Они носят рекомендательный характер. Однако эти рекомендации применяются в большинстве стран без учета национальных особенностей. В Республике Узбекистан вышеперечисленные и проанализированные стандарты практически не применяются. В связи с этим в статье проводятся исследования по ведению статистического учета туризма в Узбекистане на основе международного опыта и стандартов.

Ключевые слова: туризм, вспомогательный учет туризма, основные статистические показатели, категории посетителей, потребление внутреннего туризма, учет добавленной стоимости выездного туризма, предложение и потребление внутреннего туризма, занятость в секторах туризма.

ANALYSIS OF INTERNATIONAL STANDARDS AND PRACTICES ON CONDUCTING STATISTICAL ACCOUNTS OF TOURISTS

Jumanova Zilola Tuychiyevna

Tashkent State University of Economics,

PhD, Senior Lecturer

Abstract. The article analyzes the international standards for conducting tourism accounting, in particular the auxiliary tourism accounting. It is known that the tourism support account was adopted in 1993 and 2008. In the article, the different aspects of the tourism auxiliary account adopted in these two years are widely covered. The peculiarities of conducting tourism auxiliary accounts in the European countries France and Poland have been studied in detail. The main goal of the article is to form the necessary skills to establish the use of tourism auxiliary accounts in Uzbekistan. This paper demonstrates the new analytical possibilities available in model-based macroeconomic evaluations that use structural information from Type Auxiliary Accounts (TSA). The system of TSAs offers specific aspects of the tourism product. There are different international practices and many standards for the accounting of tourism statistics. They have a recommendation character. However, these recommendations are being applied in most countries without taking national characteristics into account. In the Republic of Uzbekistan, the above-mentioned and analyzed standards are practically not used. In this regard, in the article, research is carried out on conducting statistics of tourism in Uzbekistan based on international experience and standards.

Key words: tourism, tourism auxiliary accounting, basic statistical indicators, visitor categories domestic tourism consumption, outbound tourism value added accounting, domestic tourism supply and consumption, employment in tourism industries.

Kirish

XX asrning oxiriga kelib turizm sohasida statistik ko'rsatkichlarni barcha mamlakatlarda xalqaro standartlar asosida aniqlash zaruriyati paydo bo'ldi. Respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan bir necha qaror va farmonlarda ham aynan turizm statistikasini xalqaro metodologiyalar asosida takomillashtirish zarurligi ta'kidlanmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 5-yanvarda qabul qilingan PF-5611-sonli «O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»dagi Prezident

farmonida turizm statistikasi ko'rsatkichlar xalqaro metodologiyaga muvofiq shakllantirilishi va doimiy tarzda e'lon qilinib borilishi ta'kidlangan. Hozirda barcha davlatlarda turizm sohasiga bo'lgan e'tibor ortmoqda. Turizm yuqori daromadlikga ega bo'lgan sohalardan biri bo'lib, uning rivojlanishi aholi bandligini va iqtisodiyotning diversifikatsiyasini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator qaror va farmonlarida turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomi berilishi bilan yurtimizga ushbu sohaning ulkan salohiyatini ro'yobga chiqishi va jadal rivojlanish yo'liga o'tishi uchun mustahkam asos yaratildi[1].

Ana shunday ob'ektiv jarayonda turizm sohasining innovatsion rivojlanishini ta'minlovchi omillarni o'rganish iqtisodiyotning yangi va murakkab tadqiqot predmeti sifatida namoyon bo'lmoqda. Chuqurlashib borayotgan globalashuv jarayonlari, jahon siyosiy va iqtisodiy hayotida ro'y berayotgan shiddatli o'zgarishlar turizm oldiga bir qator muammo va vazifalarni ko'ndalang qo'ymoqda. Ularni muvaffaqiyatli hal etish uchun turizmning innovatsion rivojlanishini statistik yondashuv orqali ham tahlil qilish, baholash va innovatsion rivojlanish omillarini qamrab olgan nazariy – uslubiy asoslarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Turizm sohasi, uning nazariy asoslari va rivojlanishi iqtisodiy adabiyotlarda T.Tashmuradov, A.Saidov, I.S.Tuxliev, S.Safarov, Kim Ok Kyung, N.M.Abdusalomovna, S.Agzamovlarlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Turizm turlari, turistik joylashtirish maskanlari, turizm xizmatlari va mahsulotlari tahlil qilingan.

Turizmni innovatsion rivojlanishini statistik yondashuv asosida ham tahlil qilishi mumkin. Statistikaning o'rganish ob'ekti insoniyat hayotida ro'y beradigan barcha ommaviy voqea va hodisalardir[2]. Turizm sohasi ham hozirda ommaviy voqea hodisalar qatoriga kiradi, demak turizm sohasi statistikaga o'rganish ob'ekti bo'lishi mumkin. Turizm statistikasi turizm ko'rsatkichlarini hisoblashni o'rganib, ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi omillarni va ularning o'zgarish dinamikasini tahlil qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur mavzuni yoritib berishda tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, modellashtirish, eksperiment, tizimli va kompleksli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida jahonda turizm statistik hisobini olib borish bo'yicha bir qancha tajribalar o'rganildi. Masalan, 1990-yilda BMT Statistika boshqarmasi tomonidan Kanadada bo'lib o'tgan konferensiyada xalqaro tajriba o'rganildi. Ikki yillik muhokamadan so'ng ilk bor turizm statistik ko'rsatkichlari bo'yicha «Turizm statistikasi bo'yicha tavsiyalar - 1993» qabul qilindi. Ushbu hujjatda turizm sohasidagi tushunchalar, ko'rsatkichlar bayon etilib, ularning shakllanish jarayoni tasvirlandi va keyinchalik TYoH qabul qilishda ham asos vazifasini bajardi.

Ushbu tavsiyalar chop etilgandan so‘ng BTT turizm rivojlangan davlatlar statistik organlari bilan amaliy va nazariy masalalarini muhokama qildi. Masalan, 1995-yilda Markaziy va Sharqiy Yeprova davlatlari, Yaqin Sharq davlatlari, 1996-yilda Rossiya federatsiyasi hamda Tinch okeani va Janubiy Osiyo davlatlari, 1997-yilda esa Afrika va Amerika qit‘asi davlatlarida ko‘maklashish va yordamlashish tadbirlari o‘tkazildi.

1993-yildagi turizm statistik tavsiyalarga zamon talablarini hisobga olgan holda quyidagi yangi tushunchalar kiritildi²⁸:

1. Turistik tashrif va safar;
2. Turistik guruh;
3. Dala hovlida yashash chegarasi;
4. Safar maqsadi;
5. Turizmda bandlik;
6. Turizm va davlatlarning barqaror rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik.

1-jadval

Turizm statistikasi tavsiyalar-1993 va Xalqaro turizm statistikasi tavsiyalar-2008 orasidagi asosiy farqlar²⁹

№	Tushunchalar	Turizm statistikasi tavsiyalar 1993	Xalqaro turizm statistikasi tavsiyalar 2008
1	Turistik tashrif va safar tushunchalari	Turistik tashrif va safar tushunchalari mavjud emas	Turistik tashrif safardan ko‘ra torroq ma‘noni berib, safar davomida biror hududda to‘xtash, bir kunlik sayoxatlar ham turistik tashrifga kiritildi.
2	Turistik guruh	Turistik guruh tushunchasi mavjud emas	Ba‘zan turistlar guruh bo‘yicha sayohat qilib, bunda xarajatlar bir kishi tomonidan amalga oshirilsa ularni hisoblashda guruh a‘zolariga ham teng bo‘linadi.
3	Dala hovli tushunchasi	Bunday tushuncha mavjud emas	Dala hovli odatiy muhitdan chiqarilgan.
4	Safar maqsadlari	Oltita safar maqsadi mavjud	Avval safar maqsadi ikkiga bo‘linib so‘ngra yaana guruhga bo‘lindi.
5	Turizm sohasida bandlik	Turizm sohasida bandlik tushunchasi mavjud emas	Turizm sohasida bandlik bo‘yicha alohida bob mavjud
6	Turizm va barqaror rivojlanish	Turizm va barqaror rivojlanish mavjud emas	Turizm va barqaror rivojlanish bo‘yicha aniq bob mavjud

Ushbu hujjatda yuqoridagi keltirilgan tushunchalarning ta‘rifi hamda hisoblash uslubi batafsil yoritilgan. Ko‘pchilik davlatlarda turizm rivojlanishi bilan 1993-yilda qabul qilingan tavsiyalar XXI asrni boshlariga kelib eskirganligi va zamon talablariga to‘liq javob bermasligi ko‘rina

²⁸ “Международные рекомендации по статистике туризма, 2008 год” Мадрид и Нью-Йорк, 2010 год, 28 ст.

²⁹ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилди

boshladi. Shu munosabat bilan, 2008-yilda BMT, BTT, Yevrostat va boshqalar hamkorligida turizm statistikasi bo'yicha xalqaro standart yaratildi. Ikkala hujjatni har tomonlama tahlili shuni ko'rsatadiki, 2008-yilda qabul qilingan standart ancha takomillashgan va 1993-yildagi hujjatga nisbatan ijobiy farqlarga ega. Bizni fikrimizcha, 2008-yildagi xalqaro turizm statistik tavsiyalar 1993-yildagi hujjatga nisbatan quyidagi farqlarga ega(1-jadval).

«Turizm statistikasi -1993» faqatgina turizm sohasidagi ko'rsatkichlarni shakllanishi, tanlanma o'tkazilinishi, so'rovnoma ishlab chiqilishi kabi tafsialarni qamrab olgan bo'lib, unda turizmning agregat va integral ko'rsatkichlarini, turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, xususan, Milliy hisoblar tizimi doirasidagi ko'rsatkichlar bilan bog'liqligini ifodalab olish izohlanmagan.

1993-yilda qabul qilingan tavsiyalarni mahalliyashtirish maqsadida, ular asosida Yevropa Ittifoqi turizm statistikasi o'z metodini ishlab chiqdi va qabul qildi. Buni ustiga 1993-yildagi tavsiyalar asosida BTT Turizm Yordamchi hisoblari metodologiyasini ishlab chiqib, BMTga tavsiya etadi. BMT ushbu tavsiyalarni o'rganib BTT va Yevrostat hamkorligida 2000-yilda TYoH metodologiyasini ishlab chiqdi va uni qo'llash uchun barcha mamlakatlarga tarqatdi.

Turizm yordamchi hisobi bu milliy hisoblar tizimi doirasida turizmning iqtisodiyotga qo'shadigan hissasini aniqlash va o'lchashga imkon beradigan vositadir, shu bilan birga uni boshqa iqtisodiy sohalar bilan taqqoslash imkoniyatini beradi. Turizm yordamchi hisobi – bu boshqa makroiqtisodiy tizimlar bilan, xususan, to'lov balansi va milliy hisoblar tizimi munosabatlarini yaratishda foydalaniladigan makroiqtisodiy buxgalteriya vositasidir.

Jahonda ro'y berayotgan sotsial-iqtisodiy o'zgarishlarni hisobga olish maqsadida 2000-yilda qabul qilingan xalqaro standartlar xalqaro tashkilotlarda takomillashtirildi va 2008-yilda BMT tashkilotlari tomonidan yangi xalqaro standartlar qabul qilindi(2-jadval).

2-jadval

Turizm yordamchi hisobi 2000 va 2008-yillar orasidagi asosiy farqlar³⁰

№	Tushunchalar	Turizm yordamchi hisobi 2000	Turizm yordamchi hisobi 2008
1	Turistik xarajatlar va iste'mol	Turistik xarajatlar	Turistik xarajatlar va turistik iste'mol
2	Turistik mahsulotlar	Barcha davlatlar uchun bir xil	Har bir davlat uchun turlicha
3	Konferensiya xizmati	-	Konferensiyalar xizmati
4	Turizmda bandlik	Turistik korxonalarda ishlovchilar soni	Turistik korxonalarda ishlovchilar va mavsumiy ishlovchilar soni
5	Turizm sohasidagi kapital	Turistik tashkilotlardagi kapitali	Turizm sohasidagi kapital

³⁰ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилди

2-jadvalda keltirilgan taqqoslama ma'lumotlarni ko'rsatishicha, 2000-yilda qabul qilingan hujjatga 2008 yilda judda katta o'zgartirishlar kiritilgan. Masalan, 2000-yildagi hujjatda turistik xarajatlar hisoblanadigan bo'lsa, 2008-yildagi hujjatda ular bilan bir qatorda turistik iste'mol hajmi ham aniqlanishi belgilangan. Ma'lumki, turistik iste'mol turistik xarajatlarga nisbatan kengroq ma'noga ega. Boshqacharoq aytganda turistik xarajatlar turistik iste'molni bir qismidir. Ikkinchidan, 2000-yildagi hujjatda turistik mahsulotlarni hisoblash barcha davlatlar uchun bir xil metodologiyadan amalga oshirilishi kerak edi. 2008-yildagida esa har bir davlatga o'z metodologiyasini qo'llash imkoniyati berildi. Uchinchidan, yangi hujjatda konferensiya xizmati atamasi kiritildi. To'rtinchidan, turizmdagi bandlar soniga turistik korxonalarda ishlovchilar bilan bir qatorda turizm bilan mavsumiy band bo'lgan ishlovchilar ham kiritildi bo'ldi va oxirgisi turizm sohasidagi kapitalni hisoblash metodologiyasi o'zgartirildi, ya'ni turizm sohasidagi kapital deganda faqat turistik tashkilotlarni kapitali emas, balki turizm sohasidagi kapitalning umumiy hajmini hisoblash tavsiya etildi. Bu holatni o'zi mamlakat iqtisodiyotida turizmni o'rnini to'g'ri va aniq belgilashga asos bo'ldi.

TYoH tanlanma statistik kuzatuv hamda rasmiy ma'lumotlar asosida tuziladi va 10 ta jadvaldan iborat:

1-jadval, mahsulot turlari va tashrif buyuruvchilar toifalari kesimida kirishga oid turizm iste'moli;

2-jadval, mahsulotlar turlari kesimida hamda tashrif buyuruvchilar toifalari va tashrif ko'rinishi bo'yicha ichki turizm iste'moli;

3-jadval, mahsulot turlari va tashrif buyuruvchilar toifalari kesimida chiqishga oid turizm iste'moli;

4-jadval, mahsulot turlari va tashrif buyuruvchilar toifalari kesimida mamlakat ichidagi turizm iste'moli;

5-jadval, turizm tarmoqlarida va boshqa tarmoqlarda yalpi ishlab chiqarish, oraliq iste'mol va qo'shilgan qiymat hisobi;

6-jadval, mahsulotlar kesimida mamlakat ichidagi turizm bo'yicha taklif va iste'mol;


7-jadval, turizm tarmoqlarida bandlik;

8-jadval, turizm tarmoqlarda va boshqa tarmoqlarda turizmga tegishli asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi;

9-jadval, mahsulot turlari kesimida va davlat boshqaruv organlari darajasida jamoaviy turizm iste'moli;

10-jadval, qiymatga ega bo'lmagan ko'rsatkichlar.

TYoH jadvallari turizm ko'rsatkichlarini aniq hisoblash imkoniyati berishi bilan bir qatorda ular o'zaro uzviy bog'liq hamdir. TYoH jadvallarining o'zaro aloqadorligi C.D.Frechting fikriga ko'ra quyidagi ko'rinishga ega(1.4-rasm).



1-rasm. Turizm yordamchi hisobi jadvallarining o‘zaro bog‘liqligi³¹

1-rasmda keltirilgan 4-jadval (mahsulot turlari va tashrif buyuruvchilar toifalari kesimida mamlakat ichidagi turizm iste‘moli) bilan turizm sohasidagi boshqa ishlab chiqarishlar o‘rtasidagi bevosita aloqa mavjudligiga, 5-jadval (turizm tarmoqlarida va boshqa tarmoqlarda yalpi ishlab chiqarish, oraliq iste‘mol va qo‘shilgan qiymat hisobi) bilan turizm bandlek orasidagi aloqadorlikni yo‘qligiga ishonchimiz komil emas. Bundan tashqari boshqa ishlab chiqarishlar deganda nima nazarda tutilganligi C.D.Frechting maqolasida yoritilmagan.

BMT, BTT va boshqa xalqaro tashkilotlarning turizm statistikasini tashkil etish va TYoH olib borish bo‘yicha ko‘pchilik davlatlar o‘z tajribasiga va yo‘liga ega. Masalan, Gresiya davlatini olsak, unda TYoH o‘nta jadvaldan to‘rttasi to‘ldiriladi. Gresiya davlati turizm tushumlari va xarajati ma‘lumotlarini aniqlash maqsadida tanlanma kuzatuvdan tashqari to‘lov balansidan ham foydalanadi, ya‘ni Gresiya Markaziy banki ma‘lumotlari asosida kiruvchi va chiquvchi turistlar tomonidan valyuta ayirboshlash shaxobchalari va plastik kartalari orqali amalga oshirilgan to‘lov ma‘lumotlaridan ishlatiladi. Bu metodni hozirda Gresiyadan tashqari yana ko‘plab davlatlar ham qo‘llaydi. Ushbu metodni yuqori ustunliklari bo‘lishiga qaramasdan uni qora bozor mavjud bo‘lgan davlatlarda, shu jumladan O‘zbekistonda, qo‘llash to‘plangan ma‘lumotlarni ishonchsizligini pasaytiradi.

Fransiya davlati ham turizm rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. Fransiya davlatida turizm statistikasi bo‘yicha Fransiya statistika qo‘mitasi, Turizm qo‘mitasi va Milliy banki shug‘ullanadi. Fransiyaning barcha chegara post joylarida yilda bir marotaba tanlanma kuzatuv asosida ma‘lumotlar

³¹ C.D.Frechting Tourism satellite account//Annals of Tourism Research, Vol. 37, No. 1, 2010. 136–153 pp.

to'planadi. Tanlanma kuzatuv metodidan tashqari Fransiya Milliy banki ham o'z navbatida eksport va import ko'rsatkichlarini aniqlashda statistikasiga yordamlashadi, ya'ni barcha tursitlar tomonidan amalga oshirilgan plastik kartalari orqali to'lovlar to'g'risida ma'lumotlar e'lon qilinadi.

Polshada turizm statistikasi bo'yicha Polsha Markaziy statistika(MSB) boshqarmasi shug'ullanadi. Polsha Markaziy Statistika boshqarmasi o'z navbatida Yevrostat, BMT, JTT tavsiyalariga rioya qilib o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Hozirda Polsha MSB turizm instituti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazirligi bilan hamkorlikda turizm statistik ko'rsatkichlarini takomillashtirishni amalga oshirmoqda:

- har oylik joylashuv joylarini ma'lumotlarini chop etish;

- turistlar oqimi, eksport va import ko'rsatkichlari bo'yicha yilda 6 marta tanlanma amalga oshiriladi;

- har uch yilda bir marta Polsha davlati ichki turizm to'g'risida ma'lumotlarni jamlash maqsadida uy xo'jaliklaridan tanlanma kuzatuv o'tkaziladi.

Xulosa

Turizm statistikasini hisobini olib borish bo'yicha, xalqaro tajribalar turlicha va ko'plab standartlar mavjud. Ular tavsiya xarakteriga ega. Lekin, ushbu tavsiyalar ko'pchilik davlatlarda milliy xususiyatlarni hisobga olmagan holda qo'llanilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasida esa yuqorida keltirilgan va tahlil qilingan standartlar deyarli qo'llanilmaydi. Shu munosabat bilan maqolada O'zbekistonda xalqaro tajriba va standartlariga tayangan holda turizm statistik hisobini olib borish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi.

Birinchidan, turizm ko'rsatkichlarini shakllantirish uslubiyati bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi va xalqaro tashkilotlar tavsiyalarini o'rganish, ilmiy – amaliy yondashuvlarni umumlashtirish hamda O'zbekiston Respublikasi turizm statistikasi amaliyotida foydalanish uchun turizm ko'rsatkichlar uslubini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, turizm asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha kuzatuv ma'lumotlarning hamda korxona va tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisobotlari ma'lumotlarining shakllantirilishi bilan bog'liq muammolarni aniqlash zarur.

Uchinchidan, turizm asosiy ko'rsatkichlarini yillik va choraklik davriylikda shakllantirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, turizm ko'rsatkichlari ishonchliligi va sifatini takomillashtirish va xalqaro andozalarga muvofiqligini ta'minlash borasida tizimli tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vspomogatel'nyy schet turizma: rekomenduemaya metodologicheskaya osnova, 2008 god, ISBN 098-92-1461023-6, -Nyu York, BMT, BTT, Yevrostat. 2010. St.10

2. Measuring the social dimension of the sustainability of tourism – Findings of the MST sub-group on the social dimension Cesare Costantino, Consultant, UNWTO, Committee on Statistics, Nineteenth meeting, Madrid, 26-27 February 2019
3. «Международные рекомендация по статистике туризма, 2008 год» - Madrid i Nyu-York: OON, 2010 god.- 140 st.
4. Aleksandrova A.Yu. Statistika turizma– M.: Federalnoe agentstvo po turizmu, 2014. – 464 s.
5. Международные рекомендация по статистике туризма, 2008 год Руководство по составлению статистики Madrid i Nyu-York: OON. 2016.- 160 st
6. Matyash S.A., Britvina V. V. Konyuxova G. P., Konyuxov V. G., Sedenkov S.E. Основы туристской деятельности и математическая статистика в индустрии туризма: Учебное пособие. – М.: Изд-во «Сoyuz», 2016. - 174 s.
7. Sharpley, R. (2005) Tourism, Tourists and Society. Cambridgeshire: ELM
8. Tashmuradov T. Ekonomika mejdunarodnaya turizma. – Tashkent, 1994. 5 bet
9. Saidov A.F. O‘zbekistonda turizm. Istiqbol va muammolar, - Toshkent, 1992, 12 bet
10. Saidov A.F. Turizm v Uzbekistane: ekonomicheskie, sotsialnye i organizatsionnye aspekty, -M.: Institut turizma, 1991
11. Hsiao C. Analysis of Panel Data. _ Cambridge University Press, 1986.
12. Wooldridge J. M. Econometric Analysis of Cross Section and Panel Data, _ MIT Press, 2002. (Ch. 10.)
13. Wooldridge J. M. Introductory Econometrics: A Modern Approach, 2 ed., South-Western College Pub., 2002. (Ch. 13, 14.)
14. Blakely E. Planning Local Economic Development: Theory and Practice. SAGE Publications. 1994. 41. Greene W. H. Econometric Analysis. _Prentice-Hall, 2000. (Ch. 14.).
15. I.S.Tuxliev, R.Hayitboev, B.Sh.Safarov, G.R.Tursunova Turizm asoslari. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 332
16. A.X. Pardayev, A.N.Norchaev. Xalqaro turizm. -Darslik. – T.: TDIU, 2010 y -260 b.



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



HRM VA RAQAMLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA IMKONIYATLAR

Mamurov Samad Igamnazarovich

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti

Saparova Iroda Egamberdi qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a182

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson resurslarini boshqarish (HRM) sohasida raqamli texnologiyalarning ta'siri va ularning samarali joriy etilishi masalalari yoritilgan. Sun'iy intellekt, chatbotlar, bulutli tizimlar va SMAC texnologiyalari HRM jarayonlariga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani, shuningdek ularni qo'llashdagi asosiy to'siqlar — texnologik infratuzilma, malakali kadrlar yetishmovchiligi va huquqiy me'yorlar yetarli darajada shakllanmagani tahlil qilingan. Maqolada raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun texnologiyalarni inson omili bilan uyg'unlashtirish muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: HRM, raqamlashtirish, HR transformatsiyasi, SI, chatbotlar, NLP, algoritmik boshqaruv, bulutli texnologiyalar, HRMS, ATS tizimi, KPI, gamifikatsiya, texnologik stress, texnologik savodxonlik, texnologik innovatsiya, bimodal IT yondashuvi, texnologik moslashuv, elektron hukumat.

HRM И ЦИФРОВИЗАЦИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ВОЗМОЖНОСТИ

Мамуров Самад Игамназарович

Доцент Международной исламской академии Узбекистана

Сапарова Ирода Эгамберди кизи

магистрант Международной исламской академии Узбекистана

Аннотация. В данной статье рассматривается влияние цифровых технологий на управление человеческими ресурсами (HRM) и вопросы их эффективной интеграции. Проанализированы положительное влияние таких решений, как искусственный интеллект, чат-боты, облачные системы и технологии SMAC, а также основные барьеры их внедрения — недостаточное развитие инфраструктуры, нехватка квалифицированных кадров и пробелы в нормативно-правовой базе. Особое внимание уделено необходимости гармонизации технологий с человеческим фактором для успешной цифровой трансформации.

Ключевые слова: HRM, цифровизация, трансформация HR, ИИ, чат-боты, NLP, алгоритмическое управление, облачные технологии, HRMS, система ATS, KPI, геймификация, технологический стресс, технологическая грамотность, технологические инновации, бимодальный ИТ-подход, технологическая адаптация, электронное правительство.

HRM AND DIGITALIZATION: MODERN APPROACHES AND OPPORTUNITIES

Mamurov Samad Igamnazarovich

Associate Professor of the International Islamic Academy of Uzbekistan

Saparova Iroda Egamberdi qizi

Master's student of the International Islamic Academy of Uzbekistan

Abstract. This article explores the impact of digital technologies on Human Resource Management (HRM) and the challenges associated with their effective implementation. It analyzes the positive effects of tools such as artificial intelligence, chatbots, cloud systems, and SMAC technologies on HR processes, as well as key obstacles to adoption, including underdeveloped infrastructure, insufficient qualified personnel, and incomplete legal frameworks. The study emphasizes the importance of aligning technology with the human factor for successful digital transformation.

Keywords: HRM, digitization, HR transformation, SI, chatbots, NLP, algorithmic management, cloud technologies, HRMS, ATS system, KPI, gamification, technological stress, technological literacy, technological innovation, bimodal IT approach, technological adaptation, e-government.

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalardan foydalanish butun dunyoda keng tarqalmoqda. Shu jumladan, O'zbekistonda ham aynan bu sohaga e'tibor kuchayib bormoqda. Xususan, “Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida prezident farmonining qabul qilinishi va bu farmonda raqamlashtirishga urg'u berilishi yaqqol misol bo'la oladi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan. Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi “Raqamli Toshkent” kompleks dasturi amalga oshirilmoqda[1].

Raqamlashtirish inson resurslarini boshqarish (HRM) jarayonlariga jiddiy ta'sir ko'rsatib, ilg'or texnologiyalar yordamida HR funksiyalarini takomillashtirish va optimallashtirish imkonini bermoqda. Zamonaviy yondashuvlar va imkoniyatlar tufayli HRM nafaqat ishga qabul qilish va kadrlarni boshqarish jarayonlarini tezlashtirdi, balki tashkilotlarga strategik ustunlik ham taqdim etdi[2].

Bugungi kunda HRM jarayonlari Social, Mobile, Analytics va Cloud (SMAC) texnologiyalari bilan integratsiyalashgan bo'lib, bu universal HR xizmatlarini yaratish va tashkilotning raqobatbardoshligini oshirishga yordam bermoqda. Masalan, bulut texnologiyalari asosida ishlaydigan HR tizimlari real vaqt rejimida ma'lumot almashish imkoniyatini yaratadi va xodimlarning ish unumdorligini oshirishga xizmat qiladi[3].

Algoritmik boshqaruv HR jarayonlariga tobora ko'proq tatbiq etilmoqda. Bu xodimlarning ish unumdorligini baholash va bashorat qilishda katta yordam bersa-da, ayni paytda mehnat erkinligi va mustaqilligiga ta'sir qilishi mumkin[4]. Shuningdek, HRMning bimodal IT yondashuvi tashkilotlarga barqaror va innovatsion texnologiyalarni uyg'unlashtirish imkonini beradi[5].

Biroq, texnologik rivojlanish fonida inson omili haligacha markaziy o'rinda turibdi. HRMning raqamli transformatsiyasi muvaffaqiyatli bo'lishi uchun texnologiyalarni insoniy yondashuvlar bilan muvozanatlashtirish zarur. Xodimlarning farovonligi, motivatsiyasi va kasbiy rivojlanishi tashkilotlarning uzoq muddatli muvaffaqiyatini belgilovchi omillardan biri bo'lib qolmoqda[6]. Shu sababli, tashkilotlar nafaqat raqamli texnologiyalarni joriy etishi, balki xodimlarni ushbu texnologiyalardan samarali foydalanishga o'rgatishi ham zarur. Shunday qilib, HRMning raqamlashtirilishi ish unumdorligini oshirish, innovatsiyalarni rivojlantirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun muhim vosita hisoblanadi. Biroq, muvaffaqiyatli transformatsiya faqat texnologiyalar va insoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

So'ngi yillarda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida farmonida muvofiq elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirishni ko'zda tutuvchi loyihalarni amalga oshirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarni, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan. Bundan tashqari sanoat korxonalarida joriy etilayotgan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish (ERP, MES, SCADA va boshqalar), robotlashtirish, “Buyumlar interneti”, “sun'iy intellekt” kabi texnologiyalarning dasturiy mahsulot qismini 2027-yilga kelib, apparat qismini esa 2030-yilga kelib davlat-xususiy sheriklik asosida mahalliyashtirish rejalashtirilgan. Mazkur tadbirlar natijasida ko'plab davlat boshqaruv organlari elektron tizimga o'tishni boshladi. Bu o'z navbatida boshqaruv jarayoniga va aholiga qulaylik yaratishga yordam beradi.

Raqamlashtirish inson resurslarini boshqarish (HRM) jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatib, texnologik imkoniyatlar HR funksiyalarini takomillashtirish va

optimallashtirishga xizmat qiladi[2]. Mualliflar Social, Mobile, Analytics va Cloud (SMAC) texnologiyalarining HR jarayonlariga integratsiyasini alohida ta’kidlab, ularni tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim vosita sifatida ko’rsatishadi. Ular HRMning raqamli transformasiyasi samaradorlikni oshirishini va HR faoliyatini avtomatlashtirishga olib kelishini qayd etishadi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvning ba’zi cheklovlari bor, chunki raqamlashtirish inson resurslarini boshqarishning an’anaviy modellariga zid kelishi mumkin.

Raqamli HRM bo’yicha boshqa olimlar ham turli nuqtai nazarlarni bildirishgan. Masalan, Fernandez-Vidal va hammualliflar HRMning raqamli transformasiyasini bimodal IT yondashuvi bilan bog’laydilar. Ularga ko’ra, mazkur yondashuv HR tizimlarini modernizatsiya qilish va innovatsiyalarni qo’llab-quvvatlash uchun ikkita yo’nalishni (an’anaviy va raqamli) birlashtirishga asoslangan[5]. Ushbu yondashuv HR jarayonlarining uzluksizligini ta’minlashda foydali bo’lishi mumkin, biroq uni amalga oshirish qiyinchiliklar tug’dirishi mumkin, chunki kadrlar uchun yangi texnologiyalarga moslashishni talab qiladi.

Ushbu masala bo’yicha boshqa bir qarashni Dabić va hammualliflar ilgari surishgan. Ular algoritmik boshqaruvning HRMdagi o’rnini tahlil qilib, mazkur yondashuv ishchi resurslarini rejalashtirishni aniqroq amalga oshirishga yordam beradi, deb hisoblashadi. Biroq, ular avtomatlashtirilgan HR jarayonlari ishchilar mustaqilligi va ijtimoiy o’zaro ta’sirga salbiy ta’sir qilishi mumkinligini ta’kidlashadi. Shuning uchun HR mutaxassisleri texnologik va insonparvar yondashuvlarning muvozanatini ta’minlashlari kerak.

Raqamli texnologiyalarni HRMga joriy etish barqaror rivojlanish uchun muhim hisoblanasada, ularni inson omili bilan muvozanatlash zarur. Li, Seah va Yuen (2025) HR sohasida bulut texnologiyalarining roliga urg’u berishadi va bulutli HR tizimlarining haqiqiy vaqt rejimida ma’lumot almashish imkoniyatlarini yaratishini ta’kidlashadi. Ularga ko’ra, bu tizimlar xodimlarning ish samaradorligini oshirish va HR mutaxassislarining qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirishga yordam beradi[3]. Biroq, ular raqamli resurslardan noproporsional foydalanish texnologik stress va ishdan qoniqmaslik kabi xavflarni keltirib chiqarishi mumkinligini ham e’tirof etishadi.

Yana bir muhim qarash An va Mikhaylov tomonidan ilgari surilgan bo’lib, ular HRMning raqamli transformasiyasida ochiq innovatsiya va tezkor bozorga chiqish strategiyalari (time-to-market) o’rtasidagi muvozanatni topish muhimligini ta’kidlashadi[6]. Ular HRMni takomillashtirish uchun texnologik prognozlardan foydalanishni taklif qilishadi va bu HR mutaxassislariga tez va samarali qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Bizningcha, raqamlashtirish HRMni samarali boshqarish imkoniyatini oshiradi, biroq inson omilini hisobga olmaslik HR jarayonlarining sifatini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun, HR raqamli transformasiyasi muvaffaqiyatli bo’lishi uchun kompaniyalar xodimlarning raqamli

kompetensiyasini oshirish va texnologik o'zgarishlarga moslashishini ta'minlashlari lozim.

Shunga qaramasdan, umumiy tendensiya sifatida ko'plab tadqiqotchilar raqamli transformatsiyaning HRMga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Ular tanlov, trening va rivojlanish, ishlash samaradorligi va xizmat ko'rsatish sifati kabi asosiy HRM funksiyalarining raqamli texnologiyalar yordamida optimallashtirilishini e'tirof etadilar. Bu o'zgarishlar nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki resurslardan oqilona foydalanishga ham imkon yaratadi.

Yuqorida qayd etilganidek, raqamli transformatsiya HRM jarayonlarini tubdan o'zgartirishda muhim rol o'ynamoqda. Bu jarayon O'zbekiston kontekstida ham dolzarb masala sanaladi. Raqamli O'zbekiston konsepsiyasi doirasida davlat idoralari va xususiy sektor sohalarida raqamlashtirishga oid qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Biroq, inson resurslarini boshqarish sohasida bu jarayon nisbatan sekin kechmoqda. Hozirda ko'plab tashkilotlarda HR funksiyalari an'anaviy usullar asosida olib borilmoqda. Raqamli texnologiyalarni HRM amaliyotiga to'laqonli tatbiq etishda qator tizimli va texnik to'siqlar mavjud. Quyidagi jadvalda Levakov, I. N. O'zbekistonda HRM tizimida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni joriy etishdagi asosiy muammolar bayon etib o'tgan(1-jadval):

1-jadval

O'zbekistonda HRM tizimida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni joriy etishdagi muammolar [7]

№	Muammo	Tavsifi
1	Texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi	O'zbekiston kompaniyalarining aksariyatida ilg'or HR texnologiyalarini joriy etish uchun zarur infratuzilma mavjud emas. Internet tezligi pastligi va axborot xavfsizligi muammolari ham bu jarayonni qiyinlashtiradi
2	Kadrlar malakasining yetarli darajada bo'lmasligi	HRM mutaxassislarining aksariyati sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha yetarli bilim vako'nikmaga ega emas. Bundan tashqari, xodimlarni yangi texnologiyalar bilan ishlashga o'rgatish tizimi ham yetarlicha rivojlanmagan
3	Huquqiy va me'yoriy-huquqiy asoslarning to'liq shakllanmaganligi	HRM jarayonlarini raqamlashtirish va SI dan foydalanish borasida qonunchilik hali to'liq shakllanmagan. Ayniqsa, sun'iy intellekt yordamida qabul qilingan qarorlarning huquqiy javobgarligi masalasida noaniqliklar mavjud
4	Kompaniyalarning raqamli transformatsiyaga tayyor emasligi	Ko'pgina kompaniyalar raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun yetarli investitsiya ajratmaydi yoki ularga bo'lgan qiziqish yetarlicha yuqori emas. Natijada, sun'iy intellekt asosida ishlaydigan HR tizimlari ommaviy joriy etilmayapti

Manba: Levakov, I. N. (2025).

Bundan ko'rinib turibdiki, butun O'zbekiston sharoitida HRM jarayonlarini raqamlashtirish texnologik infratuzilmalarni rivojlantirish va

kadrlar malakasini oshirish masalasiga e'tibor qaratish va huquqiy-normativ bazani shakllantirish muhim hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, HRMning raqamli transformasiyasi samaradorlikni oshirish va innovasiyalarni joriy etishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, turli tadqiqotchilar bu jarayonning ijobiy va salbiy tomonlarini ta'kidlashgan. Bizningcha, raqamlashtirish inson resurslarini boshqarishga katta ta'sir ko'rsatsa-da, uni inson omili va mehnat bozorining real ehtiyojlari bilan muvozanatlashtirish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotni yoritishda bir qancha iqtisodchi olimlar olib borgan ilmiy izlanishlar, internet manbasi ma'lumotlar bazasidan olingan ilmiy va statistik ma'lumotlar asosida yig'ilgan kuzatuv natijalari asosida olib borildi. Tadqiqot sifatli (qualitative) va miqdoriy (quantitative) yondashuvlar integratsiyasiga asoslangan bo'lib, raqamli inson resurslarini boshqarish (HRM) texnologiyalarining samaradorligini baholash, shuningdek ularning xodimlar bilan ishlashdagi amaliy natijalarga ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot holatni o'rganish (case study) va komparativ tahlil (comparative analysis) usullaridan foydalanib amalga oshirilgan.

Tahlil va natijalar

Raqamli texnologiyalar inson resurslari boshqaruvi sohasida katta o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda HR texnologik yechimlari orqali ma'lumotlarni xavfsiz saqlash, kundalik jarayonlarni avtomatlashtirish va tahliliy vositalar yordamida strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatlari kengaymoqda.

HRForecast kompaniyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 2018 va 2025 yillardagi HR texnologiya tendensiyalari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan. Ushbu jadval orqali so'nggi yillardagi o'zgarishlar va 2025 yil uchun prognoz ko'rsatkichlari bilan tanishish mumkin(2-jadval).


2-jadval

2018 va 2025-yillardagi HR texnologik tendensiyalar

Texnologiyalar	2018	2025
Gane tahrirlash	\$ 3,70	\$ 9,70
Nanotexnologiya	\$ 1,00	\$ 2,20
Blokcheyn	\$ 0,70	\$ 61,00
5G	\$ 0,60	\$ 277,00
3D printing	\$ 10,00	\$ 44,00
SI	\$ 16,00	\$ 191,00
Robototexnika	\$ 32,00	\$ 499,00
Big data	\$ 32,00	\$ 157,00
Quyosh PV	\$ 54,00	\$ 344,00
Dronlar	\$ 69,00	\$ 141,00
IoT	\$ 130,00	\$ 1 500,00

Manba: <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>

Mazkur jadvalda keltirilgan ma’lumotlarni yanada aniqroq tahlil qilish va 2018 hamda 2025-yillardagi ko’rsatkichlarni solishtirish uchun quyidagi grafikdan foydalaniladi. Ushbu grafikda 2018 yilning amaldagi holati va 2025 yil uchun kutilayotgan o’zgarishlar yaqqol aks ettirilgan (1-rasm):




1-rasm. Dunyo bo’yicha biznes egalarining raqamli HRM uchun kiritgan sarmoyalari

Manba: <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>

Grafik orqali HR texnologiyalari yo’nalishlarida sun’iy intellekt (SI), mashinani o’rganish (ML), blockchain integratsiyasi, bulutli texnologiyalar va analitik platformalar bo’yicha o’zgarishlarni vizual tarzda ko’rish mumkin. 2018-yildagi bu ko’rsatkichlar jami 350 milliard dollarni tashkil etgan bo’lsa, bu ko’rsatkichlar 2025-yilga kelib 3,2 trillion dollarni tashkil etishi kutilmoqda. Buning farqini quyidagi diagrammada yaqqol ko’rishimiz mumkin (2-rasm).

Dunyo bo’yicha yirik biznes egalari o’z bizneslarining HR bo’limlarini takomillashtirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo’yicha 2018-yilga qaraganda qariyb 10 barobar ko’p investitsiya kiritishini ko’rishimiz mumkin.

Shu jumladan, texnologiya inson resurslarini boshqarishda (HRM) tezkor o’zgarishlarga sabab bo’ldi — ayniqsa chat-botlar va virtual yordamchilar xodimlar bilan ishlashda muhim vositaga aylandi. Ushbu vositalar xodimlar jalb etilishini, yordam ko’rsatishni hamda ish jarayonlarining unumdorligini oshirishda baholanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari — ayniqsa chat-botlar va virtual yordamchilar — ishdan qoniqish, mahsuldorlik va xodimlar almashuviga ijobiy ta’sir ko’rsatadi [8].



2-rasm. Dunyo bo'yicha biznes egalarining raqamli HRM uchun kiritgan sarmoyalari

Manba: <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>

Shu bilan birga, chat-botlar, ya'ni "kompyuter dasturlari bo'lib, ular odamlar bilan matnli yoki ovozli suhbat orqali muloqot qilishni simulyatsiya qiladi va foydalanuvchilarga virtual yordamchi sifatida xizmat ko'rsatadi"[9], HR texnologiyalarining samarali qo'llanilishida muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, Singapur hukumati tomonidan joriy etilgan Ask Jamie chatbotining tajribasi HR texnologiyalarining muvaffaqiyatli ishlatilishini ko'rsatadi. Ushbu chatbotning NLP (Natural Language Processing) texnologiyasi asosida ishlovchi chuqur o'rganish modeli foydalanuvchilarga so'rovlar bo'yicha yuqori aniqlikda javob bera oldi — 89% aniqlik bilan va o'rtacha javob berish vaqti 2.1–2.3 soniya. Bu tajriba Singapurda HR texnologiyalarining 2025 yilga qadar yanada takomillashishiga ishonchni kuchaytirmoqda. Foydalanuvchilar tomonidan berilgan baho 4.6 ballni tashkil etgan, bu esa chatbotning samaradorligini tasdiqlaydi. Shuningdek, Singapurning boshqa bir chatbot – Gov.sg — ham 4.5 ballni qo'lga kiritgan [10].

Bunga qarama-qarshi, Hindiston hukumati tomonidan ishlab chiqilgan MyGov Helpdesk chatbotining aniqligi 82% bo'lib, bu uning qoidaviy modelga asoslangani va ingliz tilidan boshqa tillarda foydalanuvchi so'rovlarini to'liq anglay olmasligi bilan izohlangan. U javob berish uchun o'rtacha 3.0 soniya vaqt talab qilgan[10].

Tadqiqotda, shuningdek, raqamli HR texnologiyalarining kompaniyalar tomonidan qamrab olinish darajasi tahlil qilindi. Quyidagi ko'rsatkichlar e'tiborga loyiq (2-jadval).

2-jadval

Raqamli HR texnologiyalarining kompaniyalar tomonidan qamrab olinish darajasi tahlil

HR texnologiyasi	Kompaniyalar tomonidan qo'llanish foizi
Masofaviy ish platformalari	85%
SI asosida ishga qabul qilish tizimlari	72%
Ish faoliyatini real vaqtli tahlil qilish	76%
O'quv boshqaruv tizimlari	68%
Xodimlar farovonligi dasturlari	54%

Manba: Transforming Human Resource Practices in the Digital Age A Study on Workforce Resilience and Innovation Sandy Setiawan, Umi Rusilowati, Aswadi Jaya, Hetilaniar, Rion Wang

Bu statistikalar masofaviy va gibrid ish modellarining keng tarqalganligini, sun'iy intellekt asosidagi tanlov va baholash jarayonlariga bo'lgan ishonch ortib borayotganini ko'rsatadi. Mualliflar ta'kidlaganidek, “Higher accuracy and efficiency enhance user satisfaction”[10], ya'ni aniqlik va samaradorlikning oshishi foydalanuvchi qoniqishini bevosita oshiradi.

Shuningdek, tadqiqotda an'anaviy HR amaliyotlari bilan raqamli HR strategiyalari o'rtasidagi farqlar ham ko'rishimiz mumkin (3-jadval).

3-jadval

An'anaviy HR amaliyotlari va raqamli HR strategiyalari o'rtasidagi farqlar

HR sohasi	An'anaviy HR
Ishga qabul qilish	Qo'lda rezyume tahlili
Ish faoliyatini baholash	Yillik hisobotlar
Xodimlar ishtiroki	So'rovnomalar, uchrashuvlar
O'qitish va rivojlanish	Auditoriyada o'qitish
Ish jadvali	An'anaviy jadval asosida

Manba: Transforming Human Resource Practices in the Digital Age A Study on Workforce Resilience and Innovation Sandy Setiawan, Umi Rusilowati, Aswadi Jaya, Hetilaniar, Rion Wang

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar HR jarayonlarini tezkor, moslashuvchan va xodimga yo'naltirilgan tizimga aylantirmoqda. Shu bilan birga, NLP, SI va avtomatlashtirish asosida ishlovchi tizimlar xodimlarning ish faoliyatiga doimiy turtki berib, tashkilotdagi umumiy chidamlilik va innovatsion salohiyatni oshirmoqda.

Zamonaviy HRM jarayonlarining e'tiborli jarayonlaridan biri bu ish jarayonlarini avtomatlashtirish, ish jarayonini tashkil etish, nazorat etish va motivatsiya funksiyalarini bajarishda vaqtni tejab, samarali boshqarish muhim hisoblanadi. HRMni raqamlashtirishdagi zamonaviy yondashuvlar va imkoniyatlarini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (4-jadval).

4-jadval

HRMni raqamlashtirishdagi zamonaviy yondashuvlar va imkoniyatlar

№	Yo‘nalish	Zamonaviy yondashuvlar	Imkoniyatlar
1	<i>Ishga qabul qilish (Recruitment)</i>	Sun‘iy intellekt asosidagi nomzodlarni tahlil qilish va tanlash tizimlari, ATS (Applicant Tracking System)	Tezkor va aniq nomzod tanlash, kadrlar tanlovining obyektivligini oshirish
2	<i>Ishchilarning malakasini oshirish (L&D - Learning & Development)</i>	Onlayn trening platformalari, VR va AR texnologiyalari, mikro-o‘qitish tizimlari	Xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini moslashuvchan tarzda rivojlantirish, masofaviy o‘qitish imkoniyati
3	<i>Ish faoliyatini baholash (Performance Management)</i>	KPI monitoring tizimlari, xodimlar uchun big data asosida real vaqt rejimida baholash	Ish samaradorligini oshirish, shaxsiy yondashuv
4	<i>Ma’lumotlarni boshqarish (HR Analytics)</i>	Big Data va SI yordamida xodimlar haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilish	Xodimlarning motivatsiyasi va samaradorligini oldindan prognoz qilish
5	<i>Kadrlar bilan ishlash jarayonlari (HR Workflow Automation)</i>	Chatbotlar, SI-assistentlar, HRMS (HR Management System)	Kadrlar bilan ishlashda inson omiliga bog‘liqlikni kamaytirish, samaradorlikni oshirish
6	<i>Masofaviy ish va moslashuvchan mehnat sharoitlari</i>	Cloud HR texnologiyalari, masofaviy monitoring tizimlari, Slack, Microsoft Teams kabi platformalar	Xodimlarning qulay sharoitda ishlash imkoniyati, samaradorlikni oshirish
7	<i>Xodimlar motivatsiyasi va xodimlarni ushlab qolish (Employee Engagement & Retention)</i>	Gamifikatsiya, xodimlar uchun personalizatsiyalangan motivatsion tizimlar	Ishga sodiqlikni oshirish, kompaniyaning HR brendini mustahkamlash
8	<i>Ish haqini boshqarish va kompensatsiyalar (Payroll & Compensation)</i>	Raqamli ish haqi tizimlari, blockchain asosidagi to‘lov tizimlari	Xatolarni minimallashtirish, ish haqini avtomatlashtirilgan tarzda to‘lash
9	<i>Mehnat huquqlari va rejalashtirish (Compliance & Workforce Planning)</i>	SI asosida mehnat qonunchiligini monitoring qilish va rejalashtirish tizimlari	Mehnat qonunchiligiga rioya qilish, xodimlarni rejalashtirishning aniqligini oshirish

Manba: Muallif ishlanmasi

Raqamli texnologiyalarni inson resurslarini boshqarish jarayonlariga integratsiyalash orqali tashkilotlar nafaqat samaradorlikka erishmoqda, balki insoniy resurslar bilan ishlashda aniqlik, tezkorlik va individual yondashuvni ta‘minlash imkoniga ega bo‘lmoqda. Har bir yo‘nalishda zamonaviy texnologiyalar an‘anaviy usullarni ortda qoldirib, strategik va barqaror HR tizimini shakllantirishda muhim vositaga aylanmoqda.

Xulosa va takliflar

O'tkazilgan tahlillar asosida raqamli texnologiyalar HRM sohasida chuqur va tizimli o'zgarishlarga olib kelayotgani aniqlanmoqda. Ayniqsa, SMAC (Social, Mobile, Analytics, Cloud) texnologiyalari, sun'iy intellekt (SI), tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va bulutli tizimlar asosida shakllanayotgan zamonaviy HR yondashuvlari quyidagi natijalarga olib kelmoqda:

- Ishga qabul qilish, ish faoliyatini baholash, xodimlar malakasini oshirish va mehnat qonunchiligi monitoringi kabi asosiy HR funksiyalar avtomatlashtirilmoqda va obyektiv, shaffof tizimlarga aylanmoqda.

- O'zbekistonda HRM tizimini raqamlashtirish bo'yicha salmoqli qadamlar tashlanayotgan bo'lsa-da, infratuzilma, kadrlar malakasi va huquqiy asoslar bilan bog'liq tizimli muammolar jarayonni sekinlashtirmoqda.

- Tahlillar shuni ko'rsatadiki, texnologik taraqqiyot inson omilini e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim. Xodimlarning ruhiy holati, mehnat erkinligi, texnostress kabi salbiy oqibatlar ehtimoli ham nazarda tutilishi kerak.

Quyidagi takliflar HRM sohasida raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning inson omili bilan uyg'unlashuvini ta'minlashga qaratilgan:

1. Texnologik infratuzilmani modernizatsiya qilish: Kompaniyalar zamonaviy HR texnologiyalarni (HRMS, ATS, KPI monitoring, gamifikatsiya tizimlari) joriy etish uchun barqaror internet tarmog'i, server bazasi va axborot xavfsizligini ta'minlovchi infratuzilmani yaratishi lozim.

2. O'zbekiston uchun milliy HR texnologik platforma yaratish: “Raqamli O'zbekiston – 2030” konsepsiyasi doirasida HR texnologiyalar uchun yagona raqamli platforma ishlab chiqilishi, bu platformada:

- bulutli HR xizmatlar;
- chat-bot integratsiyasi;
- malaka oshirish kurslari;
- mehnat qonunchiligi monitoringi mavjud bo'lishi taklif etiladi.

3. Bimodal IT yondashuvini tatbiq qilish: An'anaviy va raqamli HR jarayonlarini muvofiqlashtirgan holda, bimodal strategiya asosida ish yuritilishi — HR jarayonlarini transformatsiya qilishda moslashuvchan o'tishni ta'minlaydi

4. Kadrlar malakasini oshirish va doimiy o'qitish: HR mutaxassislari uchun SI, big data, raqamli etikaga oid sertifikatli kurslar tashkil etilishi lozim. Xodimlar uchun esa raqamli savodxonlik, texnologiyalardan foydalanish madaniyatini oshirishga qaratilgan ichki treninglar ishlab chiqilishi zarur.

Foydalangan adabbiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi farmoni.

2. Sengupta, A., Lalwani, S., Goswami, S., & Srivastava, P. (2021). Reinventing HR functions with SMAC technologies-an exploratory study. *Materials Today: Proceedings*, 46, 10169-10174.
3. Li, X., Rachel, S. Y. T., & Yuen, K. F. (2025). Mental Wellbeing in Digital Workplaces: The Role of Digital Resources, Technostress, and Burnout. *Technology in Society*, 102844
4. Dabić, M., Maley, J. F., Švarc, J., & Poček, J. (2023). Future of digital work: Challenges for sustainable human resources management. *Journal of Innovation & Knowledge*, 8(2), 100353.
5. Fernandez-Vidal, J., Perotti, F. A., Gonzalez, R., & Gasco, J. (2022). Managing digital transformation: The view from the top. *Journal of Business Research*, 152, 29-41.
6. An, J., & Mikhaylov, A. (2024). Technology-based forecasting approach for recognizing trade-off between time-to-market reduction and devising a scheduling process in open innovation management. *Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity*, 10(1), 100207.
7. Levakov, I. N. (2025). O'zbekistonda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning inson resurslarini boshqarishda qo'llanilishi va istiqbollari. *Innovations in Science and Technologies*, 2(2025). ISSN: 3030-3451
8. Rodriguez, M., Mohammed, M. A., Mohammed, R., Pasam, P., Karanam, R. K., Vennapusa, S. C. R., & Boinapalli, N. R. (2019). Oracle EBS and Digital Transformation: Aligning Technology with Business Goals. *Technology & Management Review*, 4, 49-63
9. Luo, X., Tong, S., Fang, Z., & Qu, Z. (2019). Machines versus Humans: The Impact of AI Chatbot Disclosure on Customer Purchases. *Marketing Science*.
10. Transforming Human Resource Practices in the Digital Age A Study on Workforce Resilience and Innovation Sandy Setiawan, Umi Rusilowati, Aswadi Jaya, Hetilaniar, Rion Wang



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA INSON RESURLARINING RO'LI: NAZARIYA VA AMALIYOT UYG'UNLIGI

Ro'zibayeva Zulayxo Baxrombek qizi

Fan va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a183

Annotatsiya: Maqolada turizm sanoatining raqobatbardoshligini oshirishda inson resurslarining strategik o'rni tahlil qilinadi. Muallif milliy va xorijiy tajribalarni solishtirgan holda, O'zbekistonda bu yo'nalishda mavjud muammolar va imkoniyatlarni yoritadi. Tahlillarda zamonaviy malakali kadrlar tayyorlash, ularni qayta o'qitish va jalb etish tizimining samaradorligi baholanadi. Maqolada amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: turizm, inson resurslari, bandlik, kadrlar siyosati, xizmat sifati, raqobatbardoshlik.

РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В РАЗВИТИИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНДУСТРИИ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Рузибаева Зулайхо Бахромбек кизи

Преподаватель в Университете науки и технологий

Аннотация: В статье анализируется стратегическая роль человеческих ресурсов в повышении конкурентоспособности туристической отрасли. Автор сравнивает национальный и международный опыт, освещая существующие проблемы и возможности в Узбекистане в данной сфере. Оценивается эффективность систем подготовки, переподготовки и привлечения квалифицированных кадров. В заключение предложены практические рекомендации по развитию сектора.

Ключевые слова: туризм, человеческие ресурсы, занятость, кадровая политика, качество обслуживания, конкурентоспособность.

THE ROLE OF HUMAN RESOURCES IN THE DEVELOPMENT OF THE TOURISM INDUSTRY: THEORY AND PRACTICE

Ruzibaeva Zulaykho Bakhrombek kizi

Teacher at the University of Science and Technologies

Abstract. The article analyzes the strategic role of human resources in increasing the competitiveness of the tourism industry. The author compares national and international experiences to highlight the current challenges and opportunities in Uzbekistan in this field. The study evaluates the effectiveness of systems for training, retraining, and attracting modern qualified personnel. Practical recommendations are proposed to enhance the sector's development.

Keywords: tourism, human resources, employment, personnel policy, service quality, competitiveness.

Kirish

XXI asrda turizm sanoati global miqyosda iqtisodiy rivojlanishning strategik yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma‘lumotlariga ko‘ra, turizm hozirgi kunda dunyodagi har to‘rtinchi ish o‘rnini yaratmoqda va umumiy yalpi ichki mahsulotning 10 foizidan ortig‘ini shakllantirmoqda. Ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sifati va mijoz ehtiyojlarini qondirish darajasi bevosita inson resurslarining salohiyati bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli bugungi kunda turizm inson kapitaliga sarmoya kiritish eng ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonida turizmni iqtisodiy o‘rinishning drayveri sifatida rivojlantirish, bu borada xizmatlar sifatini oshirish va malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish belgilab berilgan [1].

So‘nggi yillarda mamlakatimizda turizmni modernizatsiya qilish, yangi yo‘nalishlar – ekologik, agroturizm, sog‘lomlashtirish va ziyorat turizmini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ammo bu jarayonda malakali inson resurslarining yetishmasligi, mavjud kadrlar salohiyatining pastligi, zamonaviy xizmat ko‘rsatish standartlariga mos bo‘lmagan yondashuvlar jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Turizm sanoatini rivojlantirishda inson resurslarining o‘rni mavzusi bugungi kunda dolzarbli hisoblanadi. Chunki bu sohaga xos bo‘lgan yuqori tezlikda o‘zgarayotgan talab va ehtiyojlar, xizmat ko‘rsatishdagi kreativlik va moslashuvchanlik xodimlardan ko‘p qirrali bilim, malaka va tajriba talab etadi. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiyalar davrida raqobatbardosh turizm sohasi — bu birinchi navbatda raqobatbardosh inson kapitali mavjud bo‘lgan sohadir.

U quyidagi vazifalardan iborat:

- turizm sohasida inson kapitalining nazariy asoslarini yoritish;
- xorijiy tajribalarni tahlil qilish va solishtirish;
- O‘zbekistonda turizm kadrlarini tayyorlash tizimidagi kamchiliklarni aniqlash;
- malakali kadrlar yetishmovchiligining oqibatlarini ko‘rsatish;
- amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu izlanishlar orqali turizm sanoatida inson resurslarining o‘rni va istiqbollari ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai nazardan chuqur o‘rganiladi.

Turizm sanoati, sohada xizmat ko‘rsatish sifati, innovatsiyalar va mijozlar ehtiyojini qondirish darajasi bevosita inson resurslariga bog‘liq. Inson kapitaliga investitsiya qilish zamonaviy turizm raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, raqobatbardosh turizm industriyasining orqasida yuqori malakali, kasbiy kompetensiyalarga ega inson resurslari turadi.

Turizm sanoati quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

– Mehmonxonalar va joylashtirish vositalari sayyohlarga vaqtincha yashash uchun qulay sharoit yaratadigan mehmonxona, hostel, mehmon uylari, sanatoriy va boshqa obyektlar;

– Transport xizmatlari sayohatchilarni bir joydan ikkinchi joyga xavfsiz va qulay yetkazib beradigan xizmatlar: aviatsiya, temiryo‘l, avtobuslar, avtomobil ijarasi, taksi va boshqa vositalar;

– Ovqatlanish joylari restoranlar, kafe va milliy taomlar uylari turistlarga mahalliy va xalqaro oshxona taomlarini taqdim etadi;

– Ekskursiyalar va gidlik xizmatlari tarixiy, madaniy, tabiiy obidalarga tashriflarni tashkil etish hamda ularni tushuntirib beradigan professional gidlar faoliyati;

– Turizm agentliklari va operatorlari tur paketlarni shakllantiruvchi, sayohatni rejalashtiruvchi, bron qilish va xizmatlarni muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar;

– Ko‘ngilochar xizmatlar muzeylar, teatrlar, festivallar, konsertlar, sport tadbirlari va boshqa dam olish imkoniyatlarini taklif etadigan obyektlar;

– Souvenirlar va boshqa tijorat faoliyatlari – milliy hunarmandchilik mahsulotlari, esdalik sovg‘alari va boshqa sayyohlarga mo‘ljallangan tovarlar savdosi bilan shug‘ullanuvchi kichik biznes tarmoqlari.

Nega bu sanoat deb ataladi?

Chunki, bu soha ko‘p sonli ish o‘rinlarini yaratadi.

Milliy daromadga salmoqli hissa qo‘shadi. Eksport ekvivalentiga ega (chet ellik turistlar olib kiradigan valyuta sababli).

Turizmga xizmat qiluvchi tarmoqlarning ko‘pligiga ko‘ra, u kompleks sanoat tizimi hisoblanadi. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) turizmni strategik rivojlanish yo‘nalishi deb baholaydi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Turizm sohasida inson resurslari muammosi global miqyosda keng o‘rganilgan mavzulardan biridir. Inson kapitalining iqtisodiy o‘rish va xizmatlar sifatiga ta’siri borasidagi nazariy qarashlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, bu tushuncha zamonaviy turizm kontekstida chuqurroq talqin etilmoqda.

Xorijiy olimlardan Becker inson kapitali nazariyasini ishlab chiqib, uni iqtisodiy o‘rishning eng muhim resursi sifatida ko‘rsatadi. Navruz-Zoda va Shomiev ham bu nazariyani turizm kontekstida kengaytirgan va inson kapitalining xizmat sifatiga bevosita ta’siri borligini asoslashgan.

Xorijiy olimlar ichida Gari S. Beker inson kapitalining iqtisodiy tizimdagi o‘rnini asoslab, uni raqobatbardoshlikning muhim manbai sifatida ko‘rsatgan. U o‘z asarida inson salohiyatiga sarmoya kiritish, ya’ni ta’lim, sog‘liqni saqlash va kasbiy tayyorgarlik orqali erishiladigan samarani tahlil qilgan [2].

Turizmga oid tadqiqotlarda esa, Navruz-Zoda va Shomiev inson kapitalining xizmatlar sifati bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatgan holda, aynan turizm sektori uchun maxsus kasbiy tayyorgarlikning zarurligini ta’kidlaydi.

Ular bu borada Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlaridagi tajribalarni solishtirgan [3].

Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) tomonidan e’lon qilingan hisobotlarda esa inson resurslari masalasi barqaror turizm taraqqiyoti uchun hal qiluvchi omil sifatida ko’rsatiladi. Xususan, 2022-yildagi “Tourism and Human Capital Development Report”da yuqori malakali xodimlar ishtirokisiz turizmدا innovatsion xizmatlar yaratishning deyarli imkonsizligi ta’kidlangan [4].

Yana bir muhim manba sifatida Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) tomonidan tayyorlangan “Decent Work in Tourism” hisobotida bu sohada yaratilayotgan ish o’rinlarining sifat jihatdan talabga javob bermasligi, ijtimoiy himoya, barqaror bandlik va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarining yetarli emasligi ko’rsatilgan. Bu esa, turizmدا inson resurslarini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini anglatadi [5].

O’zbekistonlik tadqiqotchi Yoqubov A. o’z izlanishlarida turizm sohasida mehnat bozori talablariga javob beradigan kadrlar yetishmovchiligi muammodorligini ko’rsatadi. Shu bilan birga, Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) hisobotlarida ham inson resurslarini rivojlantirish turizm barqarorligini ta’minlashning asosiy yo’li sifatida e’tirof etiladi.

O’zbekistonlik tadqiqotchilardan A. Yoqubov o’z maqolasida mamlakatimizda turizm sohasida kasbiy kadrlar yetishmasligi, mavjud o’quv dasturlarining amaliyotdan uzilganligi, til va servis madaniyati darajasining pastligi kabi muammolarni yoritib bergan [6].

Shuningdek, Sh. Ibragimov xizmat ko’rsatish sohasidagi mehnat bozori tahliliga asoslanib, turizmدا bandlik muammolari va ish kuchi yetishmovchiligining makroiqtisodiy oqibatlarini ko’rsatgan [7].

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar shuni ko’rsatadiki, turizmدا inson resurslarini strategik rivojlantirish, yuqori malakali va moslashuvchan kadrlar tayyorlash, ularni zamonaviy bozor talablariga yo’naltirish global va milliy darajadagi dolzarb masaladir. Mazkur maqola ana shu ilmiy ishlardan farqli o’laroq, O’zbekistonda turizm xodimlarining sifat ko’rsatkichlarini tahlil qilish va ular asosida aniq takliflar ishlab chiqishga yo’naltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqola yozishda qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv xulosalash usullari qo’llanildi. O’zbekiston Respublikasi Turizm qo’mitasi, Davlat statistika agentligi, UNWTO va ILO ma’lumotlari asosida turizm sohasida bandlik, ish o’rinlari sifati, kadrlar malakasiga doir statistikalar tahlil qilindi. Bundan tashqari, xorijiy tajribalarni o’rganish orqali takliflar shakllantirildi. Ushbu maqolada turizm sanoatini rivojlantirishda inson resurslarining o’rni va ahamiyatini o’rganish uchun bir qator metodologik yondashuvlar va ilmiy usullar qo’llanildi. Asosiy metodlar sifatida qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv xulosalash usullari tanlandi. Ushbu usullar nazariy va amaliy bilimlarni uyg’unlashtirish hamda tahliliy fikrlashni chuqurlashtirishda samarali bo’lib, mavzuning murakkab jihatlarini kengroq yoritishga imkon berdi.

Induktiv usul yordamida turizm sohasidagi mavjud statistik ma'lumotlardan (masalan, bandlik darajasi, ish o'rinlari sifati, kadrlar malakasi) umumiy xulosalar chiqarildi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi va Davlat statistika agentligi tomonidan taqdim etilgan 2015–2024-yillardagi ma'lumotlar asosiy manba sifatida ishlatildi hamda deduktiv usul bilan mavjud nazariy kontseptsiya va ilgari o'rganilgan ilmiy manbalarga tayanib, yangi ilmiy xulosalar va takliflarni ishlab chiqishda qo'llanildi. Ushbu usul inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'yicha nazariy asoslarni chuqurroq o'rganishga yordam berdi.

Tahlil va natijalar

Turizm sohasida inson resurslarini boshqarish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari va amaliy misollaridan keng foydalanildi. Bu xorijiy tajribalar maqola doirasida ishlab chiqilgan takliflar va tavsiyalarning sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqotning amaliy qismida esa O'zbekistondagi turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tashkilotlar, kadrlarni tayyorlash markazlari va sohaga oid oliy o'quv yurtlari vakillari bilan intervyu va so'rovnomalar o'tkazildi. Ushbu usullar orqali inson resurslarining amaliy muammolari, malaka darajasi, mehnat sharoitlari hamda rivojlanish istiqbollari yuzasidan to'liq va aniq tasavvur hosil qilindi.

Natijada, tadqiqot metodologiyasi asosida olingan ma'lumotlar turizm sanoatining iqtisodiy samaradorligi va inson resurslarining rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu tavsiyalar turizm sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

1-jadval

O'zbekistonda turizm sohasi bandligi bo'yicha ko'rsatkichlar (2022-2024-yillar)

№	Yil	Band bo'lganlar soni (ming)	Ulardan malakali kadrlar (%)	Ayollar ulushi (%)
1	2022	89.2	37.5	48.1
2	2023	101.4	41.9	49.7
3	2024	113.7	46.2	50.9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, 2024-yil ma'lumotlari.

Tahlildan ko'rinadiki, turizm sohasida bandlik yildan-yilga ortib bormoqda, ammo malakali kadrlar ulushi hamon past. Bu esa xizmat sifati va turistlar qoniqishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tajribada, masalan, Singapur va Ispaniyada turizm xodimlarining doimiy malaka oshirishi qonun bilan belgilangan bo'lib, bu davlatlarda xizmat sifati yuqoriligini ta'minlaydi. O'zbekistonda ham bu kabi yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiq.

2022–2024-yillarda O‘zbekistonda turizm sohasida bandlik 89,2 mingdan 113,7 mingga oshgan, ammo malakali kadrlar ulushi 37,5%dan 46,2%gacha yetgan [2]. Xizmat sifati pastligi turistlar qoniqishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Singapur va Ispaniyada har 2–3 yilda turizm xodimlarining malaka oshirishi qonun bilan tartibga solingan. Singapurdagi “SkillsFuture” dasturi orqali har bir xodim yillik \$500 subsidiya oladi, bu esa xizmat sifati va mijozlar ishonchiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda [1].

Tadqiqot davomida 27 ta turizm tashkiloti va 6 ta OTM bilan intervyular o‘tkazildi. So‘rovda qatnashganlarning 68 foizi mavjud kadrlar malakasi soha ehtiyojlariga mos emasligini bildirgan, 74 foiz tashkilotda ichki malaka oshirish tizimi mavjud emasligi aniqlangan. Bu esa ILO hisobotida keltirilganidek, ijtimoiy himoya va barqaror bandlik yetishmasligining dalilidir [5].

2024-yilda faqat 12% turizm xodimlari xalqaro sertifikatga ega bo‘lib, bu raqam xalqaro raqobatbardoshlik uchun past ko‘rsatkich hisoblanadi [6]. Xorijiy tajriba asosida O‘zbekistonda modulga asoslangan ta’lim, xususiylar sektor bilan integratsiya va xalqaro standartlarni tatbiq etish zarur.

Xulosa va takliflar

Turizm sohasi barqaror rivojlanishi inson resurslarining sifati bilan bevosita bog‘liq. O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish, ularni turizm sohasining zamonaviy talablariga moslashtirish dolzarbdir. Quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Turizm kollej va OTMlarida amaliyotga yo‘naltirilgan kadrlar tayyorlash dasturlarini joriy etish;

Xodimlarni qayta o‘qitish va malaka oshirish bo‘yicha sektoriylar markazlarni tashkil etish;

Xususiylar sektor bilan hamkorlikda turizmda mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiluvchi treninglar o‘tkazish;

Turizm xodimlari uchun xalqaro sertifikatlash tizimini joriy etish.

Turizm sohasi barqaror rivojlanishi inson resurslarining sifati va malakasiga bevosita bog‘liqdir. O‘zbekistonda turizm kadrlarini tayyorlash tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish, sohaga mos malakali mutaxassislar tayyorlash va mavjud kadrlarning malakasini doimiy oshirib borish hozirgi davr uchun eng muhim vazifalardan biridir. Shu bois quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Turizm kollej va oliy ta’lim muassasalarida amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini joriy etish zarur. Bu orqali talabalar nazariylar bilimlar bilan bir qatorda amaliylar ko‘nikmalarni ham shakllantirib, real ish sharoitlariga tayyorlanadilar;

2. Xodimlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish bo‘yicha sektoriylar markazlarni tashkil etish tavsiya etiladi. Bu markazlar zamonaviylar bilim va ko‘nikmalarni doimiy yangilab borish, yangi xizmat standartlari va innovatsiyalarni joriy etishda markaziy rol o‘ynaydi;

3. Xususi sektor bilan hamkorlikni kuchaytirish, turizmda mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan trening va seminarlar o‘tkazish lozim. Bu esa ishchi kuchining samaradorligini oshirishga, shuningdek, yangi ishchi metod va texnologiyalarni 4. Turizm xodimlari uchun xalqaro sertifikatlash tizimini joriy etish keng joriy etishga yordam beradi;

zarur. Bu nafaqat mutaxassislarning malakasini xalqaro standartlarga muvofiq baholash imkonini beradi, balki O‘zbekiston turizm sohasining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshiradi;

5. Inson resurslarini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish, jumladan, motivatsiya, rag‘batlantirish, karyera rivoji va mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali sohaga jozibadorlikni oshirish choralari ko‘rilishi lozim.

6. Turizm sohasi kadrlarini tayyorlash va rivojlantirish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, masofaviy ta‘lim va elektron trening platformalarini joriy etish orqali o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish mumkin;

7. Mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, turizm kadrlarini tayyorlash sohasidagi ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish maqsadida xalqaro tashkilotlar va ta‘lim muassasalari bilan doimiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish zarur.

Yuqorida keltirilgan takliflar amalga oshirilsa, O‘zbekistonda turizm sanoatining raqobatbardoshligi oshadi, xizmat ko‘rsatish sifati yaxshilanadi hamda iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Inson resurslarining malakali va motivatsiyalanganligi turizm sektorining barqaror rivojlanishining poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. UNWTO. Tourism and Human Capital Development Report. 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.
3. Becker, G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. University of Chicago Press, 1964.
4. Navruz-Zoda, S. & Shomiev, A. Turizm sohasida inson kapitalining xizmatlar sifati va raqobatbardoshlikka ta‘siri. 2022.
5. International Labour Organization (ILO). Decent Work in Tourism. Geneva, 2021.
6. Yoqubov, A. O‘zbekistonda turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimi va muammolari. 2023.
7. Ibragimov, Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasida mehnat bozori va bandlik muammolari. 2021.



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Botirova Xulkar Olimdjonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

“Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi assistenti

ORCID: 0009-0007-9927-339X

h.botirova@tsue.uz

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a184

Annotatsiya. Mazkur maqolada tadbirkorlikni rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo'lib, uning samaradorligi iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Shuning uchun tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini ilmiy asosda o'rganish dolzarb masalalardan biridir. Maqolada tadbirkorlik faoliyatining mohiyati, uning turlari hamda iqtisodiy samaradorlik tushunchasi keng yoritilgan. Shuningdek, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, innovatsion faoliyat, resurslardan samarali foydalanish, moliyaviy boshqaruv hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari batafsil ko'rib chiqiladi. Muallif tomonidan tadbirkorlikda iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun zarur bo'lgan nazariy yondashuvlarni tahlil qilinadi hamda ularning amaliyotga tatbiq etilishiga e'tibor qaratiladi. Xususan, zamonaviy menejment va marketing strategiyalarining tadbirkorlik samaradorligiga ta'siri o'rganiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida samarali tadbirkorlik yuritishning usullari taklif qilinadi.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, iqtisodiy samaradorlik, nazariy asoslar, biznes rivojlanishi, investitsiya, innovatsiya, moliyaviy barqarorlik, bozor iqtisodiyoti, raqobatbardoshlik, biznes muhit, iqtisodiy o'sish, texnologik rivojlanish, kichik biznes, xususiy sektor, infratuzilma, korporativ boshqaruv, soliq siyosati.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF INCREASING ECONOMIC PRODUCTIVITY IN ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT

Botirova Xulkar Olimdjanovna

Tashkent State University of Economics,

Assistant, Department of “Economic Theory”

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of increasing economic efficiency in the development of entrepreneurship. Entrepreneurship is one of the main driving forces of the country's economy, and its efficiency is an important factor in economic growth and sustainable development. Therefore, the study of ways to increase the economic efficiency of entrepreneurial activity on a scientific basis is one of the urgent issues. The article broadly covers the essence of entrepreneurial activity, its types, and the concept of economic efficiency. It also examines in detail the factors affecting economic efficiency, including innovative activity, efficient use of resources, financial management,

and mechanisms of state support. The author analyzes the theoretical approaches necessary for increasing economic efficiency in entrepreneurship and pays attention to their practical application. In particular, the impact of modern management and marketing strategies on entrepreneurial efficiency is studied. Methods for conducting effective entrepreneurship based on the experience of developed countries are proposed.

Keywords: Entrepreneurship, economic efficiency, theoretical foundations, business development, investment, innovation, financial stability, market economy, competitiveness, business environment, economic growth, technological development, small business, private sector, infrastructure, corporate governance, tax policy.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Ботирова Хулкар Олимджановна

Ташкентский государственный экономический университет,

Ассистент кафедры «Экономическая теория»

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы повышения экономической эффективности в развитии предпринимательства. Предпринимательство-одна из основных движущих сил экономики страны, эффективность которой является важным фактором экономического роста и устойчивого развития. Поэтому научно обоснованное изучение путей повышения экономической эффективности предпринимательской деятельности является одним из актуальных вопросов. В статье широко освещается сущность предпринимательской деятельности, ее виды, а также понятие экономической эффективности. Также будут подробно рассмотрены факторы, влияющие на повышение экономической эффективности, в том числе инновационная деятельность, эффективное использование ресурсов, финансовый менеджмент и механизмы государственной поддержки. Автор анализирует теоретические подходы, необходимые для повышения экономической эффективности в предпринимательстве, и обращает внимание на их практическое применение. В частности, изучается влияние современных управленческих и маркетинговых стратегий на эффективность предпринимательства. Предлагаются способы эффективного ведения бизнеса на основе опыта развитых стран.

Ключевые слова: Предпринимательство, экономическая эффективность, теоретические основы, развитие бизнеса, инвестиции, инновации, финансовая стабильность, рыночная экономика, конкурентоспособность, бизнес-среда, экономический рост, технологическое развитие, малый бизнес, частный сектор, инфраструктура, корпоративное управление, налоговая политика.

Kirish

Tadbirkorlik iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri bo'lib, mamlakatning innovatsion salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va milliy daromadni ko'paytirishda muhim rol o'ynaydi. Bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy o'sishning drayveri sifatida qaralib, uning samaradorligi nafaqat alohida biznes subyektlari uchun, balki umuman iqtisodiyot uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Iqtisodiy samaradorlik deganda resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish hajmini oshirish, tannarxni pasaytirish, rentabellik darajasini

ko'tarish va iqtisodiy foyda olish ko'zda tutiladi. Tadbirkorlik subyektlari uchun samaradorlikni oshirish masalasi raqobatbardoshlik darajasini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri bo'lib, biznesning barqarorligi va rivojlanish sur'atlarini belgilashda katta ahamiyatga ega. Shu bois iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish ham nazariya, ham amaliyot nuqtayi nazaridan muhim sanaladi.

Tadbirkorlikda iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali bo'lib, ularga investitsiyalar, innovatsiyalar, infratuzilma, soliq siyosati, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, mehnat unumdorligi, menejment tizimi va raqobat muhiti kiradi. Shu bilan birga, biznes subyektlarining samarali faoliyat yuritishi uchun qulay muhit yaratilishi, huquqiy va moliyaviy barqarorlik ta'minlanishi lozim. Bugungi kunda globallashtirish jarayonlari va texnologik taraqqiyot tadbirkorlikning yangi shakllarini yuzaga keltirib, raqamli iqtisodiyot sharoitida biznesni yuritish tamoyillarini o'zgartirmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik va o'rta biznes subyektlarining o'rni katta bo'lib, ularning samarali faoliyat yuritishi iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois, ularni qo'llab-quvvatlash, moliyaviy resurslarga ega bo'lish imkoniyatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishga rag'batlantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan davlatlarda tadbirkorlikning samaradorligini oshirish uchun biznes muhitini yaxshilash, texnologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va raqobatbardoshlikni kuchaytirish bo'yicha tizimli choralar ko'riladi.

Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish, innovatsion biznes modellarining keng joriy etilishi tadbirkorlikning rivojlanishida katta rol o'ynamoqda. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalasi dolzarb bo'lib, ular resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish va bozor talablariga moslashish orqali o'z faoliyatlarini barqaror olib borishga harakat qilmoqdalar. Bu jarayonda davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar, kredit resurslari va soliq yengilliklari tadbirkorlikni rivojlantirish uchun muhim omillar hisoblanadi.

Shuningdek, iqtisodiy samaradorlikni oshirishda innovatsiyalarni qo'llash, biznes jarayonlarini optimallashtirish va menejment tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korxonalar raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalangan taqdirda ularning samaradorligi oshadi, tannarxi pasayadi va foyda darajasi yuqorilaydi. Shu sababli zamonaviy sharoitda tadbirkorlik subyektlari ilg'or menejment usullarini qo'llash, marketing strategiyalarini takomillashtirish va mijozlarga yo'naltirilgan biznes modelini yaratish orqali o'z iqtisodiy natijalarini yaxshilashga intilishlari lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Tadbirkorlikni rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha ko'plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ushbu tadqiqotlar iqtisodiy nazariya, innovatsion faoliyat, biznesni boshqarish va davlat siyosatining tadbirkorlikka ta'siri kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Tadbirkorlik faoliyatining nazariy asoslari klassik iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqilgan. Adam Smit o'zining “Xalqlarning boyligi” asarida bozor iqtisodiyoti va erkin raqobat tamoyillariga asoslangan holda tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlarini bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, bozor iqtisodiyotida tadbirkorlar samarali resurs taqsimoti va iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri hisoblanadi [8]. Devid Rikardo esa “Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish prinsiplari haqida” asarida tadbirkorlik faoliyatining ishlab chiqarish omillari va soliqqa tortish jarayonlariga bog'liqligini tahlil qilgan [9].

Jozef Shumpeter tadbirkorlikni innovatsiyalar bilan bog'lab, “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” asarida iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida tadbirkorlarning yangi mahsulot, xizmat va texnologiyalarni yaratishdagi rolini ta'kidlagan. Uning fikricha, tadbirkorlar bozorga yangilik olib kirish orqali iqtisodiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi [10].

Maykl Porter “Millatlarning raqobat ustunligi” asarida raqobat ustunligi nazariyasini ishlab chiqib, iqtisodiy samaradorlikni oshirishda strategik boshqaruv va innovatsion faoliyat muhim o'rin tutishini ko'rsatgan. Uning nazariyasiga ko'ra, mamlakatning iqtisodiy o'sishi bevosita tadbirkorlik subyektlarining bozor sharoitiga moslashuvchanligi va samarali boshqaruv strategiyalariga bog'liq [11].

Kichik biznesning iqtisodiyotdagi roli haqida D.Birch “Ish o'rinlari yaratish jarayoni” asarida tadqiqot olib borgan. U kichik va o'rta korxonalar tomonidan yaratilayotgan ish o'rinlari iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlab bergan [12].

Rossiyalik tadqiqotchi Yunusova Razilya o'z izlashnislari davomida tadbirkorlikni rivojlantirishda rejalashtirish muhim omillardan ekanligini aytib o'tgan. U buni quyidagicha ta'kidlaydi: “Tadbirkorlikni rivojlantirishni rejalashtirish har qanday dinamik tizim kabi ekvifinal xususiyatga ega ekanligi isbotlangan. Uning samaradorligini oshirish ekvifinal rejalashtirishning asosiy funksiyasini amalga oshirishni talab qiladi. Bu esa tizimning boshlang'ich holati va tashqi muhit ta'sirlaridan qat'i nazar, rivojlanishning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish variantlarini shakllantirishni anglatadi. Shu bilan birga, tranzit xarakterga ega bo'lgan mavjud cheklovlarni bartaraf etish sharti asosida ekvifinal tamoyillarni qo'llash zarur bo'ladi” [13].

Mahalliy olimlarimizdan A.A.Mamatov, T.T.Jo'rayev, A.N.Erkayevlar tadbirkorlikni rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning nazariy asoslarini o'rganib, bir qancha olimlarning tadqiqotlarini chuqur tahlil qilishgan. Ularning ta'kidlashicha: “Y.Shumpeterning xulosalariga ko'ra tadbirkor – innovator ixtirolar va yangiliklarni joriy etish o'rtasidagi

bog'lovchi bo'g'in hisoblangani holda, uning faoliyati iqtisodiy taraqqiyotning sifat jihatdan o'zgarishiga katta hissa qo'shadi" [14]. Bu olimlarimiz tadbirkorlikni rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirishda innovatsiya va tadbirkorlikni o'zaro bog'lashgan.

Yana boshqa bir tadqiqotchilarimiz bo'lmish S.Salayev, M.Gulmanov, D.Saidov, J.Atayev, B.Tadjiyevlar tadbirkorlikni rivojlantirishdagi iqtisodiy samaradorlik – bu tadbirkorlik faoliyatini yaxshi rejalashtirishdan iborat deb hisoblashgan. Ularning fikricha, “Tadbirkorlik faoliyatini rnuvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy omillaridan biri – bu tadbirkorlik subyekti (korxona, tashkilot, firma) ichki rejalarining mukammalligi, sifat darajasi hisoblanadi. U o'z ichiga istiqboldagi maqsadlarni aniqlash va ularga erishish yo'llari hamda resurs ta'minotini oladi” [15].

Tadbirkorlikda iqtisodiy samaradorlikni oshirish har bir biznes subyekti uchun muhim vazifalardan biridir. Samaradorlik oshishi korxonalar faoliyatining barqarorligi, raqobatbardoshligi va daromadlarining ortishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, tadbirkorlik subyektlari resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va bozor talablariga moslashish orqali o'z iqtisodiy natijalarini yaxshilashga harakat qilishlari lozim.

I.Mazurova, N.Belozerova, T.Leonova, M.Podshivalova kabi olimlar iqtisodiy samaradorlik tushunchasi aniqroq ochib berishga harakat qilishgan. Ularning fikricha, “Samaradorlik – bu boshqaruv samaradorligi hisobalanadi. Iqtisodiy samaradorlikni yaxshiroq tushunish uchun “Iqtisodiy samara” va “iqtisodiy samaradorlik” tushunchalarini farqlash kerak. Iqtisodiy samara – bu pul qiymatidagi faoliyat natijasini tavsiflovchi mutlaq ko'rsatkich hisoblanadi. Iqtisodiy samaradorlik esa olingan samarani ushbu natijaga erishish uchun sarflangan xarajatlar yoki resurslar bilan taqqoslaydigan nisbiy ko'rsatkich hisoblanadi. Shunday qilib, iqtisodiy samaradorlik faoliyat natijasi va ushbu natijani olish uchun ishlab chiqarilgan (qo'llanilgan) xarajatlar (resurslar) o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi. Iqtisodiy samaradorlik natija va xarajatlar(resurslar)ning mutlaq xususiyatlari asosida hisoblangan nisbiy ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi” [16].

Mahalliy olimlarimizdan bir bo'lmish A.Abdug'aniev fikricha, “Iqtisod fanlarida “samaradorlik” va “iqtisodiy samaradorlik” tushunchalari mavjud. Ular mamlakat, tarmoq, korxona, yo'nalishlar hamda ayrim mahsulotlar bo'yicha aniqlanishi mumkin. Iqtisodiy samaradorlik tushunchasi samaradorlik tushunchasiga nisbatan kengroq mazmunga ega. Iqtisodiy samaradorlik deganda bir yil davomida (ma'lum davrda) amalga oshirilgan tadbirlar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, ular natijasida olingan sof foyda summasi bilan taqqoslanadi. Shunda sarflangan xarajatlar evaziga olingan sof foyda summasi qancha ko'p bo'lsa iqtisodiy samaradorlik darajasi shuncha oshgan hisoblanadi va aksincha. Samaradorlikni esa u yoki bu tadbirlarni, ishlarni, mahsulotlarni yetishtirish natijasida erishilgan yutuqlar ifodalaydi” [17].

Iqtisodchi olim I.Q.Rajabov fikricha, “Samaradorlik tushunchasi bu ishlab chiqarish jarayoni pirovard natijalarini oʻzida aks ettiruvchi iqtisodiy koʻrsatkich sifatida tushunilishi lozim. Iqtisodiy samaradorlik mohiyati nafaqat ishlab chiqarish natijalari va xarajatlar oʻrtasidagi arifmetik raqamlar bilan, balki foydali natijalarga erishish yoʻlida xarajatlar miqdorini kamaytirish bilan bogʻliq boʻlgan ishlab chiqarish, taqsimot va ayirboshlash munosabatlari orqali ifodalanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi xarajatlar va natijalar oʻrtasidagi arifmetik nisbatgina boʻlmasdan, balki ishlab chiqarish munosabatlarini aks ettiruvchi iqtisodiy atama...” [18] hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda tadbirkorlikni rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalarini oʻrganish uchun ilmiy-nazariy va empirik tahlil usullari qoʻllanildi. Tadqiqotning metodologik asoslari sifatida iqtisodiy rivojlanish nazariyalari, innovatsion iqtisodiyot yondashuvlari hamda raqobatbardoshlik va biznesni boshqarish tamoyillari asosida shakllangan ilmiy qarashlar oʻrganildi. Tadqiqot doirasida iqtisodiy samaradorlik tushunchasini aniqlash, uni oshirishga taʼsir etuvchi omillarni tahlil qilish hamda ilgʻor tajribalarni oʻrganish maqsad qilingan.


Tadqiqot jarayonida iqtisodiy samaradorlik va tadbirkorlik faoliyatining oʻzaro bogʻliqligi tizimli tahlil qilindi. Buning uchun iqtisodiy tahlil, statistik usullar, qiyosiy tahlil va ekspert baholari metodlari ishlatildi. Maʼlumotlar toʻplashda xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, davlat statistikasi va ilmiy tadqiqot materiallaridan foydalanildi. Shu bilan birga, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga oid ilgʻor xalqaro tajribalar qiyosiy tahlil qilinib, ularning milliy sharoitga moslashish imkoniyatlari baholandi.

Tadqiqotda tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini oshirish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun amaliy yondashuvlarga ham eʼtibor qaratildi. Bu borada biznes strategiyalarini shakllantirish, moliyaviy boshqaruv, innovatsion yondashuvlar va raqobat muhitini baholash kabi muhim jihatlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari asosida tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Oʻzbekistonda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror oʻsishiga va aholi farovonligining oshishiga katta hissa qoʻshmoqda. Soʻnggi yillarda tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yangi biznes subyektlari soni ortib, kichik va oʻrta biznesning iqtisodiyotdagi ulushi sezilarli darajada kengaymoqda. Hukumat tomonidan yaratilayotgan qulay ishbilarmonlik muhitining natijasi sifatida koʻplab yoshlar va ishbilarmonlar oʻz bizneslarini boshlashga intilmoqdalar. Biroq, soʻnggi 2 yilda tadbirkorlikning rivojlanishidagi baʼzi bir muammolar va tadbirkorlarning yetarlicha iqtisodiy samaradorlikka erishmaganligi natijasida tadbirkorlik subyektlari soni qisqarish holatlari kuzatilmoqda. 2024-yil 1-iyul holatiga nisbatan

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni bir yilda 23 753 taga kamaygan (1-rasm).



1-rasm. Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari, 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda (yillar kesimida soni) [21]

Yuqoridagi rasmda berilgan ma'lumotlar asosida shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlari soni yillar davomida o'zgarib kelmoqda. 2020-yilda 373 382 ta tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 453 215 taga yetgan. 2022-yilda eng yuqori daraja – 497 293 ta qayd etilgan ammo 2023-yilda 414 651 taga tushgan. 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 390 898 tani tashkil etdi.

O'zbekistonda yuqoridagi kabi tadbirkorlik subyektlari sonining kamayishini oldini olish va biznesni rivojlantirish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hukumat kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun imtiyozli kreditlar ajratish, soliq yuklamalarini kamaytirish va turli grant dasturlarini yo'lga qo'yishga e'tibor qaratmoqda. Tadbirkorlar uchun davlat subsidiyalari ajratilib, biznes yuritish jarayonlari soddalashtirilmoqda. Elektron tijorat va raqamli xizmatlarni rivojlantirish orqali yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Shuningdek, eksport faoliyatini kengaytirish va ichki bozorda mahalliy mahsulotlarga talabni oshirish uchun maxsus dasturlar amalga oshirilmoqda.

Bunday hollarda tadbirkorlik rivojlantirish va ularning iqtisodiy samaradorliklarini oshirishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilib beriladi. Tadbirkorlikni rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish nazariy jihatdan bir necha omillar va tamoyillarga asoslanadi. Samaradorlik deganda resurslardan optimal foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonlarini samarali tashkil etish tushuniladi.

Iqtisodiy samaradorlikni oshirish esa tadbirkorlik subyektlarining daromadlarini ko‘paytirish, ularning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshirish va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Nazariy jihatdan, tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligini oshirishda bir qancha tamoyillar mavjud. Tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligini oshirishdagi bu tamoyillar biznesning barqaror rivojlanishi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur. Ushbu tamoyillar tadbirkorlik subyektlariga raqobatbardosh bo‘lish, resurslardan samarali foydalanish va moliyaviy barqarorlikka erishishda yordam beradi.

Quyida tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligini oshirishdagi asosiy tamoyillar jadval shaklida keltirilgan (1-jadval):

1-jadval

Tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligini oshirishdagi asosiy tamoyillar

Tamoyil nomi	Mazmuni
<i>Innovatsion yondashuvlar</i>	Zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or usullarni tadbirkorlikka tatbiq etish
<i>Raqobatbardoshlik</i>	Mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, bozor talablariga moslashish
<i>Moliyaviy barqarorlik</i>	Samarali investitsiya siyosati, kredit va grantlardan oqilona foydalanish
<i>Talab va taklif tahlili</i>	Bozorni o‘rganish va iste‘molchilar ehtiyojiga mos mahsulot ishlab chiqarish
<i>Huquqiy muhitni yaxshilash</i>	Tadbirkorlik uchun qulay qonunchilik bazasini yaratish
<i>Resurslardan samarali foydalanish</i>	Ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va ekologik tamoyillarga rioya qilish
<i>Kadrlar salohiyatini oshirish</i>	Malakali mutaxassislarni tayyorlash va doimiy ravishda ularning bilimini oshirish
<i>Eksport salohiyatini oshirish</i>	Ichki va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish
<i>Davlat qo‘llab-quvvatlashi</i>	Imtiyozlar, soliq yengilliklari va tadbirkorlik muhitini yaxshilash
<i>Raqamli texnologiyalarni joriy etish</i>	Elektron tijorat, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish

Hozirgi kunda O‘zbekistonda yuqoridagi jadvalda keltirilgan tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Innovatsion yondashuvlar biznes rivojida katta ahamiyat kasb etib, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab

chiqarish hajmi ortmoqda. Masalan, IT va texnologik startaplar sonining oshishi, qishloq xo'jaligida dron texnologiyalaridan foydalanish hosildorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Bunday innovatsiyalar mahsulot va xizmatlarning raqobatbardoshligini ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida mahalliy tovarlarning xalqaro bozorga chiqishiga imkon yaratadi. To'qimachilik va charm mahsulotlarining eksporti ortib borayotgani ham shuni tasdiqlaydi.

Tadbirkorlikning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. 2024-yilda kichik biznes subyektlariga ajratilgan kredit mablag'lari evaziga yangi ish o'rinlari yaratildi. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun tadbirkorlar bozor talabini tahlil qilib, mahsulot va xizmatlarini iste'molchilar ehtiyojiga moslashtirishga intilmoqda. Ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan talabning oshishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu esa iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Tadbirkorlikning samarali rivojlanishi uchun qulay huquqiy muhit yaratish muhim hisoblanadi. Hukumat tomonidan litsenziyalash jarayonining soddalashtirilishi va elektron ro'yxatdan o'tish tizimining joriy etilishi natijasida minglab yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi. Ishlab chiqarish jarayonlarida resurslardan samarali foydalanish esa iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, energiya tejamkor texnologiyalarning joriy etilishi tadbirkorlarning xarajatlarini kamaytirib, ularning foyda olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Biznes muhitini yaxshilash uchun kadrlar salohiyatini oshirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2024-yilda O'zbekistonda minglab tadbirkorlar malaka oshirish dasturlarida ishtirok etdi. Shuningdek, eksport hajmining ortishi bilan xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengaymoqda. Ayniqsa, avtomobil sanoati va elektrotexnika mahsulotlari eksportining oshishi mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Davlat tomonidan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ajratilayotgan subsidiya va grantlar yangi biznes loyihalarining paydo bo'lishiga turtki bermoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali biznes yuritish jarayonlari soddalashtirilmoqda. Elektron tijoratning jadal rivojlanishi natijasida mahalliy ishlab chiqaruvchilar global bozorda o'z o'rnini topmoqda.

Shunday qilib, O'zbekistonda tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar biznes muhitini yaxshilash, investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Innovatsiyalar, moliyaviy barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish va raqamli texnologiyalarni joriy etish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga turtki bo'layotgan muhim omillar hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tadbirkorlikni rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi

va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tadbirkorlik subyektlari samarali faoliyat yuritishi uchun qulay biznes muhitining yaratilishi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi muhim omillar hisoblanadi. Shu jihatdan, tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, biznes muhitini yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun institutsional islohotlarni chuqurlashtirish zarur. Buning uchun tadbirkorlik subyektlariga nisbatan ma'muriy to'siqlarni kamaytirish, ruxsatnomalar va litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish, shuningdek, soliq tizimini yanada optimallashtirish lozim. Bu esa biznes yuritish sharoitlarini yaxshilab, kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga keng yo'l ochadi.

Ikkinchidan, moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash va tadbirkorlik subyektlarining investitsiyalarga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytirish muhim. Shu bois tijorat banklari, investitsiya jamg'armalari va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali tadbirkorlar uchun uzoq muddatli va imtiyozli kreditlar ajratish tizimini yanada rivojlantirish lozim. Bundan tashqari, ventur kapital va xususiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqilishi zarur.

Uchinchidan, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni biznes jarayonlariga joriy etish talab etiladi. Raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt kabi ilg'or texnologiyalardan foydalanish tadbirkorlikning samaradorligini oshirish bilan birga, uning global bozorlarda raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, startap ekotizimini rivojlantirish, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish hamda innovatsion klasterlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish kerak.

To'rtinchidan, tadbirkorlikni rivojlantirishda inson kapitalining o'rni juda katta. Shuning uchun tadbirkorlik sohasida malakali kadrlarni tayyorlash, bilim va ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish zarur. Bu borada oliy ta'lim muassasalari va biznes sektori o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, amaliy o'quv dasturlarini joriy etish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi maxsus inkubatorlar va akselerator markazlarini tashkil etish lozim.

Beshinchidan, eksport salohiyatini oshirish orqali tadbirkorlikning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu maqsadda eksportni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar yaratish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va tadbirkorlarning xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarishiga ko'mak berish muhim.

Umumiy qilib aytganda, tadbirkorlikni rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Yuqorida keltirilgan takliflarni amalga oshirish orqali biznes subyektlarining

samaradorligini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirish mumkin. Natijada, mamlakatda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi barqaror iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy farovonlikning oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 30-avgustdagi “O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan tadbirkor” faxriy unvonini ta'sis etish to'g'risida”gi O'RQ-952-sonli Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-martdagi “Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-96-sonli Qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-62-sonli Qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta'minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-64-sonli Qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27- dekabrdaagi “Tadbirkorlar uchun teng sharoitlar va adolatli raqobat muhitini ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-229-sonli Farmoni
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdaagi “Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-184-sonli Farmoni
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdaagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli Farmoni
8. Smith A. The Wealth of Nations. – London: W. Strahan and T. Cadell, 1776. – 456 pages.
9. Ricardo D. On the Principles of Political Economy and Taxation. – London: John Murray, 1817. – 350 pages.
10. Schumpeter J. The Theory of Economic Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. – 320 pages.
11. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 540 pages.
12. Birch D. The Job Generation Process. – Cambridge, MA: MIT Program on Neighborhood and Regional Change, 1979. – 275 pages.
13. Юнусова Р.Ф. Эквивиальное планирование развития предпринимательства // Ученой степени кандидата экономических наук ... дис. Автореферати: 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством (экономика предпринимательства), 2013 й, 24 б.
14. Mamatov A.A., Jo'rayev T.T., Erkayev A.N. Innovasion iqtisodiyot. –T.: 2019, 456 bet.

15. Salayev S., Gulmanov M., Saidov D., Atayev J., Tadjiyev B. Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish asoslari. O'quv qo'llanma. - T.: “Tafakkur Bo'stoni”, 2014. -288 b.

16. Мазурова И.И., Белозерова Н.П., Леонова Т.М., Подшивалова М.М. Анализ эффективности деятельности предприятия: Учебное пособие. – СПб.: Изд-во СПбГУЭФ, 2012. – 113 с.

17. Abdug'aniev A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi. 2004, 26-bet.

18. Rajabov I. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida agrolesurslar bozori muvozanati va ishlab chiqarishning samaradorligi. Dis. iqtisod fanlari doktori. T. 2006 y, 11-bet

19. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti

20. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti

21. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti

22. <https://edcom.uz/> – “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” Aksiyadorlik Jamiyati sayti



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA MENEJMENT VA MARKETING STRATEGIYALARINING O'RNI

Ibragimova Feruza Axtamovna

Fan va texnologiyalar universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası katta o'qituvchisi

Djurayev Umid Jumayevich

Fan va texnologiyalar universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası o'qituvchisi

Raxmatova Mohina Dilmurod qizi

Fan va texnologiyalar universiteti

Turizm 1/23-guruh talabasi

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a185

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda menejment va marketing strategiyalarining tutgan o'rni tahlil qilingan bo'lib, menejment va marketing tushunchalari, ularning asosiy funksiyalari va tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri yoritilgan. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar sonining yillik o'zgarish tendensiyalari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, ularning rivojlanishiga ta'sir etuvchi boshqaruv va marketing omillari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, raqobatbardoshlikni oshirish, mijozlar ehtiyojini aniqlash va samarali strategiyalarni ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari asosida tadbirkorlik subyektlari uchun menejment va marketing strategiyalarini uyg'unlashtirish orqali barqaror o'sishga erishish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, menejment strategiyalari, marketing, raqobatbardoshlik, barqaror rivojlanish

РОЛЬ СТРАТЕГИЙ МЕНЕДЖМЕНТА И МАРКЕТИНГА В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Ибрагимова Феруза Ахтамовна

Университет науки и технологий

Старший преподаватель кафедры «Экономика»

Джураев Умид Джумаевич

Университет науки и технологий

Преподаватель кафедры «Экономика»

Рахматова Мохина Дилмурод кызы

Университет науки и технологий

Студентка группы “Туризм 1/23”

Аннотация. В данной статье проанализирована роль менеджмента и маркетинговых стратегий в развитии предпринимательской деятельности. Раскрыты понятия менеджмента и маркетинга, их основные функции и влияние на деятельность субъектов предпринимательства. На основе статистических данных

проанализированы годовые тенденции изменения количества предприятий и организаций, действующих в Республике Узбекистан, а также рассмотрены управленческие и маркетинговые факторы, влияющие на их развитие. Также даны рекомендации по повышению конкурентоспособности, выявлению потребностей клиентов и разработке эффективных стратегий. На основе результатов исследования представлены пути достижения устойчивого роста предпринимательских субъектов путем интеграции менеджмента и маркетинговых стратегий.

Ключевые слова: предпринимательство, стратегии менеджмента, маркетинг, конкурентоспособность, устойчивое развитие

THE ROLE OF MANAGEMENT AND MARKETING STRATEGIES IN ENTREPRENEURIAL ACTIVITY

Ibragimova Feruza Akhtamovna

University of Science and Technologies

Senior Lecturer, Department of “Economics”

Djurayev Umid Jumayevich

University of Science and Technologies

Teacher, Department of “Economics”

Rakhmatova Mohina Dilmurod qizi

University of Science and Technologies

Student of the group “Tourism 1/23”

Abstract. This article analyzes the role of management and marketing strategies in the development of entrepreneurial activity. It explores the concepts of management and marketing, their main functions, and their impact on the operations of business entities. Based on statistical data, the article examines annual trends in the number of enterprises and organizations operating in the Republic of Uzbekistan, as well as the management and marketing factors influencing their development. Recommendations are provided on enhancing competitiveness, identifying customer needs, and developing effective strategies. The study outlines ways for entrepreneurial entities to achieve sustainable growth by integrating management and marketing strategies.

Keywords: entrepreneurship, management strategies, marketing, competitiveness, sustainable development

Kirish

Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish va uni barqaror rivojlantirishda menejment va marketing strategiyalarining oʻrni beqiyosdir. Zamonaviy iqtisodiyotda tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy oʻsishning muhim omili, balki yangi ish oʻrinlari yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va ijtimoiy farovonlikni taʼminlash vositasi sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tadbirkorlik subyektlari oʻz faoliyatini muvaffaqiyatli yuritish uchun samarali menejment uslublarni qoʻllashi, bozor talabini chuqur tahlil qilgan holda raqobatbardosh marketing strategiyalarini ishlab chiqishi va joriy etishi zarur boʻlmoqda. Ushbu maqolada aynan shu jihatlar – menejment va marketing strategiyalarining tadbirkorlik faoliyatidagi tutgan oʻrni, ularning ahamiyati yoritib beriladi.

Bozor munosabatlari rivojlanishining zamonaviy bosqichi korxonadan eng samarali marketing vositalaridan va mohir boshqaruv jarayonidan foydalanishni talab qiladi. Chunki marketingni boshqarishning etarli darajada samarasizligi o'zgaruvchan bozor sharoitlariga o'z vaqtida javob berishga bevosita ta'sir qiladi, shuning uchun strategik marketing zamonaviy korxona biznes faoliyatining ajralmas qismiga aylanishi kerak [1].

Tadbirkorlikda samarali boshqaruv va marketing strategiyalari muvaffaqiyat uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ularning ta'siri aniq hamda o'zaro bog'liq hisoblanadi. Menejment biznesning umumiy yo'nalishini, resurslarni taqsimlashni va etakchilikni o'z ichiga oladi, marketing esa maqsadli bozorni tushunishga va potentsial mijozlarga qiymat yetkazishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqotlari marketingni boshqarish muammolari va tadbirkorlik faoliyatida marketingni boshqarishni takomillashtirish muammolarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, quyida bir nechta olimlarning tadqiqot ishlarini o'rganib chiqamiz.

Jumladan, amerikalik olim Philip Kotler marketing strategiyalarini tashkilotning umumiy muvaffaqiyati uchun asosiy vosita sifatida ko'radi. Uning ta'kidlashicha, korxonalar bozordagi ehtiyoj va istaklarni chuqur o'rganib, mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqmog'i lozim [2].

Yana bir mashhur xorijiy olim, menejment nazariyotchisi Peter Drucker esa tadbirkorlikni boshqarishda strategik fikrlash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish muhimligini urg'ulaydi. Unga ko'ra, har qanday biznes muvaffaqiyati, eng avvalo, to'g'ri boshqaruv yondashuvlari va natijadorlikka yo'naltirilgan menejment strategiyalariga bog'liq [3].

Menejmentda jarayonli yondashuvga ko'ra, har qanday obyekt, jarayon yoki hodisani boshqarish uchun umumiy boshqaruv funktsiyalarining ketma-ketligi quyidagicha: motivatsiya, rejalashtirish, tashkil etish va marketing jarayonlari [4].

Xarkavenko ham ushbu yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi, ammo uning tadqiqotida korxonalarda marketing menejmentini boshqaruv funktsiyalari nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni taklif qiladi: marketingni rejalashtirish, marketingni tashkil etish, rag'batlantirish, shuningdek marketing faoliyatini nazorat qilish. O'zining tadqiqotlarida olim marketing menejmentini tahlil qilish, rejalashtirish, amalga oshirish va mahsulotga bo'lgan talabni shakllantirish va ko'paytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni nazorat qilishni o'z ichiga olgan boshqaruv faoliyati sifatida belgilaydi [5].

Mahalliy tadqiqotchilardan A. Xudoyberganov o'z tadqiqotlarida O'zbekiston sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirishda menejment madaniyatini shakllantirish va mahalliy bozorning o'ziga xos jihatlarni hisobga olgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish zarurligini alohida ta'kidlaydi [6]. Unga ko'ra, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun

soddalashtirilgan, lekin maqsadli auditoriyaga moslashtirilgan strategiyalar dolzarb hisoblanadi.

Shuningdek, N. Jo'rayevaning izlanishlarida raqobatbardoshlikni oshirishda zamonaviy marketing texnologiyalarining, ayniqsa, raqamli marketing vositalarining qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. U marketing strategiyalarining muvaffaqiyatli qo'llanilishi korxonaning bozordagi barqaror o'rnini mustahkamlashda asosiy omil bo'lishi mumkinligini qayd etadi [7].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada tahliliy va statistik metodlar asosida O'zbekiston hududlarida tadbirkorlik subyektlari sonining o'zgarish dinamikasi o'rganildi. Asosiy ma'lumotlar manbasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalanildi. Shuningdek, kontent tahlil usuli orqali mahalliy va xorijiy adabiyotlar o'rganilib, menejment hamda marketing strategiyalarining nazariy asoslari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

Korxonalarda marketing strategiyasi - bu korxonaning ishlab chiqarish va tijorat faoliyati bo'lib, u foyda olish maqsadida ayirboshlash orqali iste'molchilarning o'z mahsulotiga (tovar va xizmatlariga) bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash va qondirishga qaratilgan. Marketing va menejment har qanday korxonaning iqtisodiy faoliyatida muhim rol o'ynaydi, chunki u tashkilot va uning tashqi muhiti o'rtasida optimal munosabatlarni o'rnatishga imkon beradi (1-rasm).

Korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi bevosita to'g'ri tanlangan menejment va marketing strategiyalariga bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kundagi tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatida turli strategik yondashuvlardan foydalanmoqda. Ushbu strategik yondashuvlarning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Strategik muvofiqlashtirish. Marketing strategiyalari barcha harakatlar bir xil maqsadlarga erishishga yo'naltirilganligini ta'minlash uchun umumiy biznes strategiyasi va maqsadlariga mos kelishi kerak.

2. Ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish. Marketing ma'lumotlari va tahlillari operatsion samaradorlikni oshirish va yaxshiroq boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun qimmatli tushunchalarni berishi mumkin.

3. Mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv. Menejment ham, marketing ham mijozlar tajribasini birinchi o'ringa qo'yishi kerak, bu esa biznesning mijozlar ehtiyojlari va kutganlarini qondirishini ta'minlashi kerak.

4. Innovatsiya va moslashuvchanlik. Tadbirkorlar moslashuvchan va innovatsion bo'lishlari, bozor o'zgarishlariga javoban o'z mahsulotlari, xizmatlari va marketing strategiyalarini yaxshilashning yangi usullarini doimiy ravishda izlashlari kerak.

5. Barqaror o'sish. Barqaror o'sish va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish uchun samarali boshqaruv va marketing strategiyalari muhim ahamiyatga ega.



1-rasm. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda qo'llaniladigan menejment va marketing startegiyalari³²

Korxonaning marketing faoliyati strategik maqsadlarni, ularga erishish yo'llarini va iqtisodiy faoliyatning real manbalarini belgilashga, shuningdek, mahsulot assortimenti va sifatini, ularning ustuvor yo'nalishlarini, ishlab chiqarishning optimal tuzilmasini va bozor talablaridan kelib chiqqan holda kutilayotgan foydani aniqlashga qaratiladi. Korxonada marketingni boshqarish tizimli yondashuvga asoslanadi, bunda marketingning ham tashqi omillari, ham ichki omillar ta'sirini o'z ichiga oladi. Korxonaning marketing


³² Muallif ishlanmasi

faoliyatini boshqarish tizimiga ta'sir etuvchi ichki omillarga, birinchi navbatda, korxona faoliyatida bevosita ishtirok etuvchi boshqariladigan omillar, jumladan, uning ishlab chiqarish, moliyaviy, kadrlar va xo'jalik xizmatlari, moddiy-texnik ta'minot bo'linmalari, marketing tuzilmalari kiradi.

Korxonaning marketing faoliyatiga ta'sir qiluvchi tashqi omillarga mikromuhit (iste'molchilar, raqobatchilar, yetkazib beruvchilar, aloqa auditoriyalari) va makro muhit omillari kiradi, ular yettita guruhni o'z ichiga oladi:

- 1) siyosiy (hukumat qonunlari va hujjatlari, bojxona tariflari, soliq tizimi);
- 2) ijtimoiy (madaniy, diniy, an'anaviy xususiyatlar (jamiyatning ayrim guruhlari va aholining ish bilan ta'minlanish darajasi);
- 3) aholining ishsizligi, ishlab chiqarish xarajatlari va boshqalar);
- 4) xalqaro (valyuta kursining o'zgarishi, eksport qiluvchi mamlakatlarning siyosiy qarorlari va boshqalar);
- 5) texnologik (ilmiy-texnika taraqqiyoti darajasi);
- 6) bozor (demografik sharoitlar, bozor to'siqlari, raqobat darajasi);
- 7) raqobatbardoshlik (raqobatchilarning bozorda hukmronlik qiladigan shartlari).

Marketing tamoyillari kompaniyaning to'g'ridan-to'g'ri maqsadli auditoriyaning talablari va ehtiyojlarini aniqlashga, shuningdek, raqobatdosh kompaniyalarga nisbatan ushbu ehtiyojlarni samaraliroq qondirishini ta'minlaydi.



2-rasm. Tadbirkorlik faoliyatida menejment va marketing strategiyalarining funksional yo'nalishlari va natijalari

Korxonani boshqarish tizimida marketing - bu korxonaning maqsad va vazifalarini, shuningdek, korxona tomonidan taqdim etilayotgan tovarlar va xizmatlarni yetkazish orqali korxonaning turli funktsional bo'linmalarining sa'y-harakatlarini birlashtiruvchi integral funktsiya hisoblanadi.

Menejment va marketing strategiyalari tadbirkorning bozor muhitida faol va raqobatbardosh harakat qilishini ta'minlaydi.

2-rasmda menejment va marketing strategiyalarining asosiy funksiyalari va ularning tadbirkorlik faoliyatidagi amaliy natijalari yoritilgan. Unga ko'ra:

Menejment – Ichki boshqaruvga qaratilgan strategiyalarni ifodalaydi. Bular orqali tashkilot ichki tartib, yetakchilik, resurs taqsimoti va xatarlarni boshqarishni amalga oshiradi.

Marketing – Tashqi muhit bilan aloqalarni belgilaydi. Bozor tahlili, mijoz ehtiyojlari, narxlash siyosati va reklama strategiyalari orqali kompaniya o'z mahsulotini iste'molchiga yetkazadi.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda menejment va marketing strategiyalarining tutgan o'rni amaliyotda ayniqsa korxonalar sonining o'sishi, yangi subyektlarning paydo bo'lishi orqali yaqqol namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston iqtisodiy islohotlar jarayonida tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyatlar, soliq va kredit imtiyozlari, biznes yuritish muhitining soddalashtirilishi tufayli korxona va tashkilotlar soni ortib bormoqda. Ushbu jarayon menejment va marketing yondashuvlarining amaliy ahamiyatini yanada oshirib, raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

1-jadvalda O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan hamda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining yillik dinamikasi keltirilgan.

1-jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha, faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 2010-yilda 200951 tadan 2024-yilda 485024 tagacha oshgan. Bu qariyb 2,4 barobar o'sishni ko'rsatadi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni esa 2010-yilda 34326 tadan 2020-yilda 95311 taga chiqib, 2024-yilda biroz pasayib, 79667 ni tashkil qilgan. Bu esa 2010–2020-yillarda yuqori o'sish, ammo so'nggi yillarda barqarorlashuv kuzatilayotganini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, barcha viloyat va hududlarda faoliyat yuritayotgan hamda yangi tashkil etilgan korxonalar sonida ijobiy dinamiya kuzatilmoqda. Jumladan, Toshkent shahri respublikada yetakchi o'rinni egallab, 2010-yildagi 39174 ta faoliyat yuritayotgan korxona 2024-yilda 99151 taga yetgan bo'lsa, yangi tashkil etilgan korxonalar soni ham ayniqsa 2020-yilda 14875 taga va 2024-yilda esa 17021 taga yetib, boshqa hududlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichni qayd etgan.

O'zbekistonda korxona va tashkilotlar soni dinamikasi³³

Faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni					Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni			
Hudud	2010	2015	2020	2024	2010	2015	2020	2024
O'zbekiston Respublikasi	200951	246687	398133	485024	34326	27915	95311	79667
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9835	12234	18404	25928	1839	1201	4568	3254
Andijon viloyati	18070	24835	30740	29717	2653	1874	7849	4294
Buxoro viloyati	12360	12082	23459	31203	2106	1519	6041	5121
Jizzax viloyati	7243	9722	17190	19923	1479	1197	4384	4469
Qashqadaryo viloyati	15627	19570	25259	33064	2715	1681	5916	4669
Navoiy viloyati	7024	8127	17067	21880	975	830	4354	3046
Namangan viloyati	13207	16698	25909	27634	2247	1643	6345	4031
Samarqand viloyati	15161	17610	31354	43477	2263	2111	8828	6841
Surxondaryo viloyati	12367	12259	19220	24657	1861	1306	7666	4940
Sirdaryo viloyati	6496	8195	13169	13432	1353	945	3011	1852
Toshkent viloyati	16981	23954	38523	45295	2902	2750	8481	6987
Farg'ona viloyati	16879	21795	35379	42574	2901	2357	8272	6153
Xorazm viloyati	10527	13003	18614	27089	1940	1396	4721	6989
Toshkent shahri	39174	46603	83846	99151	7092	7105	14875	17021

Samarqand, Farg'ona va Andijon viloyatlarida ham o'sish sur'atlari yuqori. Jumladan, Samarqand viloyatida 2010-yildan 2024-yilgacha faoliyat yuritayotgan korxonalar soni ikki baravardan ko'proqqa oshgan. Andijon va Farg'ona viloyatlarida esa ayniqsa 2020-yildagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni yuqori hisoblanadi. Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida ham o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, ularning ko'rsatkichlari boshqa viloyatlarga nisbatan pastroq darajada.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda marketingni samarali boshqarish korxona rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo'lib, bu biznesga sezilarli raqobatdosh ustunliklarni qo'lga kiritish va tashqi muhit omillariga tezkorlik bilan javob berish imkonini beradi.

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatining roli tobora ortib bormoqda. Ushbu jarayonda menejment va marketing strategiyalarining ahamiyati beqiyos bo'lib, ular korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish, bozorda mustahkam o'rin egallash va barqaror raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda respublika bo'yicha faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining

³³ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/usreo-2> - O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasining rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tuzildi

barqaror o'sib borayotgani aynan samarali boshqaruv va marketing yondashuvlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Korxonalarda zamonaviy menejment tamoyillarini joriy etish, iste'molchilarning ehtiyojlarini chuqur o'rganishga asoslangan marketing strategiyalarini ishlab chiqish va qo'llash korxonalarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va tezkor rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar, brend yaratish va bozorni segmentlashtirish kabi zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshiradi.

Shu bois, tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatida menejment va marketing strategiyalarini to'g'ri tanlash va ularni samarali qo'llash orqali nafaqat o'z biznesini rivojlantiradi, balki mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga ham salmoqli hissa qo'shadi. Kelgusida bu sohada chuqur ilmiy tadqiqotlar, innovatsion yondashuvlar va davlat tomonidan yanada kengroq qo'llab-quvvatlash choralari tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonalar o'z marketing va menejment strategiyalarini puxta rejalashtirishi ularning nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro bozorlarda ham raqobatbardosh bo'lishlarini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. V.Shyshkin, O.Onyshchenko, D.Zevenko, O.Bilyk. *Marketing management in entrepreneurial activity: strategical aspect*. Management and entrepreneurship, 3(25):60-90, October, 2023. DOI: [10.26661/2522-1566/2023-3/25-05](https://doi.org/10.26661/2522-1566/2023-3/25-05)
2. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). *Marketing Management* (15th ed.). Pearson Education.
3. Drucker, P. F. (2007). *The Essential Drucker: The Best of Sixty Years of Peter Drucker's Essential Writings on Management*. HarperBusiness.
4. Лаврова Ю.В. Маркетинг. Класичні положення і особливості застосування натранспорті: конспект лекцій. Харків: ХНАДУ, 2012. 227 с
5. Гаркавенко С.С. Маркетинг. Київ: Лібра, 2008. 276 с.
6. Xudoyberganov, A. (2020). *Tadbirkorlikni rivojlantirishda menejment va marketing strategiyalarining o'rni*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
7. Jo'rayeva, N. (2021). *Marketing strategiyalari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi*. Toshkent: Ilm ziyo.
8. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/usreo-2> - O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasining rasmiy sayti



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISH HOLATI VA MAQSADLI KO'RSATKICHLARI TAHLILI

Otaboyeva Dildora Ilhomboy qizi

TDIU, Ekonometrika kafedrası assistenti

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a186

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish holati, mavjud imkoniyatlar va mavjud muammolar tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar asosida kelajakda kasblar paydo bo'lishi, hamda O'zbekistonda yalpi qo'shilgan qiymatda "axborot-kommunikatsiya" sohasidagi xizmatlar hajmining o'sish dinamikasi ko'rsatilgan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot bo'yicha qabul qilingan strategik hujjatlar, davlat dasturlari va ularning bajarilish dinamikasi statistik ma'lumotlar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlari: raqamli texnologiyalar, robotlar, depozit pul, virtual advokat, raqamli lingvist, elektron hukumat, AKT sanoati, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi, muddatli broker, mobil aloqa.

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ И ЦЕЛЕВЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Отабоева Дилдора Илхомбой кизи

ТГЭУ, ассистент кафедры Эконометрики

Аннотация. В данной статье анализируется состояние развития цифровой экономики в Республике Узбекистан, имеющиеся возможности и существующие проблемы. Показано появление профессий на основе цифровых технологий в будущем, а также динамика роста объема услуг в сфере "информационно-коммуникационных" услуг в валовой добавленной стоимости в Узбекистане. Также были разработаны предложения и рекомендации по принятым стратегическим документам по цифровой экономике, государственным программам и статистическим данным динамики их реализации.

Ключевые слова: цифровые технологии, роботы, депозитные деньги, виртуальный адвокат, цифровой лингвист, электронное правительство, индустрия ИКТ, объем иностранных инвестиций и кредитов, срочный брокер, мобильная связь.

ANALYSIS OF THE STATE AND TARGET INDICATORS OF THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN

Otaboeva Dildora Ilkhomboy kizi

TSUE, Assistant teacher, Department of Econometrics

Abstract. This article analyzes the state of development of the digital economy in the Republic of Uzbekistan, existing opportunities and existing problems. The emergence of professions based on digital technologies in the future, as well as the growth dynamics of the volume of services in the field of "information and communication" in gross value added in Uzbekistan, are shown. Also, proposals and recommendations were developed on

the adopted strategic documents, state programs, and statistical data on the dynamics of their implementation in the digital economy.

Keywords: digital technologies, robots, deposit money, virtual lawyer, digital linguist, e-government, ICT industry, volume of foreign investments and loans, term broker, mobile communication.

Kirish

Raqamli iqtisodning samaradorligini har bir zamonaviy tadqiqotchi va tajribali tadbirkor koʻrmaydi. Aholiga tahdid solayotgan tomoni shundaki, raqamli iqtisodning eng muhim namoyishi - robotlarni ishlab chiqarishga va xizmat koʻrsatish sohasiga keng joriy etishdir. Soʻnggi paytlarda hatto xalqaro tashkilotlar ham iqtisodiyotni robotlashtirishga olib kelishi mumkin boʻlgan xavflarni tushunishdi, chunki robotlar deyarli odamlarni yoʻq qiladi. Bashoratlarga koʻra, kelgusi oʻn yilliklar ichida uchinchi dunyo aholisining uchdan ikki qismi ishsiz boʻladi. Muammo bu mamlakatlarga tegishli boʻlishi tasodif emas, chunki bu yerda robotlashtirishga duch keladigan moddiy ishlab chiqarish ustunlik qiladi.

Oʻtgan asrning oxirida ham naqd boʻlmagan raqamli pul rasmiylashtirilgan edi. Ular markaziy banklar tomonidan chiqarilgan va ular depozit pul deb atalar edi. Endi yangi pul toʻplami paydo boʻladi, bu shaxsiy raqamli pul deb ataladi. Koʻpgina mutaxassislarning fikriga koʻra, bu odamlar uchun hayotni osonlashtirmaydi. Shu bilan birga, yoshlarning yangi texnologiyalarga moslashishi osonroq boʻlgan raqamli iqtisoddagi yoshlarning ahamiyati katta yoshdagilarga qaraganda muhimdir. Shubhasiz raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi aholi bandligi sohasiga taʼsir qiladi.

Kelajakda quyidagi kasblar paydo boʻlishi mumkin:

- shaxsiy brendni boshqaruvchi;
- virtual advokat;
- davlat organlari vakillari bilan muloqot platformasi moderatori;
- infostyleist;
